

9 FEBRUARY



ISOC
INTERNATIONAL
SCIENTIFIC
ONLINE
CONFERENCES

INTERNATIONAL CONFERENCE IN

TURKEY

THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH

zenodo

OpenAIRE

doi[®] digital
object
identifier

OPEN  ACCESS

info.interonconf@mail.ru

www.interonconf.org



TURKEY International scientific-online conference:
"THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH"

Part 33
FEBRUARY 9th

COLLECTIONS OF SCIENTIFIC WORKS

ISTANBUL 2025

~ 2 ~

TÜRKİYE Uluslararası Bilimsel-Çevrimiçi Konferans

THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH: a

Uluslararası bilimsel çevrimiçi konferansın bilimsel çalışmalarının toplanması (9 Şubat 2025) - Türkiye, İstanbul : "CESS", 2025. Bölüm 33, - 254 s.

Genel Yayın Yönetmeni:

Candra Zonyfar - Doktora Üniversitesi Buana Perjuangan Karawang, Endonezya Sunmoon Üniversitesi, Güney Kore.

Yayın Kurulu:

Martha Merrill - PhD Kent State University, USA

David Pearce - ScD Washington, D.C., USA

Emma Sabzalieva - PhD Toronto, Canada

Languages of publication: русский, english, Turkish, қазақша, uzbek, limba română, кыргыз тили, Հայերեն

Koleksiyon, Uluslararası Bilimsel çevrimiçi konferansa katılan bilim adamları, yüksek lisans öğrencileri ve öğrencilerin bilimsel araştırmalarından oluşmaktadır.

"THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH".

9 Şubat 2025'te İstanbul'da gerçekleşti.

Konferans bildirileri, yükseköğretim kurumlarında bilim adamları ve öğretmenler için önerilir. Lisansüstü öğretim süreci, lisans ve yüksek lisans dereceleri almaya hazırlık dahil olmak üzere eğitimde kullanılabilirler. Tüm makalelerin incelemesi uzmanlar tarafından yapılmıştır, materyaller telif hakları yazarlarına aittir. İçerikten, araştırma sonuçlarından ve hatalardan yazarları sorumludur.

© "CESS", 2025

© Authors, 2025

TABLE OF CONTENTS

Daminova Gulfiya Salim qizi SAVOD O'RGATISH METODIKASI	7
Ishonkulova Shirin Qo'chqarovna "BEMORLARNI PARVARISHLASH VA HAMSHIRALIK JARAYONINI MODELLAR ASOSIDA O'TKAZISH"	10
Raxmonova Shoxsanam O'ktamovna "XALQ TABOBATIDA QO'LLANILADIGAN ASOSIY DAVOLASH USULLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI"	14
Kurbanov Abror DIDACTIC BASIS OF DEVELOPING INTELLECTUAL COMPETENCES IN FUTURE ELECTRICAL ENGINEERS	18
Shixova Inobat Omonovna TAFAKKUR TUSHUNCHASINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	23
Jo'rayeva Shahnoza Shakarboy qizi STRESS VA ATRESSNI TEZ VA OSON YENGISH USULLARI	26
Axmadova O'g'ilyo «BEMOR PSIXOLOGIYASINI ANGLASH VA SAMARALI PSIXOLOGIK YORDAM USULLARI»	30
Farmanova Rukhshona Hayatjon's daughter ECONOMY IS THE BODY OF CIVIL SOCIETY LIFE	40
Джумабаева Мадина Клышбаевна., Хожанова Айзада Даулетниязовна ТУРЛИ ХИЛ ДВИГАТЕЛ ТУРЛАРИНИНГ ДИАГНОСТИКАСИ ВА ТАЪМИРИ	45
M.A.Razzoqova ABDULLA QODIRIY- MUSHTUM JURNALI HAQIDA	50
Хасанов Дилшод Шухратович УЛУШ КИРТИТИШ АСОСИДА ҚУРИЛИШДА ИШТИРОК ЭТИШ БЎЙИЧА ШАРТНОМАВИЙ МУНОСАБАТЛАРГА ОИД ХОРИЖИЙ ТАЖРИБА	53
Xolmurodova Sevinch Jumanazarovna., Tursunov Behruz KONSTITUTSIYA - YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTINING HUQUQIY MUSTAHKAM POYDEVORI	62
Soatmurodova Marjona Bahridin qizi., Saksonova Sarvinoz Zuxriddin qizi QAHRAMONNING PYESADAN TASHQARI HAYOTI TAHLILI	66
Akhmedova Sarvinoz Hikmatovna., Islomova Bahora Ne'matjonovna INTEGRATING AI IN FOREIGN LANGUAGE LEARNING AND AND TEACHING.	71
Akhmedova Sarvinoz Hikmatovna Mukhammadova Mehrangiz Mahmudovna BILINGUALISM AND COGNITIVE DEVELOPMENT	74
Rustamov Jahongir Ilhom o'gli "O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI" AJDA MARKETING TIZIMINI RIVOJLANTIRISH	78
Abdurashidova Nilufar Shuhrat qizi JAHON TAJRIBASIDA FAKTCHEKING	83
Akbarov Alijon Ikrom o'g'li., Madiyeva Madina Yusupovna, O'ZBEKISTON TA'LIM TIZMIDA INGLIZ TILINI O'RGANISHDAGI MUOMMO VA YECHIMLAR	92
Akhmadaliev Azamjon GEOPOLITICS AND SECURITY: RELATIONS BETWEEN RUSSIA AND	97

<i>AFGHANISTAN IN THE PAST, PRESENT AND FUTURE</i>	
Abdurashidova Nilufar Shuhrat qizi <i>INTERNET JURNALISTIKASINING AXLOQ QOIDALARI</i>	103
Erjanova Miyrigul Erg'aliyevna <i>AKUT LÖSEMİLER</i>	111
Nurmamatov B.I., Shirinova D.O Eshchanov R.A., Ubaydulloyev F.B <i>INSON ORGANIZMIDAGI KIMYOVIY ELEMENTLAR VA BIRIKMALAR VA BARQAROR TARAQQIYOT</i>	117
Mirodilova Odinoxon Abdumutal qizi., Topvoldiyeva Saidaxon Baxovodin qizi <i>DORIVOR MOYCHECHAK O'SIMLIGINI YETISHTIRISH AGROTEXNOLOGIYASI</i>	124
Bozarboyeva Go`zal Doniyorovna <i>LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISHDA CHET EL KAPITALINING O`RNI VA DAVLATNING RO`LI</i>	130
Xomidova Tursunoy <i>KO'KRAK SARATONINING TARQALISH EPIDEMIOLOGIYASI</i>	134
Haydarov Anvar Askarovich., Tosheva Farangiz Bobomurodovna <i>INGLIZ VA O'ZBEK ERTAKLARIDA "ISTAK" KATEGORIYASINING TAVSIFI VA TALQINI</i>	137
О.В.Прозорова., М.Рихсибаева И.Рихсибаев., М.Тухтамуратова., Ш.Э.Туланов <i>ПРЕИМУЩЕСТВА И НЕДОСТАТКИ СМЕСОВЫХ ОДЕЖНЫХ ТКАНЕЙ</i>	143
Sultanova Jasmina Nurmuxammad qizi <i>CULTURAL DIFFERENCES BETWEEN CHINA AND WESTERN COUNTRIES</i>	151
Parpiyeva Odinoxon., Erkinova Gulnoza <i>EKOLOGIYA,OZIQLANISH VA INSON SALOMATLIGI</i>	153
Mehribon Qo'shnazarova., Akbar Otaboyev <i>FAQIRIY IJODIDA OGAHIYGA IZDOSHLIK TALQINI</i>	156
Homidova Maftuna <i>BUXORO VILOYATIDAGI TUMAN NOMLARINING KELIB CHIQUISH TARIXI.</i>	163
Султанов Бахтиёр Бахтиёрович <i>ВЛИЯНИЕ СМИ НА ФОРМИРОВАНИЕ МОРАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ И ПРАВСТВЕННЫХ ОРИЕНТИРОВ У МОЛОДЕЖИ ЧЕРЕЗ ПОПУЛЯРИЗАЦИЮ СПОРТА.</i>	167
Abdusattarova Madina Xusnuddinovna <i>MENEJER FAZILATI</i>	172
Jonibek Farmanov Ziyadullayevich., Mamatqulova Sevinch Faxriddin qizi <i>IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI ASALARICHILIK SOHASGA JORIY ETISH SAMARADORLIGI</i>	177
Sh.I.Soatov., D.A.Esankulova <i>ORALIQ EKINLARGA QO'LLANILGAN ORGANO-MA'DAN KOMPOSTLARNI TUPROQNING HAJM MASSASIGA TA'SIRI</i>	184
Ra'no Karamova <i>O'ZBEKISTON VA QORAQALPOG'ISTON XALQ ARTISTI POLAT MADREYMOVNING RAQS XRONOLOGIYASI</i>	189
Хўжанова Дилшода Рустам қизи <i>ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИ ФАОЛИЯТИДА НИЗОЛИ ҲОЛАТЛАР ВА УЛАРНИ БАРТАРАФ ЭТИШ ЙЎЛЛАРИ</i>	195

Djumaeva Nozima Djuraboevna., Jurakulova Parizoda Otabek kizi <i>THE IMPORTANCE OF LANGUAGE IN HUMAN COMMUNICATION AND SOCIETY</i>	204
Saidova Zulfizar Khudoyberdievna., Ramazonova Shahnoza Yuldosh kizi <i>THE POWER OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN EXPRESSING THOUGHTS AND IDEAS</i>	207
Shukurova Madina Askarovna., Hikmatova Aziza Quvvat qizi <i>UNDERSTANDING STYLISTIC DEVICES IN LITERATURE: A GUIDE TO ENHANCING EXPRESSION</i>	211
Shukurova Madina Askarovna., Sobirova Shaxinabonu Sharifovna <i>UNDERSTANDING THE CATEGORIES OF MOOD IN ENGLISH VERBS</i>	218
Shukurova Madina Askarovna., Sobirova Vazirabonu Sharifovna <i>TEACHING ENGLISH LISTENING: STRATEGIES AND TECHNIQUES</i>	225
Ismoilova Oqilaxon Habibullo's daughter <i>SYMPTOMS OF ANEMIA AND PLANTS USED IN ITS TREATMENT</i>	234
Ne'matullayeva Xilola Lutfulla qizi <i>METHODOLOGY FOR DEVELOPING CRITICAL THINKING SKILLS OF FUTURE ENGLISH LANGUAGE TEACHERS</i>	238
Sh.To'xtayev., H.Isaxanov <i>ARRALI JIN ISHCHI KAMERASI SAMARADORLIGI VA SIFATINI OSHIRISH YO'LLARI</i>	246
Fayziyev Baxodir <i>DAVLAT BUDJET DAROMADLARINI KENGAYTIRISHDA SOLIQSIZ DAROMADLARNING TA'SIRI</i>	251
Fayziyev Baxodir <i>BIZNES JARAYONLARINI REINJINIRING QILISH</i>	254

SAVOD O'RGATISH METODIKASI*Toshkent amaliy fanlar universiteti**Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi**3-bosqich talabasi***Daminova Gulfiya Salim qizi**

Annotatsiya: *Savod o'rgatishning birinchi kunlaridanoq o'qish ongli bo'lishi, bolalarni ongli o'qishga o'rgatish juda muhim. So'roqlar yordamida o'qilganlarni bola qanday tushungani aniqlanadi, tekshiriladi. O'qishdan oldin o'tkazilgan tayyorlov suhbatlari ham, o'qilgan matn yuzasidan o'tkazilgan suhbat ham shu maqsadga - ongli o'qishga xizmat qiladi. Sharoitga qarab, bolalarga nimanidir o'qishni talab qiladigan muammoli holatni yaratish ham zarur. Bunday holat "Alifbe"dan yoki harf terish m atosidan, o'qiladigan topishm oqdan foydalanib yoki muammoli savolni keltirib chiqaradigan taxminiy suhbat yordamida hosil qilinishi mumkin.*

Kalit so'zlar: *ona tili, savod, savodxonlik, o'qish, muallim.*

Ma'lumki, savod o'rgatish jarayonidagi o'qish darslarining asosiy vazifasi o'quvchilarga tovush va harfni tanishtirish, ulairning to'g'ri talaffuzini o'rgatish orqali bolalarda to'g'ri, ongli, ifodali o'qish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Shuningdek, o'quvchilar lug'atini boyitish, bog'lanishli nutqini o'stirish, bilimni boyitish, tafakkurini shakllantirish, eshitish, qabul qilish sezgisini o'stirishda ham bu davr mas'uliyatliligi bilan alohida o'rin tutadi.

O'qish va yozish - nutq faoliyatining turi. Maktabda o'qitish elementar o'qish va yozishga o'rgatishdan boshlanadi. "Alifbe"ga asoslangan holda qisqa vaqt ichida o'quvchilar o'qish va yozishga o'rgatiladi, ya'ni o'qish va yozish ko'nikmasini egallaydilar.

Savod o'rgatish davrida o'qish va yozish harakatini maqsadga muvofiq ravishda bajara olish o'qish va yozish ko'nikmasi deyiladi. Bu ko'nikma bilimni talab qiladi, chunki har qanday ko'nikma bilimsiz shakllanmaydi. Bilim ko'nikmaga aylanmagan bo'lishi mumkin. Masalan, bola v harfining elementlarini, yozuv chiziqlari orasiga qanday joylashtirilishini bilib, uni daftarda yoza olmasligi yoki o'quvchi harflarni tanib, ularni o'qiy olmasligi mumkin. Yozish ko'nikmasini hosil qilish

uchun boshqa faoliyat turlari, ya'ni yozish jarayonida partada to'g'ri o'tirish, ruchkani barmoqlar orasida tutish, daftarni qiyalikda qo'yish kabilar ham o'rgatiladi.

O'qish va yozish ko'nikmasi takomillashtirila borib, malakaga aylantiriladi. Malakaning shakllanishi uchun bir faoliyat bir necha bora takrorlanishi lozim. Yozish malakasida o'quvchi ruchkani qanday ushlab, qanday yurgizish haqida o'ylab o'tirmay, so'z va gaplarni yoza boshlaydi. Demak, o'qish va yozish malakasi harakatning o'ylab o'tirmay amalga oshirilish jarayonidir. Malaka o'qitishning keyingi bosqichlarida mustahkamlanib, avtomatlashish darajasiga yetkaziladi.

O'qish va yozish malakasi biri ikkinchisining muvaffaqiyatli amalga oshuvini ta'minlaydi. SHuning uchun ham o'qishga o'rgatish bilan yozuvga o'rgatish parallel olib boriladi va bu faoliyat muntazam ravishda mashq qildiriladi. Shunday ekan, savod o'rgatish jarayonida bola juda ko'p o'qishi va yozishi zarur.

O'zbek tili yozuvi tovush yozuvi, ya'ni fonematik yozuvdir. Har bir tovush uchun, har bir fonema uchun maxsus grafik shakl (harf) olingan. O'qishda grafik shakllar tovushga aylantirilsa, yozuvda aksincha, tovushlar harflarga aylantiriladi.

O'zbek tilining tovush tizimi va yozuvi. O'zbek tili yozuvi fonematik yozuv hisoblanadi. 1993-yildan boshlab o'zbek tili yozuvi uchun lotin grafikasi asos qilib olindi. Nutqning har bir tovushi uchun unga mos grafik shakl qabul qilindi.

O'qituvchi savod o'rgatish jarayonida o'quvchilarni tovush va harflar bilan tanishtirishda, ularni sintezlab o'qishga o'rgatishda o'zbek tilining fonetik xususiyatlarini hisobga olishi zarur.

Savod o'rgatish analitik-sintetik tovush metodiga asosan olib boriladi. So'z bo'g'inga bo'linadi, bo'g'indan kerakli - o'rganilayotgan tovush ajratilib olinadi, tahlil qilinadi, o'rganiladigan harf bilan sintezlanadi, shu asosda harf va butun o'qish jarayoni o'zlashtiriladi. Bunda o'zbek tili grafik tizimi, tovushlarni yozuvda belgilash xususiyatlari hisobga olinadi. Savod o'rgatishda o'zbek tili grafik tizimining quyidagi xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega.

Tutuq belgisi (') unli tovushdan so'ng kelsa, uni cho'zib talaffuz qilishga, undosh tovushdan so'ng kelsa, undoshni unidan ajratib talaffuz qilishga xizmat qilishi haqida ham tushunchalar berilib, asta-sekin uni qo'llashga doir ko'nikma va malakalar shakllantiriladi.

O'qishning dastlabki bosqichida orfografik o'qishdan foydalaniladi,

asta-sekin orfoepik o'qish ko'nikmalari shakllantiriladi. Talaffuzi yozilishiga mos kelmaydigan tovushlar ishtirok etgan so'zlar oldin orfografik, so'ngra orfoepik o'qib beriladi va ularning o'qilishi bilan yozilishi taqqoslanadi. O'quvchilar muayyan darajada tushunchaga ega bo'lganlaridan so'ng orfoepik o'qish mashq qilinadi.

Bola endigina o'qishni boshlagan davrda qatorni yo'qotmasliklarini, shuningdek, so'zdagi birorta harfni yoki so'zni tushirib qoldirmaslik uchun xatcho'pdan (o'qiyotgan betni belgilab qo'yish uchun kitob ichiga solib qo'yiladigan qog'oz yoki lentacha) foydalanishga o'rgatish juda muhimdir. O'qilayotgan qatorni kuzatib borish ko'nikmasi sinf o'quvchilaridan o'rtog'ining xatosini to'g'rilashni talab qilish yo'li bilan hosil qilinadi. O'quvchilar bu talabni qiziqib bajaradilar, shu yo'l bilan ularning o'qishga e'tibori ortib boradi. Demak, o'quvchilarni o'qishga o'rgatish, ularning o'qish sur'atini oshirish, ifodali va ongli o'qish elementlarini shakllantirish o'quvchilarni o'qishning keying bosqichiga muvaffaqiyatli tayyorlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Matchonov S., Bakiyeva H., Gulyamova X. va b. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. -T.: Ishonchli hamkor. 2021.
2. М.П. Воюшина, С.А.Кислинская, Е.В. Лебедева. Методика обучения литературе в начальной школе. -М.: -Академия. - 2010.
3. Matchonov S., Shojalilov A., G'ulomova X. va b. O'qish kitobi. 4-sinf uchun darslik. -T.: Yangiyo'l poligraf servis.2020.

“BEMORLARNI PARVARISHLASH VA HAMSHIRALIK JARAYONINI MODELLAR ASOSIDA O‘TKAZISH”

*Jizzax Shahar Abu Ali Ibn Sino nomli Jamoat Salomatligi
tehnikumi Hamshiralik ishi kafedrasi o'qituvchisi*

Ishonkulova Shirin Qo'chqarovna

Annotatsiya: *Inson organizmida tug'ilishdan to o'limiga qadar uzluksiz morfologik, kimyoviy, fiziologik, psixologik o'zgarishlar kuzatiladi. Qadimdan olimlar qarish sabablari va umrboqiylik sirlarini ochishga uringan, bu haqda falsafiy bahs-munozaralar yuritgan. Jumladan, hamshiralik jarayonida bemorlarni parvarishlash va hamshiralik jarayonini modellar asosida o'tkazish tushunchasini izohlashga harakat qilingan.*

Kalit so'zlar: *hamshiralik modellari, hamshiralik ishi, tashxis qo'yish, shifokor tibbiy modeli.*

Kasallik organizmni kuchsizlantiradi. Bemor kuch-quvvat to'plash va tezroq davo topishi uchun uni maxsus parvarish qilish lozim. Bemorni parvarishlash odatda davolashning eng muhim qismidir. Dorilar hamisha ham zarur bo'lavermaydi. Lekin yaxshi parvarish doim muhimdir. Quyida bemorni yaxshi parvarishlash asoslari ko'rsatib o'tiladi: Bemorga qulayliklar yaratish. Bemor tinch, qulay, toza havoli va yorug' joyda dam olishi kerak. Uni juda sovqotish yoki isib ketishdan saqlang. Agar havo sovuq bo'lsa yoki kasal sovqotsa, uning ustiga choyshab yoki ko'rpa tashlab qo'ying. Agar havo issiq bo'lsa va kasalning isitmasi bo'lsa, uning ustini ochib qo'yish zarur.

Shaxsiy tozalik. Bemorni toza tutish muhim. U har kuni cho'miltirilishi kerak. Agar u yotgan joyidan tura olmaydigan darajada kasal bo'lsa, badanini iliq suvda namlangan yumshoq sochiq bilan arting. Uning ust-boshlari, choyshablari va ustiga yopiladigan narsalari ham toza tutilishi kerak. Bemor yotgan joyga ovqat bo'laklari va ushoqlar tushib qolmaganiga e'tibor berish kerak.

Buyurtmachilar maxsus tayyorgarlikdan o'tmagan xodimlar bo'lganligi sababli, ularning ishi to'shakda yotgan bemorni parvarish qilish, bo'lim bo'limlari, koridorlari va kabinetlarini toza saqlashga qisqartiriladi. Bunday ish maxsus ko'nikma va bilimlarni talab qilmaydi, shuning uchun treningni talab qilmaydi. To'shakka yotqizilgan bemor kasalxonaga yotqizilganida, bemorning qarindoshlari qonunga ko'ra kasalxonada yotqizilgan bemorlarga kim qarashi kerakligini so'rashi mumkin. Bu savolga javob har qanday shifoxonaning har bir bo'limida mavjud bo'lgan hamshiraning vazifalari bo'ladi.

Barcha shifoxonalar o'z qoidalarida, shuningdek, parvarish qilish xususiyatlarida farqlanadi. Odatda, turli kasalliklarga xos bo'lgan bo'limlarda bemorlarni parvarish qilish boshqa bo'limlardan juda farq qiladi. Har bir kasallikning o'ziga xos xususiyatlari va alohida e'tibor talab qiladigan nuqtalari mavjud. Shuning uchun har qanday bo'limda hamshira yoki boshqa xodimlar bajarishi kerak bo'lgan ish tavsiflari mavjud. Bundan tashqari, ishga kirishda xodimga umumiy ko'rsatmalar beriladi, ammo ma'lum bir bo'limda ish bilan tanishganda, katta opa xodimni bajarishi kerak bo'lgan asosiy vazifalar bilan tanishtiradi.

Ish tavsiflari bevosita bosh hamshira tomonidan yozilishi mumkin, ammo shifoxonaning bosh hamshirasi tomonidan ko'rib chiqilishi va tasdiqlanishi kerak. Bunday ko'rsatmalarga majburiyatlar qo'shilishi mumkin, masalan, hamshiraga og'ir to'shakka mixlangan bemorlarni naycha bilan oziqlantirishda yordam berish. Shuning uchun bo'limning o'ziga xos xususiyatlariga qarab, xodimlarning vazifalari farqlanadi. Agar qarindoshlari yoki bemorning o'zi butunlay boshqacha vazifalarga ega bo'lgan farrosh bemorni to'shak yoki ovqatlantirish bilan shug'ullanayotganini payqagan bo'lsa, bu qo'pol qoidabuzarlikdir. To'shakda yotgan bemorni farrosh yuvishi kerakmi? Yo'q. Va bu kasalxonaning bosh shifokoriga shikoyat qilish uchun sababdir.

Shu bilan birga, to'shak va yotqizilgan bemorlarni parvarish qilish hamshiraning asosiy mas'uliyati bo'lib qolmoqda. Agar biron sababga ko'ra xodim o'z ishini bajara olmasa yoki uni bajarishga vaqt topa olmasa, to'shakka yotqizilgan bemorning qarindoshlari, agar ular o'zlari xohish bildirsalar, unga yordam berishlari mumkin. Hamshira bemorning oilasini yordamga majburlashga haqli emas va o'z ishini o'zi bajarishi kerak. Yotgan bemorga kim g'amxo'rlik qilishi kerakligi haqida savol tug'ilganda, javob oddiy: qarindoshlarning o'zlari, shuningdek, o'qitilgan xodimlar. Aksariyat hollarda har bir bo'limda bir smenada ikkitadan hamshira navbatchilik qiladi, ular o'z vazifalarini boshqalarning yordamisiz bajarishga qodir.

«Muntazam asoslanib kelingan ilmiy va mantiqiy tushunchalar yig'indisi bo'lib», hamshiralik amaliyotining elementlarini tashkil qiladi. Hamshiralik ishining modellarida ham umumiy xossalar va umumiy holatlar bor. Har bir modelning muallifi quyidagilarni turlicha ta'riflaydi:

- bemorni hamshiralik faoliyatining bir obykti sifatida;
- bemor muammolarining manbalari;
- hamshiralik aralashuvining yo'nalishlari;
- parvarishlash maqsadi;
- hamshiralik aralashuvining holatlari;
- hamshiraning o'rni;

•bemorni parvarishlashning sifati va natijalari.

Har xil modellar bilan bemor talabi turlicha aniqlanadi. D.Jonson modeli hamshiralar e'tiborini inson hulqining turli holatlariga qaratadi. V. Xenderson bemorni 14 ta asosiy ehtiyojga muhtoj mustaqil tirik jon deb qaraydi. Bemor muammosining manbai. Hamshiralik parvarishini talab qiluvchi salomatlik muammolari turli modellarda bir-biridan farq qiladi. Agar bir modelda muammolar a'zolarning anatomik tuzilishi va funksiyalarining izdan chiqishi deb hisoblansa, ikkinchisida muammo manbai turli vaziyatda bemor xulq-atvorini kasallik keltirib chiqargan stresslar natijasida o'zgartira olmasligi deb hisoblanadi (Jonson modeli).

D. Jonson modeli bo'yicha, xulqning o'zgarganligi ta'kidlanadi, K. Roy modeli bo'yicha, moslashuvning buzilishi stresslarning ta'siriga qaratilgan. Parvarish maqsadi turlicha bo'ladi. F. Naytingeyl taxminiga ko'ra, bemorni parvarish qilishdan maqsad, u o'zini yaxshi his qilishi uchun qulay sharoit yaratishdan iborat. Buzilgan funksiyalarini tiklash uchun sanitariya-gigiyena sharoiti yaxshilanishi kerak. Boshqa modellarga muvofiq, parvarish natijasida inson xulqining muvozanati tiklanishi lozim. Ko'pchilik ta'kidlaganidek, bemorning ruhiy va ijtimoiy holatini yaxshilash lozim. Model mualliflarining ko'pchiligi ta'kidlaganidek, hamshiralik yordamining maqsadini bemor bilan kelishilgan holda aniqlash kerak. Barcha model mualliflari maqsad sari qilinayotgan ishlarning ko'rinarli bo'lishini aytib o'tgan. Qo'yilgan maqsadning natijasini bemorning hol-ahvolidan, mustaqil bajara oladigan ishidan kuzatish mumkin. Ayrim model mualliflari maqsadni pog'onamapog'ona amalga oshirish lozimligini va oralig'i uzoq bo'lishi kerakligini qayd etgan.

Bugungi kunda yagona model mavjud emas, lekin bu modellar hamshiralik ishini isloh qilish boshlanganda, hamshiralar o'qitilganda, o'zaro amaliy faoliyatda yordam beradi. Ko'pgina mamlakatlardatajriba orttirgan hamshiralar bir vaqtda bir necha modelni qo'llamoqda, bu bemor talabini qondira olmaslik oqibatida kelib chiqadi. Ishlab chiqarilgan modellardan qaysi birini aniq xastalikda qo'llashni tanlay bilish kerak. Hamshiralik parvarishi modeli - bemorni ko'rikdan o'tkazayotganda hamshira fikrini jamlashga yordam beradigan vosita. Parvarishni rejalashtirish uchun har xil modellardan keragini tanlab olish mumkin. Jamiyat talabi o'zgarishi munosabati bilan hamshiralik ishida ham yangi modellar yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hamshira jurnali. 2006-yil; 2007-yil; 2008-yil sonlari.

2. L.S. Zalikina. «Bemorlarning umumiy parvarishi». «Abu Ali ibn Sino». 1996-y.
3. M.F. Ziyayeva. «Hamshiralik ishi mutaxassisligi bo'yicha amaliyot standartlari». 2001-y.
4. M.F. Ziyayeva, I.P. Primbetova. «Hamshiralik ishi asoslari» texnikasini o'rgatish usullari. 2003-yil. JICA.
5. Yoshiyo Mori. «Bemorlarning jismoniy faolligini tiklash va rivojlantirish bo'yicha hamshiralar parvarishining yangi uslublari». Toshkent. 2001-y.
6. Л. Алминда, Д. Селвидж, Д. Христерсен, Т. Умаров. Руководство для преподавателей сестринского дела и практических медицинских сестер. Абу Али ибн Сино. 2002 г.

**“XALQ TABOBATIDA QO‘LLANILADIGAN ASOSIY DAVOLASH
USULLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI”**

*Jizzax Shahar Abu Ali Ibn Sino nomli Jamoat Salomatligi
tehnikumi Hamshiralik ishi kafedراسi o'qituvchisi*

Raxmonova Shoxsanam O'ktamovna

Annotatsiya: *Mazkur maqolada xalq tabobatida kasalliklarni oldini olish va davolash usullari, kasal bo'lib davolanishdan ko'ra uning oldini olish, sog'lom turmush tarzi tamoyillariga rioya qilish haqida ma'lumotlar bergilgan.*

Kalit So'zlar: *Galen, yo'g'on ichak, parhezga, Nospetsifik, Rektosigmoidit, perforatsiyasi.*

Tibbiyot, meditsina, tabobat — kishilar sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash, umrni uzaytirish, kasalliklarning oldini olish, davolash haqidagi bilimlar va shu sohadagi amaliy tadbirlar majmui. Tibbiyotning xalq tabobatidan mustaqil fan darajasiga ko'tarilishida qad. Misr, Bobil tibbiyoti, Gippokrat va Lmenning muhim o'rni bor. Gippokrat kasalliklarni aniklash, bemorning hayoti va faoliyatiga tashqi muhitning ta'sirini o'rganish, xastalikning kelib chiqish sabablarini topish va davolashda bemor organizmining o'ziga xos xususiyatlarini bilish kabi masalalar bilan shug'ullangan. Galen esa birinchi bo'lib organizmdagi a'zo va sistemalarning tuzilishi hamda funksiyalarini, asosan, hayvonlar (maymunlar) organizmida tajriba qilib o'rgangan. Uning anatomiya va fiziologiyaga doyr asarlari to 16-asrgacha Tibbiyotning asosi bo'lib xizmat qildi.

Kasal bo'lib davolanishdan ko'ra uning oldini olish yaxshiroqdir. Agar biz sog'ligimiz haqida ko'proq jon kuydirsak, yaxshi ovqatlansak, uylarimizni va qishloqlarimizni toza saqlasak hamda bolalarimizni o'z vaqtida emlatsak, biz ko'plab kasalliklarning oldini olgan bo'lamiz.

Inson organizmida ko'plab uchraydigan kasalliklarning bir qator turlari asab tizimining ish faoliyatiga bog'liq. Inson tanasi charchaganda, uyqusizlik holati ro'y berganda hamda asab tizimiga salbiy ta'sirlar o'tkazilganda bir qator kasalliklar arteroskleroz, aql faoliyatining yomonlashishi, ishtaha buzilishi, tez-tez toliqish, shamollash va boshqalar kelib chiqadi. Keng omma hayotida asab kasalliklarining avj olishini kamaytirish, uni samarali davolash bugungi kunning dolzarb vazifalaridandir. Turli dori vositalarini bilib-bilmay, pala-partish qabul qilish, shuningdek ekologiyaning ifloslanishi inson asab sistemasiga ham salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Qabul qilinayotgan har bir dori vositalarining tarkibini bilish va kasallikni davolashda to'g'ri foydalana olish,

samarali natijalarga erishishga yordam beradi. Ularning kimyoviy tarkibini o`rganish va shunga ko`ra sinflash bu masalani yanada oydinlashuvini ta`minlaydi.

Bugungi kunda ilm fan va sog`liqni saqlash tizimiga katta e`tibor berilmoqda. Afsuski, shunday bo`lsa ham, asab kasalliklari bilan og`rikan bemorlar ko`plab uchrab turibdi. Bu kasallik bilan nafaqat katta yoshdagilar, balki, bolalar ham kasallanmoqda. Kasallikning asosiy sabablari: ekologiyaning salbiy tomonga o`zgarishi, ko`p siqilish, turli dori vositalarini pala partish, ko`p miqdorda, yoki og`ir kechuvchi kasalliklarda qabul qilish, gigiyena qoidalariga amal qilmaslikdan iborat ekanligi aniqlangan. Yuqoridagi omillar ta`sirida organizm Immun sistemasida yetishmovchiliklar kelib chiqadi va kasallikning avj olishi uchun qulay sharoit tug`iladi. Bunday bo`lmasligi uchun kasallikning oldini olish, ortiqcha siqilmaslik, doimo gigiyena qoidalariga, sog`lom turmush tarziga amal qilish va ko`proq tabiiy vositalardan foydalanish zarur.

Ba`zi kasalliklar "Xalq tabobati usullari" yordamida tezroq davolansa, boshqalari esa zamonaviy dorilar yordamida davolanishi kerak. Ayniqsa, jiddiy kasalliklarni zamonaviy tibbiyotning aralashuvisiz davolash qiyin. Zotiljam (pnevmoniya), qoqshol, terlama, sil, chuvalchangsimon o`simtaning yallig`lanishi (appenditsit), jinsiy aloqa orqali yuqadigan kasalliklar va tug`ruqdan keyingi isitma kabi kasalliklar zamonaviy dorilar yordamida tezroq davolanishi kerak. Ushbu kasalliklarga chalinganingizda xalq tabobati usullarini qo`llab vaqtni o`tkazmasdan, darhol uning o`rniga zamonaviy dorilarni ishlatib. Xalq tabobati usullaridan qaysilari foydali va qaysilari zararliligini bilish qiyin. Ularni puxta o`rg`anish kerak.

Ba`zi zamonaviy usullar eskilariga nisbatan yaxshiroqdir. Lekin ba`zi vaqtlarda eski va an`anaviy usullarning afzal tomonlari ham bo`ladi. Masalan, bolalar yoki qariyalarni parvarish qilishning an`anaviy usullari zamonaviy usullarga nisbatan yaxshiroq bo`lishi mumkin. Chaqaloqqa ona suti eng yaxshi ozuqa ekanligini bilib olganingizga ko`p vaqt bo`lgani yo`q. Bu haqiqatan ham shunday. Keyingi paytlarda qadoqlangan sun`iy sut ishlab chiqaruvchi korxonalar, onalarga bolalarni butilkadan (idishdan) ovqatlantirish yaxshiroq ekanligini ayta boshladilar. Bu noto`gri fikr, lekin ko`plab onalar bunga ishonib, bolalarini butilkadan (idishdan) ovqatlantira boshladilar. Natijada, minglab bolalar aziyat chekib, infek

Ko`p odamlar o`zlari yoki oila a`zolari kasal bo`lganida bu kasallik yomon ko`z, qarg`ish yoki biror sehr-jodudan deb o`ylaydilar. Ular xalq tabobati usullarini qo`llash va shifokorga borish o`rniga kinnachi, baxshi yoki qari kampirlardan madad izlaydilar. Tabiblar deb atalgan bunday kishilar tasbeh,

tumor, duolar o`qish kabi turli usullardan foydalangan holda kasallikni davolashga harakat qiladilar.

Ko`pgina odamlar kasalligini tushunmagan va bilmaganliklari tufayli bunday tabiblar oldiga boradilar. Boshqa vaqtlarda esa ular kasalxonaga borishga qo`rqadilar yoki qimmat dorilar uchun pullari bo`lmaydi. Gohida esa fursat o`tganida shifokorlar yordam bera olmaydigan ahvolda boradilar. Ushbu malakasi va kuchi bo`lmagan tabiblarning ko`pchiligi boyish maqsadida kasalning holidan foydalanadilar. Ushbu kitob kasallikning kelib chiqish sabablari va uning tuzalishiga yordam beruvchi vositalarni bilib olishingizga yordam beradi. Kasalligingiz sabablarini bilmay turib kinnachiga hadeb borish yaramaydi, bu sizga foyda ham bermaydi.

Ehtiyot bo`ling. Ba`zan jiddiy tibbiy muammolar fursatni o`tkazmasdan turib, zudlik bilan tibbiy yordam ko`rsatish orqali bartaraf etilishi mumkin. Ba`zi odamlar kasal bo`lib qolganlaridan so`ng avval baxshi yoki kinnachi oldiga boradilar. 2-3 hafta o`tib, kasali zo`raygandan keyin shifokorga murojaat qiladilar. Endi davolanish uzoqroq kechib, ko`p xarajat talab qiladi. Agar ular kasallik boshlanganida shifokorga borganlarida edi, kasallikni davolash tez va oson kechgan bo`lar edi. Agar siz kasal bo`lsangiz-u va kinnachi yoki baxshiga bormoqchi bo`lsangiz, shifokorga ham uchrashishni unutmang. Agar vujudingizda g`alati o`zgarishlarni sezsangiz yoki jiddiy kasallikdan shubha qilsangiz, kutib o`tirmang. Tezda shifokorga murojaat qiling.

Xalq tabobati usullarini ko`p odamlar qo`llashi, ularning to`g`ri yoki xavfsiz ekanligini bildirmaydi. Ularning qaysilari yaxshi-yu, qaysilari yomonligini aytib berish juda mushkul. Buni bilish uchun ularni ehtiyotkorlik bilan o`rganish kerak bo`ladi. Quyida uy muolajalarining qaysilari yaxshi emas yoki xavfli ekanligini bilishga yordam beruvchi yo`l-yo`riqlar keltirilgan.

Ruhiy tushkunlik uchun yordam beradi (333- 336, 663, 731 - betlar). Dunyoda ko`p mamlakatlarda ishlatiladi va O`zbekistonda bemalol topiladi. Ilmiy ishlar bilan uning foydasi tasdiqlangan. U foydali va arzon. Tushkunlikni davolash uchun ushbu tabiiy shifobaxsh o`simlikdan foydalaning. Miqdori: 2-4 choy qoshiq choynakka solib, 150 g qaynatilgan suvni quyib, 15 minut damlanganidan keyin keyin kuniga 3 mahal 1 piyoladan iching.

Aloe badanning yengil kuygan joyiga va jarohatlarga davo qilish uchun ishlatiladi. O`simlik sharbati og`riq va qichishishni pasaytiradi, davolaydi va infeksiyaning oldini oladi. O`simlikdan bir bo`lak kesib olib, po`stini arching va uni kuygan joy yoki jarohatga qo`ying.

Odatda tabiiy tolali mahsulotlarni, masalan kepakli unni ko`p iste`mol qiladigan odamlar, tozalangan "zamonaviy" ovqatlar, masalan: tozalangan oq guruch, yuqori navli un kabilarni iste`mol qiluvchilarga nisbatan bavoil, ich

qotishi va ichak raki (o`smasi) singari kasalliklar bilan kamroq kasal bo`ladilar. Ichning yaxshi yurishi uchun tozalangan donli mahsulotlarni iste`mol qilishdan saqlaning. Qora nonning oqiga nisbatan kepagi ko`proq. Olma va olxo`rilarni iste`mol qilish foydalidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mayevskaya M. V. Gastroenterologiya, M., 1998.
2. Xalif I. L., Loranskaya I. D., Ul'trabedikyan KH. A. Vospalitelniye zabolevaniya kishhechnika (nespetsificheskiy yazvenniy kolit i bolezni Krona): klinika, diagnostika i lecheniye. — M.: Miklosh, 2004.
3. Koloproktologiya №1 (59) 2017 Nauchno-prakticheskiy meditsinskiy jurnal OBSHEROSSIIYKOY obshestvennoy organizatsii «Assotsiatsiya koloproktologov»
4. Ivashkin V.T., Shelygin YU.A., Khalif I.L. Klinicheskiye rekomendatsii Rossiyskoy gastroenterologicheskoy assotsiatsii i assotsiatsii koloproktologov Rossii po diagnostike i lecheniyu bolezni Krona-2017
5. Klinicheskiye rekomendatsii Rossiyskoy gastroenterologicheskoy assotsiatsii i assotsiatsii koloproktologov Rossii po diagnostike i lecheniyu yazvennogo kolita <http://www.gastro.ru/>

DIDACTIC BASIS OF DEVELOPING INTELLECTUAL COMPETENCES IN FUTURE ELECTRICAL ENGINEERS

Kurbanov Abror

Jizzakh Polytechnic Institute, Jizzakh, Uzbekistan

Department of "Energy and Electrical Technology"

abrorqurbanov1660@gmail.com

Annotation: *This article presents the didactic foundations, principles of action and methods for developing intellectual competencies of future electrical engineers, through this aimed at developing intellectual competencies of future electrical engineers.*

Key words: *electronic learning system, massive open online courses (MOOC), group work.*

The changes taking place in the political, economic and social spheres today have contributed to the increasing importance of professions that ensure the innovative development of our country. This indicates that the need for a person with intellectual abilities is increasing every year. Currently, modern society shows the need to train future electrical engineers who have the necessary information and are able to improve their knowledge, skills and qualifications using all new technologies, characterized by active interaction with the external environment [1,2].

The development of the e-learning system requires a closer look at modern trends and existing world experience, which further expand the practice of its effective implementation in the educational process and determine the main vectors in the development of the current educational paradigm. Today, millions of people around the world are receiving distance learning in almost all areas: law, engineering, programming, language learning and other areas. Online education is becoming increasingly widespread due to its free, universality and convenience. Among them, one of the most promising areas of e-learning development in recent years has been the formation of mass open online courses, which are based on the idea of mass and equal opportunities for education. In mass open online courses, anyone from all over the world has the opportunity to receive free education on this course. Massive Open Online Courses (MOOCs) are academic courses offered by many universities around the world that allow anyone anywhere in the world to interact freely with professors and hundreds of thousands of students (course attendees) using remote technologies.

Other leading universities and educational centers in the world are also placing great emphasis on online education. There is also the opportunity to read expensive textbooks for free in an online environment. Currently, there is an opportunity to work in certain groups on the Internet. This is also important in education. It is possible to save the information worked on in groups online. They can also be used by students in the next year. In traditional education, this opportunity is limited.

The term MOOCs appeared in the United States in 2008, but the current MOOCs education trend was founded by Coursera, created in 2012 at Stanford, which was initially the best educational site that combined open resources from three major US universities. Coursera founders Andrew Ng and Daphne Koller based their project on the idea of mass online education, giving everyone the opportunity to listen to lectures from leading universities in the world.


Another advantage of public open online courses is that the student determines the duration of the study, that is, the student starts studying at his own discretion, mastering the materials under the supervision of the teacher. Mastery is determined by completing assignments and tests. The faster the student masters the given program, the faster he will complete his studies and receive a certificate. If he cannot master the program, he is given the opportunity to work independently and continue his studies.

Massive open online courses are a system of teaching where the teacher and the student are located at a certain distance. This requires the teacher to organize the lesson process using tools such as computers, satellite communications, and cable television.

Similar massively open online courses include:

Figure 1. The world's best massive open online courses for free online education

For higher education institutions, corporations, and government organizations, the online education system offers many opportunities. It is possible to assign additional tasks after classes, implement global exchange



programs. If the number of students in the classroom is limited, online education provides the opportunity to teach many people at the same time. Online education allows shy students to learn more actively. It can be difficult to fully remember the information given in traditional classes. In online education, there is an opportunity to repeat knowledge, exchange it on a global scale, and share it.

As an important means of popularizing and promoting best practices, creating and regularly updating professional activity systems published via the Internet is the most convenient form of systematically presenting information about university employees and students, both by time and by nature.

The teacher occupies a key position in every educational institution. In organizing his activities, he must correctly plan educational, scientific, and cultural-educational events, and quickly adapt to the changing demands of the times in order to continuously improve his professional pedagogical skills.

Modern educational institutions require a new category of teachers who are creative thinkers and can apply modern methods and technologies of education, pedagogical and psychological diagnostic methods, and methods of independent design of the pedagogical process based on specific practical activities.

It is known that the competitiveness of specialists in the labor market largely depends on their ability to master advanced technologies and adapt to changing working conditions.

Currently, verbal intelligence is being carried out in an integrated educational environment created in the field of computer science and information technology in preparing students for professional activities. The concept of verbal intelligence, which is relatively new for science, is interpreted as the development of verbal intelligence based on the effective use of verbal intelligence in society. New terms used today, the concepts of verbal intelligence and non-verbal intelligence, and the skills to understand and apply them in practice are formed in the process of verbal intelligence education. It is aimed at organizing the educational process for the sufficient study of computer science and information technology, independent, individual and collaborative mastery. This environment is characterized by the cooperation of electronic textbooks and web intelligence technologies that integrate media resources, web technology, simulator software, interactive online control and analysis tools and Moodle LMS (learning management system) on the above-mentioned subjects.

Verbal intelligence is a technology-based integrated learning environment that takes into account the student's personal characteristics, abilities, motivation, intelligence, and potential, and effectively uses modern pedagogical and information technologies to develop student knowledge. It is considered the main principle of differentiation and individualization of education..

The introduction of a credit-module system of education based on the European Credit Transfer and Accumulation System (ECTS) into the educational process in higher educational institutions of the Republic of Uzbekistan has significantly reduced the number of hours of study for students, as well as the professional quality requirements imposed on graduates by employers, and today the credit-module system, new educational standards, qualification requirements, curricula and subject programs are forcing graduates of technical specialties to look for new methods of organizing training.

REFERENCES

1. Wechsler J. D., Matarazzo, J. D. Wechsler's Measurement and Appraisal of Adult Intelligence. Williams & Wilkins, 1972. 572 p.
2. Kurbanov A. STRUCTURE OF DEVELOPMENT OF INTELLECTUAL COMPETENCE OF THE STUDENTS //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. B3. – C. 236-243.

TAFAKKUR TUSHUNCHASINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**Shixova Inobat Omonovna***Xorazm viloyati pedagogik Mahorat Markazi**katta o'qituvchisi, psixologiya bo'yicha falsafa fanlari
doktori(PhD), telefon: 91-428-64-32. inobat@gmail.com.*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada tafakkur tushunchasining psixologik xususiyatlari haqida so'z yuritiladi. Kalit so'zlar: Mantiqiylik, ijodiy fikrlash, analiz va sintez, abstrakt fikrlash, abstrakt fikrlash, emotsiyalar, xotira, hukm, moslashuvchanlik.*

Psixologiyadagi asosiy tushunchalardan biri bu tafakkur tushunchasidir. Tafakkur — bu inson aqliy faoliyatining yuksak shakli bo'lib, unda ma'lumotlarni tahlil qilish, qayta ishlash, qarorlar qabul qilish, xulosalar chiqarish jarayonlari bevosita amalga oshiriladi. Tafakkur nafaqat mantiqiy fikrlar ishlab chiqish, balki odamning psixologik holati, dunyoqarashi, emotsiyalari va tajribasi bilan bog'liq ravishda rivojlanib quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

1. Mantiqiylik
2. Ijodiy fikrlash
3. Analiz va sintez
4. Abstrakt fikrlash
5. Emotsiyalar
6. Xotira
7. Hukm
8. Moslashuvchanlik

Ularning har birining mohiyati haqida to'xtalib o'tsak. Tafakkurning eng muhim xususiyatlaridan biri uning mantiqiyliги hisoblanib, turli sohalarda, ilmiy tadqiqotlarda, muhokamalarda, kundalik hayotda ham juda muhimdir. Mantiqiylik insonning fikrlarini tartibga solish, faktlarni tahlil qilish, ulardan xulosalar chiqarish va to'g'ri qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Psixologiyada mantiqiy tafakkur insonning ongli va ong osti jarayonlarini, ular orasidagi bog'lanishlarni aniqlashga yordam beradi.

Tafakkurning boshqa bir muhim xususiyati — bu ijodiy fikrlashdir. Ijodiy fikrlash insonning mavjud bilimlarni yangi tarzda birlashtirish, yangi g'oyalar ishlab chiqish va muammolarga yangi qarashlarni topish, odamga o'zining tasavvurlarini kengaytirish imkonini beradi. Ijodiy fikrlash orqali inson yangi yondashuvlar, innovatsiyalar va muammolarni hal qilishda

samarali usullarni topishi bilan birgalikda san'at yoki dizayn kabi sohalardagina emas, balki kundalik hayotda, ilm-fan, biznes va barcha sohadagi muammolarni yechishda ham beqiyosdir.

Analiz va sintez tafakkurning ikki asosiy usuli bo'lib ularning har biri muayyan vazifalarni bajarishda yoki muammolarni hal qilishda alohida ahamiyatga ega. Biror narsani yoki muammoni qismlarga ajratib, uning tarkibiy qismlarini chuqur o'rganish jarayoni analizdir. Tahlil qilingan ma'lumotlarni birlashtirish, ularni umumlashtirish va yangi butun bir tasavvur yaratish jarayoni sintezdir. Psixologik nuqtai nazardan, bu ikki jarayon tafakkurning samaradorligini oshiradi, chunki inson turli xil elementlar o'rtasida bog'lanishlar o'rnatishga va yangiliklarni yaratishga qodir bo'ladi.

Psixologiyada abstrakt fikrlash juda muhimdir, chunki bu sohalarda aniq faktlardan ko'ra keng tushunchalar asosida fikrlash talab qilinadi. Insonning konkret ma'lumotlardan chiqib, umumiy tamoyillar, tushunchalar va nazariyalar asosida fikrlashi-abstrakt fikrlash insonni faqatgina aniq faktlarga asoslanmasdan, kengroq ko'lamdagi tushunchalar va konseptlarga ham e'tibor qaratishga undaydi.

Tafakkur jarayonida emotsiyalarning o'рни ham katta. Insonning psixologik holatlaridan xursandchilik, qayg'u, qo'rquv va boshqalar fikrlash jarayoniga ta'sir qilishi mumkin. Masalan, qo'rquv yoki stress holatida insonning qaror qabul qilish qobiliyati pasayishi mumkin. Shu bilan birga, ijobiy emotsiyalar jumladan, umid yoki hayajon tafakkurni chuqurlashtirishi va ijodiy fikrlashni rag'batlantirishi mumkin. Emotsiyalar tafakkur jarayonining ajralmas qismi bo'lib, insonning shaxsiy tajribasini va atrof-muhitga bo'lgan munosabatini shakllantiradi. Bu jarayonlar ham ijobiy, ham salbiy tomonlarga ega bo'lishi mumkin, shuning uchun ularni boshqarish va tushunish tafakkur sifatini yaxshilashga yordam beradi.

Tafakkur jarayoni xotira bilan chambarchas bog'liqdir. Xotira insonning o'rgangan bilimlarini saqlab qoladi va tafakkur jarayonida bu bilimlardan foydalaniladi. Psixologik nuqtai nazardan, xotira tafakkurning asosi sifatida xizmat qiladi, chunki yangi fikrlar va xulosalar olingan ma'lumotlarni qayta ishlash orqali yaratiladi. Xotira va tafakkur o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, shuningdek, kognitiv jarayonlar ya'ni, o'rganish, eslash, qayta ishlash orqali amalga oshadi.

Tafakkur, ayniqsa, qaror qabul qilish jarayonida muhim rol o'ynaydi. Qaror qabul qilishda inson, bir qator muqobil variantlar orasidan eng to'g'risini tanlash uchun tafakkur jarayonlarini ishlatadi. Bu jarayon tahlil qilish, taqqoslash, baholash va xulosa chiqarishni o'z ichiga oladi. Psixologik nuqtai

nazardan, qaror qabul qilishda insonning emotsiyalari, kognitiv salohiyati va tajribasi asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Insonning yangi ma'lumotlarga, fikrlar va g'oyalarga tezda moslashish va ularni o'z tafakkur jarayonlariga integratsiya qilish qobiliyatini tafakkurning yana bir muhim xususiyati - bu kognitiv kognitiv moslashuvchanlikdir. Insonning o'z fikrlarini yangilashi, yangi yondashuvlar va strategiyalarni ishlab chiqish imkoniyati ijodiy fikrlash va muammolarni samarali hal qilishda juda muhimdir. Tafakkurning psixologik xususiyatlari uning ko'plab kompleks va o'zaro bog'liq jarayonlarni o'z ichiga olishini ko'rsatadi. Mantiqiy, ijodiy, abstrakt fikrlash, emotsiyalar va xotira kabi omillar tafakkurning rivojlanishiga ta'sir qiladi. Tafakkur nafaqat fikrlashni, balki qaror qabul qilish, muammolarni hal qilish va yangi g'oyalar yaratish jarayonini ham tashkil etadi. Bu jarayonlar insonning psixologik va kognitiv salohiyatining to'liq ko'lamini aks ettiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tafakkur — bu insonning ongini chuqurroq ishlatish, mulohaza yuritish, fikrlar orasida bog'lanishlar o'rnatish jarayonidir. Tafakkur insonga o'z fikrlarini tartibga solishga, muammolarni yechishga va yangi g'oyalar yaratishga yordam beradi. Tafakkur odamni aqliy ravishda rivojlantiradi, uni mantiqiy fikrlashga o'rgatadi. Har bir yangilik, har bir bilim tafakkur orqali qabul qilinadi va so'ngra uni tahlil qilib, qayta ishlash mumkin. Muammoni to'g'ri tahlil qilib, uning sabablarini aniqlash va eng optimal yechimni topish uchun tafakkur muhimdir. Tafakkur har bir insonning ichki salohiyatini ochib berish va rivojlantirish uchun asosiy vosita hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimova V.M., Akramova F.A. "Psixologiya". 1-qism. Ma'ruzalar matni. -T.: TDIU, 2005. - 208 b.
2. E.G'oziev. Tafakkur psixologiyasi. Toshkent. "O'qituvchi". 1990.
3. Umumiy psixologiya. A.V.Petrovskiy tahriri ostida. "O'qituvchi", T., 1992

STRESS VA ATRESSNI TEZ VA OSON YENGISH USULLARI**Jo'rayeva Shahnoza Shakarboy qizi***Toshkent viloyati Oqqo'rg'on tumani 49-IDUM amaliyotchi psixologi*

Annotatsiya: *Stress - bu inson hayotining doimiy hamrohi, uning tanasining har qanday tashqi ta'sirga yoki ichki tajribaga reaksiyasi. Stress - bu tashqi va ichki muhitning o'zgaruvchan sharoitlariga organizmning zaruriy reaksiyasi. Tana stressga turli yo'llar bilan javob beradi, ijtimoiy hayotning turli sohalarida kasalliklar va sog'liq muammolarining rivojlanishiga to'sqinlik qilishi mumkinligini bilib oladi. Ushbu maqolada stress tushunchasining psixologiyada o'rganilishi hamda stressni yengib o'tishga doir zamonaviy psixologik yondashuvlar tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *stress, emotsional holat, distress, qayg'u, jismoniy kasalliklar, labillik, psixologik stress, emotsional stress.*

KIRISH

Turli odamlar bir xil stressga turli yo'llar bilan munosabatda bo'lishadi. Ba'zilar faol reaksiyaga ega - stress ostida ularning faoliyati samaradorligi ma'lum chegaragacha o'sishda davom etadi, boshqalari esa passiv reaksiyaga ega, ularning faoliyati samaradorligi darhol tushadi.

Stress ta'limotining asoschisi Gans Selye shunday deb yozgan edi: "Stressdan qo'rqmaslik kerak. Bu faqat o'liklarda yo'q. Stressni boshqarish kerak. Boshqariladigan stress hayotning xushbo'yligi va ta'mini olib keladi!"

O'rganilgan adabiyotlardan xulosa qilishimiz mumkinki, stress nafaqat salbiy ta'sirga ega (qayg'u), balki ijobiy (austres) ham bor va har bir shaxsning shaxsiy rivojlanishi aynan shu ta'sir tufayli yuzaga keladi. Shunga qaramay, u tanaga ko'proq salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ko'pgina psixologik va jismoniy kasalliklar stress ta'sirida rivojlanadi. Shuning uchun har bir inson stressning fiziologik xususiyatlari, uning belgilari va uni engish usullari haqida bilishi kerak. Stress bilan kurashishning asosiy usuli - bu faollik. Stressdan qochib qutula olmasligingizni bilishingiz kerak. Stressga qarshi kurashish usullari orasida asosiy o'rinni to'g'ri ovqatlanish, jismoniy faollik, diqqatni o'zgartirish, toza havoda sayr qilish va yaxshi uyqu egallaydi. Va, albatta, optimizm va ijobiy fikrlash!

Zamonaviy hayot ritmining tezlashishi kundalik muammolar, shaxslararo munosabatlar, kasbiy faoliyat mazmuni va axborotning haddan tashqari yuklanishi natijasida yuzaga keladigan jismoniy, aqliy va hissiy stressning sezilarli darajada oshishiga olib keldi. Ko'pincha odam hissiy stress holatida

bo'lishi, tashvish, bezovtalik, o'ziga ishonchsizlik hissini boshdan kechirishi kerak; ya'ni STRESS deb ataladigan holatni boshdan kechirish. Bunday sharoitlar ko'pincha nafaqat aqliy muvozanat, balki inson organizmidagi fiziologik mexanizmlarning ishlashida bir qator salbiy o'zgarishlar bilan hamroh bo'ladi. JSST ma'lumotlariga ko'ra, dunyo aholisining 40 foizi tibbiy mutaxassislar yordamiga muhtoj.

Stress - bu turli xil noqulay omillarga (sovuqlik, ochlik, jismoniy va ruhiy jarohatlar va boshqalar) mudofaa reaksiyasi sifatida inson yoki hayvon tanasining kuchlanish holati. Asosiysi, stress inson tanasining haddan tashqari zo'riqish, salbiy va ijobiy his-tuyg'ularga javobidir. Stress davrida inson tanasi adrenalin gormonini ishlab chiqaradi, bu bizni chiqish yo'lini izlashga majbur qiladi. Har bir insonga oz miqdorda stress kerak, chunki u sizni o'ylashga, muammodan chiqish yo'lini izlashga majbur qiladi va bu holda u ijobiy ma'noga ega. Ammo boshqa tomondan, agar juda ko'p stress bo'lsa, tana zaiflashadi, kuchini yo'qotadi, muammolarni hal qilish qobiliyati va jiddiy kasalliklarga olib kelishi mumkin.

Zamonaviy tezlashtirilgan hayot sur'ati insonda jismoniy, aqliy va hissiy stressning kuchayishiga olib keladi. Bu kundalik muammolar, shaxslararo munosabatlar, professional ortiqcha yuk va odamlarning ruhiyatiga doimiy ta'sir qilish bilan bog'liq. Yuqoridagilarning barchasi odamda stressga olib keladi. Insonning vazifasi, tashqi sharoitlar va muammolarning doimiy bosimi fonida, stressli vaziyatlarni hal qilishni o'rganish, ulardan g'olib bo'lmasa, hech bo'lmaganda sog'lig'iga kamroq zarar etkazishdir. Stress organizm tizimlarida taranglikni keltirib chiqaradi, bu turli ruhiy va jismoniy kasalliklarga olib kelishi mumkin. Xorijiy va mahalliy psixologlar stress muammolari bilan shug'ullanishgan.

Stress tushunchasini fiziologiyaga kanadalik olim G. Selye 1936 yilda kiritgan. U stressni jismoniy, kimyoviy va organik stimullarga reaksiyalar nuqtayi nazaridan qaradi. Boshqa olimlar va psixologlar ham stress masalalari bilan shug'ullangan: Yu.S.Savenko, R.Lazarus, S.Folkman, E.Fromm, L.V.Kulikov va boshqalar. Zamonaviy dunyoda stress muammosi ham o'tkir emas va o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Har bir insonning stressga chidamliligini oshirish, ruhiy va jismoniy salomatligini saqlab qolish uchun stressli vaziyatlarni qanday engish kerakligini bilish muhimdir.

Zamonaviy hayotdan stressni yo'q qilish umuman mumkin emas, ya'ni siz o'z-o'zini tartibga solishni o'rganishingiz va stressni minimallashtiradigan yoki hatto foydali bo'ladigan tarzda tashkil qilishingiz kerak. Amaliy psixologning lug'ati stressning quyidagi tushunchasini beradi. Stress - bu turli xil ekstremal ta'sirlar - stress omillariga javoban yuzaga keladigan keng ko'lamlı shartlar

uchun atama. Quyidagi stress omillari ajratiladi: 1) fiziologik stress omillari - haddan tashqari fiziologik stress, yuqori va past harorat, og'riqli stimullar; 2) psixologik stress omillari - signalizatsiya qiymatiga ega bo'lgan omillar: tahdid, xavf, norozilik, axborotning haddan tashqari yuklanishi va boshqalar.

Stressorning turiga va uning ta'sir qilish xususiyatiga qarab, stressning har xil turlari ajratiladi; eng umumiy tasnifda - fiziologik va psixologik stress. Ikkinchisi axborot va hissiy stressga bo'linadi. Axborot stressi axborotning haddan tashqari yuklanishi sharoitida, odam biron bir vazifani bajara olmaydigan, kerakli tezlikda to'g'ri qaror qabul qilishga vaqt topa olmaganida - qarorlarning oqibatlari uchun yuqori mas'uliyat bilan yuzaga keladi.

Hissiy stress tahdid, xavf va norozilik holatlarida paydo bo'ladi. Shu bilan birga, uning turli shakllari - impulsiv, inhibitiv, umumlashtirilgan - aqliy jarayonlarning o'zgarishiga, hissiy siljishlarga, faoliyatning motivatsion tuzilishining o'zgarishiga, vosita va nutq xatti-harakatlarining buzilishiga olib keladi.

Inson hissiy stressni axborotdan ko'ra keskinroq boshdan kechiradi, chunki bu uning chuqur munosabati va qadriyatlarini, nimaga ishonganini va nima uchun yashaganligini yo'q qiladi. Hissiy stress haqiqiy yoki sezilgan tahdid, xavf-xatarni boshdan kechirish, kamsitish, aybdorlik, g'azab va xafagarchilik, qarama-qarshilik yoki muhim odamlar bilan munosabatlarni uzish, do'stlarga xiyonat qilish, yaqinlarini yo'qotish holatlarida yuzaga keladi.

Har bir inson uchun stress tushunchasi turlicha ta'riflanadi. Bir kishi uchun stress bo'lgan narsa, boshqasi uchun stress sifatida qabul qilinmaydigan oddiy kundalik hayot holati bo'lishi mumkin. Shuning uchun insonning xatti-harakatini, uning xatti-harakatlarining sabablarini, uning hissiy farovonligini tushunish uchun uning hayotining obyektiv holatlari va omillarini bilish yetarli emas, ularni shaxsning o'zi tomonidan idrok etish va talqin qilishni bilish muhimdir.

XULOSA

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, stressga ta'sir qilish darajasi asosan insonning temperamentiga bog'liq. Ma'lumki, temperament - bu shaxsning eng muhim xususiyati. Bu asab tizimining tug'ma turi bo'lib, asab jarayonlarining kuchini, muvozanatini va harakatchanligini belgilaydi. Temperamentning to'rt turi mavjud: xolerik, sanguine, flegmatik, melankolik. Temperament insonning xulq-atvoriga katta ta'sir qiladi. Stress hissiy odamlarni eng ko'p bezovta qiladi. Shuning uchun melankolik va xolerik odamlar o'rtacha darajadan yuqori zaiflik darajasiga ega.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, barcha kasalliklarning 45 foizi stress bilan bog'liq, ba'zi ekspertlar bu ko'rsatkich ikki

baravar yuqori deb hisoblashadi. Psixologlar stressning tanaga salbiy ta'sirining quyidagi belgilarini aniqlaydilar.

1. Ishlash yomonlashadi, diqqatni jamlash qiyinlashadi va xotira funksiyalari buziladi.

Inson tezda charchaydi va na psixologik, na jismonan sifatli ishni bajara olmaydi.

2. Inson doimo qattiq bosh og'rig'i bilan azoblanadi.

3. Stressli vaziyatlarga duchor bo'lgan davrlarda yurak-qon tomir kasalliklari soni ortadi. Gipertenziyaning kuchayishi bor, yurak tezligi oshadi. Eng yomon holatda, odamda miokard infarkti bo'lishi mumkin.

4. Stress ta'sirida odamda uyqusizlik va surunkali uyqusizlik paydo bo'ladi.

5. Shaxs stressni mustaqil ravishda engishga va keskinlikni bartaraf etishga harakat qiladi, buning natijasida ba'zilarida alkogolizm paydo bo'ladi.

6. Oshqozon-ichak trakti og'irlashadi yoki oshqozon yarasi kasalligi va gastrit paydo bo'lishi mumkin.

7. Stress ta'sirida immunitet pasayadi, organizm virusli kasalliklarga ko'proq moyil bo'ladi.

8. Stress ostida tananing gormonal tizimi ham noto'g'ri ishlaydi. Gormonlar juda ko'p miqdorda ishlab chiqariladi va asab tizimi va ichki organlarning ishiga salbiy ta'sir qiladi. Glyukokortikoidlar ko'proq ishlab chiqariladi, bu esa mushak to'qimalarining degeneratsiyasiga olib kelishi mumkin. Gormonlarning ko'pligi keyinchalik terining ingichkalashiga va osteoporozga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.Бодров В. А. Информационный стресс. М.: ПЕР СЭ, 2004.

2.Вольф Д., Меркле Р. Так преодолете вы страх перед экзаменами. Психологические стратегии оптимальной подготовки и сдачи экзаменов. Томск: факультет психологии ТГПУ(перевод и научная редакция), 1996.

3.Доскин В.А. Профилактика экзаменационного стресса . Школа и психическое здоровье учащихся. М.: Медицина, 1988. С.147-160.

4.Психоэмоциональный стресс. Под ред. К. В. Судакова. М.: НИИ им. П. К. Анохина РАМН, 1992.

5.Такман Б.В. Педагогическая психология. М.: Прогресс, 2004. - 602 с.

6.Чибисова М.Ю. Единый государственный экзамен. Психологическая подготовка. М.: Генезис, 2004 г.

«BEMOR PSIXOLOGIYASINI ANGLASH VA SAMARALI PSIXOLOGIK YORDAM USULLARI»

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi

Tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi , ekologiya va atrof muhit muhofazasi va kimyo fakulteti talabasi

Axmadova O'g'iloy

Annotatsiya: *Ushbu maqolaning asosiy maqsadi bemor psixologiyasini chuqur tahlil qilish va samarali psixologik yordam usullarini aniqlashdir. Bemorlarning psixologik holati, ularning hissiy va ruhiy farovonligini ta'minlashda muhim omil sifatida ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda psixologik yordamning turli usullari, ularning samaradorligi va bemorlar bilan ishlashda duch kelinadigan qiyinchiliklar batafsil tahlil qilinadi. Maqolada psixologik yordamning strategiyalari va metodlari, jumladan, individual va guruh terapiyasi, psixoterapevtik yondashuvlar, stressni boshqarish usullari va boshqa zamonaviy yondashuvlar yoritiladi. Tadqiqot natijalari bemorlarning psixologik holatini yaxshilash va ularga sifatli yordam ko'rsatishning eng samarali yo'llarini taklif etadi. Ushbu ish psixologik yordam sohasida yangi nazariy va amaliy bilimlarni taklif qilib, kelajakda psixologlar va tibbiyot xodimlari uchun qo'llaniladigan samarali strategiyalarni ishlab chiqish imkoniyatlarini yaratadi.*

Tayanch tushunchalar : *shifokor, bemor, psixolog, meditatsiya, Simulyatsiya, Dissimulyatsiya, muloqot, Empatiya, Psixoedukatsiya, kasallik, stress, ruhiyat, parvarish.*

Абстрактный: *Основная цель данной статьи – глубокий анализ психологии пациента и определение эффективных методов психологической поддержки. Психологическое состояние пациентов рассматривается как важный фактор обеспечения их эмоционального и духовного благополучия. В исследовании подробно анализируются различные методы психологической поддержки, их эффективность и трудности, возникающие при работе с пациентами. В статье рассматриваются стратегии и методы психологической поддержки, включая индивидуальную и групповую терапию, психотерапевтические подходы, методы управления стрессом и другие современные подходы. Результаты исследования предлагают наиболее эффективные пути улучшения психологического состояния пациентов и оказания им качественной помощи. Эта работа предлагает новые теоретические и практические знания в области психологической*

помощи, создавая возможности для разработки эффективных стратегий для использования психологами и медицинскими работниками в будущем.

Основные понятия: врач, пациент, психолог, медитация, симуляция, Притворство, общение, эмпатия, психообразование, болезнь, стресс, психическое здоровье, уход.

Abstract: *The main purpose of this article is a deep analysis of the patient's psychology and the determination of effective psychological support methods. The psychological state of patients is considered as an important factor in ensuring their emotional and spiritual wellbeing. The study analyzes in detail various methods of psychological support, their effectiveness and the difficulties encountered in working with patients. The article covers strategies and methods of psychological support, including individual and group therapy, psychotherapeutic approaches, stress management methods and other modern approaches. The results of the research suggest the most effective ways to improve the psychological condition of patients and provide them with quality care. This work offers new theoretical and practical knowledge in the field of psychological care, creating opportunities to develop effective strategies for use by psychologists and health professionals in the future.*

Basic concepts: *doctor, patient, psychologist, meditation, simulation, Dissimulation, communication, Empathy, Psychoeducation, illness, stress, mental health, care.*

Har qanday kasallik nafaqat jismoniy, balki ruhiy holatga ham ta'sir qiladi. Bemorlar turli ruhiy bosimlarni boshdan kechiradilar, jumladan, qo'rquv, tashvish, tushkunlik va umidsizlik. Shu sababli, bemor psixologiyasini tushunish va ularga psixologik yordam ko'rsatish juda muhimdir. Ushbu maqolada bemor psixologiyasining asosiy jihatlari va samarali psixologik yordam usullari haqida so'z yuritimiz. Bemorning xatti-harakati Bemorning xatti-harakati – bu tibbiyot xodimlari tomonidan belgilangan muolajalar, tavsiyalar va ko'rsatmalarga javoban uning ko'rsatadigan harakatlari va reaksiyalaridir. Bemorlarning umumiy simptomlari ,kasallikning turiga qarab, bemorlar turli ruhiy va hissiy o'zgarishlarni boshdan kechirishi mumkin. Eng ko'p uchraydigan simptomlar quyidagilardir: G'amginlik yoki tushkunlik hissi, chalkash fikrlash yoki diqqatni jamlash qobiliyatining pasayishi ,haddan tashqari qo'rquv, tashvish yoki aybdorlik hissi, keskin kayfiyat o'zgarishlari ,do'stlar va harakatlardan voz kechish ,doimiy charchoq, kam energiya yoki uyqu muammolari ,psixiatrik bemorlarning o'zini tutishi .Ruhiiy kasalliklarga chalingan bemorlar quyidagi xatti-harakatlarni namoyon qilishi mumkin: Fikrlash muammolari – diqqatni jamlash, xotira yoki mantiqiy fikrlash

qiyinlashishi Sezuvchanlikning oshishi – tovush, hid, yorug'lik yoki teginish kabi tashqi ta'sirlarga ortiqcha sezgirlik. Apatiya – tashabbusni yo'qotish va har qanday faoliyatga qiziqishning pasayishi, haddan tashqari ogohlantiruvchi holatlardan qochish – yangi yoki kutilmagan vaziyatlarga nisbatan ortiqcha ehtiyotkorlik, bemor psixologiyasining asosiy jihatlari

1. Kasallikka bo'lgan munosabat har bir bemor kasalligiga turlicha munosabat bildiradi. Ba'zilar uni qabul qilib, davolanishga harakat qilsa, boshqalar tushkunlik yoki inkor holatiga tushib qoladi. Shu sababli, bemor bilan ishlashda uning kasallikka bo'lgan munosabatini to'g'ri tushunish muhimdir.

2. Ruhiy holat o'zgarishlari ko'plab bemorlar stress, qo'rquv, xavotir va tushkunlik kabi holatlarni boshdan kechiradi. Ayniqsa, og'ir kasalliklarga chalingan bemorlar depressiyaga tushib qolishlari mumkin. Ushbu holatlarni yengish uchun maxsus psixologik yondashuvlar qo'llanilishi kerak.

3. Yaqinlar bilan munosabatlar bemorning oilasi va yaqinlari uning ruhiy holatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ularning hissiy qo'llab-quvvatlashi bemorning ruhiy barqarorligini saqlashda muhim omil hisoblanadi. Asosiy ruhiy buzilish turlari Anksiyete kasalliklari – vahima buzilishi, obsesif-kompulsiv buzilish va fobiyalar depressiya va bipolyar buzilish ovqatlanish buzilishi, shaxsiyat buzilishlari, shikastlanishdan keyingi stress buzilishi. Psixotik kasalliklar – shizofreniya va boshqa ruhiy buzilishlar. Psixologik yordam insonlarga hissiy tanglikni yengishga va stress reaksiyalaridan xalos bo'lishga yordam beradi.

Samarali muloqot tamoyillariga qo'shimcha ravishda quyidagi tavsiyalarga amal qilish muhimdir:

1. Bemorni tinglash va hamdardlik bildirish qiyin vaziyatga tushgan odamlar har doim ham o'z holati haqida aniq gapira olmaydi yoki o'z his-tuyg'ularini ifodalash uchun ko'proq vaqt talab qilishi mumkin. Shuning uchun: Ularni to'xtatmasdan, shoshilmasdan va sabr bilan tinglash kerak. Tushunmovchilik bo'lsa, muloyimlik bilan aniqlik so'rash foydali bo'lishi mumkin. Ba'zan ular his-tuyg'ularini ochiq ifoda etishga qiynalishi mumkin, shuning uchun ularning yonida bo'lish va ishonch bildirish muhimdir. Agar ular o'z his-tuyg'ulari yoki og'ir tajribalarini tasvirlayotgan bo'lsa, samimiy hamdardlik va sezgirlik bilan javob berish lozim. Quyidagi iboralar yordam berishi mumkin: «Bu juda og'ir tajribaga o'xshaydi.» «Siz uchun bu qanchalik qiyin ekanligini tushunaman.» «Nega tashvishlanayotganingizni (yoki qo'rqayotganingizni) tushunaman.»

2. Stress manbalarini aniqlash: Bemorni faol tinglaganingizdan so'ng, quyidagi savollar uning muammolarini tushunishga yordam berishi mumkin: «Sizni hozir eng ko'p tashvishga solayotgan narsa nima?» «Bu tashvish bilan

qanday kurashyapsiz?» «Sizga tasalli, kuch va energiya beradigan narsalar nima?»

3. Asosiy ehtiyojlarni baholash: ba'zi bemorlar qo'shimcha ma'lumot yoki xizmatlarga muhtoj bo'lishi mumkin. Bunday hollarda: Ularning oilasi bilan aloqa o'rnatish va qo'shimcha ijtimoiy yordam tashkil qilish muhimdir. Sil kasalligiga chalingan yoki davolanish jarayonida qiyinchiliklarga duch kelgan bemorlar uchun normal stress reaksiyalari haqida ma'lumot berish lozim. Agar stress reaksiyalari uzoq davom etsa yoki juda kuchli bo'lsa, stressni boshqarish bo'yicha maxsus usullar taklif qilinishi kerak. 4. Zo'ravonlik va suiiste'mollik belgilari tibbiyot xodimlari ayollar, bolalar va keksa insonlar orasida jinsiy yoki jismoniy zo'ravonlik (shu jumladan oilaviy zo'ravonlik) alomatlarini kuzatishi kerak. Masalan: Tushunarsiz jarohatlar yoki ko'karishlar haddan tashqari qo'rquv yoki o'zini tuta bilish, oila a'zolari yonida muammolar haqida gapirishni istamaslik Yetarli oziq-ovqatga ega bo'lishiga qaramay, ochlik hissi yoki kam ovqatlanish, agar shikoyatlar yoki belgilar mavjud bo'lsa: Bemor bilan shaxsiy xonada suhbatlashish va unga muloyimlik bilan nima sodir bo'layotganini so'rash kerak. Zo'ravonlik yoki beparvolik haqida kuchli shubha mavjud bo'lsa, bu borada tajribaga ega mutaxassislardan yordam so'rash muhimdir. Agar bemor rozilik bersa, uni himoya qilish maqsadida ishonchli yuridik xizmatlar va ijtimoiy himoya tarmoqlariga yo'naltirish kerak. Qo'llab-quvvatlash guruhlari va ularning muhim jihatlari: Qo'llab-quvvatlash guruhlari tajribali maslahatchi, ijtimoiy ishchi yoki ushbu sohada maxsus tayyorgarlikdan o'tgan mutaxassis rahbarlik qilishi lozim. Shuningdek, o'qitilgan hamshira yoki tibbiyot xodimi ham guruh faoliyatida yordam berishi mumkin. Qo'llab-quvvatlash guruhlari asosiy tamoyillari maxsus ehtiyojlar uchun moslashuv ba'zi qo'llab-quvvatlash guruhlari muayyan ehtiyojlar yoki tashvishlarga ega bemorlar uchun tashkil etilishi mumkin (masalan, ayollar yoki yoshlar uchun maxsus guruhlar). Yuqumli bemorlar uchun xavfsizlik choralari, yuqumli kasalliklarga chalingan bemorlar uchun psixologik yordam nihoyatda muhimdir. Ularni qo'llab-quvvatlash guruhlari xavfsiz tarzda jalb qilish uchun quyidagi choralarga rioya qilish lozim: Infektsiyani nazorat qilish qoidalariga amal qilish, ochiq havoda uchrashuvlar tashkil etish, virtual uchrashuvlar orqali muloqot qilish sog'aygan bemorlarning ishtiroki oldinroq kasallikdan sog'aygan bemorlarni qo'llab-quvvatlash guruhlari jalb qilish foydali bo'lishi mumkin. Ularning ishtiroki hali ham davolanayotgan bemorlarga umid va motivatsiya beradi. Tashkiliy muammolarni bartaraf etish qo'llab-quvvatlash guruhlari tashkilotchilari quyidagi qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin: Ishtirokchilarni jalb qilish xavfsiz uchrashuv joyini aniqlash. Uchrashuvlarni samarali tashkil etish. Yig'ilishlarni baholash va

rejalashtirish, har bir yig'ilishdan so'ng, guruh rahbari va yordamchi mutaxassislar o'tkazilgan mashg'ulot natijalarini muhokama qilishi va kelgusi uchrashuvlar uchun reja tuzishi lozim. Jiddiy psixologik muammolar bilan shug'ullanish. Agar bemor jiddiy ruhiy muammolarga duch kelsa, guruhga tayyorgarlikdan o'tgan ruhiy salomatlik bo'yicha mutaxassis jalb qilinishi kerak. Psixologik Yordam Nima? Psixologik qo'llab-quvvatlash – bu insonning muammolari va tashvishlarini chuqur tushunish, ularning sabablarini aniqlash hamda ruhiy noqulaylik va azob-uqubatlarni yengish uchun psixologning yordami va ko'rsatmalariga asoslangan terapiya turidir. Klinik muhitdan tashqarida esa psixologik yordam hissiy qo'llab-quvvatlash shaklida namoyon bo'lishi mumkin. Bu – insonning ruhiy holatini tushunish, unga xotirjamlik bag'ishlash, hukm yoki taxminlarsiz tinglash orqali ko'rsatiladigan qo'llab-quvvatlashdir. Psixologik yordam nima uchun muhim? Mutaxassis tomonidan ko'rsatiladigan psixologik yordam mavjud bo'lganda, ruhiy tanglikni boshdan kechirayotgan insonlar tegishli yordamni izlash va olish ehtimolini oshiradilar. Ish joylarida psixologik yordam oladigan xodimlar o'z ishlariga yanada ko'proq jalb qilinadi, mehnatdan mamnun bo'ladi va samaradorligi yuqori bo'ladi. Bunday xodimlar baxtliroq, motivatsiyali va uzoq muddat samarali ishlashga moyil bo'lishadi. Aksincha, psixologik yordamdan mahrum bo'lgan xodimlarning ishdan bo'shash ehtimoli yuqori bo'lib, bu mehnat jamoasida stress darajasining ortishiga olib kelishi mumkin. Natijada, ruhiy tanglik jismoniy alomatlar (charchoq, bosh og'rig'i) yoki hissiy muammolar (tashvish, ruhiy charchoq) orqali namoyon bo'lishi mumkin. Bemorlarga psixologik yordam ko'rsatish usullari tibbiyot xodimlari va psixologlar bemorlarning ruhiy holatini qo'llab-quvvatlash hamda ularga mos keladigan psixologik yordam usullarini qo'llashni o'z oldilariga muhim vazifa sifatida qo'yishlari lozim. Quyida samarali yondashuvlar keltirilgan:

1. Empatiya va hissiy qo'llab-quvvatlash Bemor bilan muloqotda uning his-tuyg'ularini chuqur tushunish va samimiy hamdardlik bildirish muhimdir. Bu bemorning o'zini tushunilgan va qo'llab-quvvatlangan his qilishiga yordam beradi.

2. Psixoedukatsiya (psixologik ta'lim berish) Bemor va uning yaqinlariga kasallik haqida tushunarli va aniq ma'lumot berish lozim. Davolash jarayoni, kutilayotgan natijalar va sog'liqni tiklash bosqichlarini tushuntirish orqali bemorning ichki qo'rquvlarini kamaytirish mumkin.

3. Kognitiv-Behaviorial Terapiya (KBT) Ushbu usul bemorning salbiy fikrlash tarzini o'zgartirish va ijobiy yondashuvni shakllantirishga yordam beradi. Masalan, kasallikka nisbatan haddan tashqari xavotirga tushadigan bemorlar uchun bosqichma-bosqich stressni nazorat qilish usullari o'rgatiladi.

4. Relaksatsiya va meditatsiya usullari tinchlantiruvchi texnikalar, jumladan, nafas olish mashqlari, meditatsiya va musiqiy terapiya bemorlarning stress darajasini pasaytirib, ularning ruhiy barqarorligini oshiradi.

5. Motivatsion yondashuv bemorni davolanishga undash va unga ijobiy kayfiyat bag'ishlash sog'ayish jarayonini tezlashtiradi. Tibbiyot xodimlari bemor bilan do'stona muloqot qilib, uni ruhiy jihatdan qo'llab-quvvatlashlari lozim.

Bemorning psixologik munosabati - Og'irlash (lotincha *aggravatio* — yuk, og'irlik) — bu haqiqiy kasallik yoki og'irqli holatning belgilari og'irlashtirilgan holda namoyon bo'lishi. (Karpenko L.A.)

Simulyatsiya Simulyatsiya (lotincha *simulatio* — ko'rinish, da'vogarlikdan) — kasallik yoki uning alomatlarini aldash maqsadida taqlid qilish.

Dissimulyatsiya Dissimulyatsiya (lotincha *dissimulatio* — yashirish) — kasallik va uning alomatlarini ongli ravishda yashirish. (Borisovskaya O.B.).

Bemor shifokorga va uning tavsiya etayotgan dori-darmonlariga ishonch qo'yishi kerak. Bu ishonchni yaratish uchun shifokor o'zining go'zal nutqi, xatti-harakatlari va tashqi ko'rinishi bilan bemorning hurmatini qozonishi lozim. Erkin Qosimovning bo'lajak shifokorlarga aytgan nutqidan: «Shifokor o'zining xatti-harakatlari, shirin so'zlari va tashqi ko'rinishi bilan bemorning hurmatini qozonishi zarur». Tibbiyotda pullik xizmatlar paydo bo'lishi bilan deontologiyaning ba'zi yo'nalishlariga turlicha qarashlar shakllandi. Ba'zan «Axir, pul to'lagandan so'ng, baribir yaxshi qaraydi», degan fikrlar eshitiladi. Lekin bemorning tuzalishi uning shifokorga to'lagan pulining miqdori bilan emas, balki shifokorning bilimlari, tajribasi va muomalasi bilan bog'liq. Deontologiya — faqat bemorga shirin so'zlar aytish yoki unga kulib qarashdan iborat emas. Deontologiyaning eng muhim yo'nalishlaridan biri ishonchdir. Ba'zan vahima qilayotgan bemorni tinchlantirish uchun unga qattiqroq yondashish ham zarur bo'ladi. Ana shundagina u shifokorga ishonadi. «Agar kasalim haqiqatan ham davosiz bo'lganida, doktor meni urib bermasdi», deb o'ylaydi bemor. Ba'zan bemorga berilayotgan davo usuli uning qoniqishini hosil qilmasligi mumkin. Ko'p dorilar yozilsa, «Shuncha dori shartmikan? Yoki kasalim og'irmi, yoki shifokor tajribasizmi?» degan savollar tug'iladi. «Falonchi doktor bemorni ikkita dori berib tuzatib yuborgan», degan gaplarni ham eshitish mumkin. Bunday holatlarda nima qilish kerak? Ayniqsa, ba'zi kasalliklarni uzoq davolash talab etadi va davolash choralari darhol natija bermasligi mumkin. Bunday paytlarda kasallikning mohiyatini bemorga tushunarli tilda izohlash zarur. Agar kerak bo'lsa, bemorni tinchlantirish uchun shifokor tajribaliroq hamkasbi bilan bemorni ko'rishi mumkin. Shifokor bemor oldida aslo o'zini yo'qotmasligi kerak. Esda tutish kerakki, shifokor

bemorni tahlil qiladi, bemor esa shifokorni kuzatadi. Ko'plab hollarda shifokor bemorning so'zini oxirigacha tinglamaydi. Buning sababini tashqarida kutayotgan bemorlar yoki vaqt yetishmasligida ko'rish mumkin. Ammo unutmashlik kerakki, hozir yoningizda kelgan bemor tashqarida kutayotgan bemorlar yoki vaqt yetishmasligi uchun emas, balki sizni kutib kelganidan keyin kirgan. Bu bemor sizni eslab kelganligini unutmang. Shuningdek, oq xalatga dog' tushiradigan ishlarni qilishdan saqlaning. Bemorning dardini oxirigacha tinglang. Ba'zan bemor bir oz gapirganidan so'ng, uning kasalligi shifokorga ayon bo'ladi. Biroq bemor hali so'zini tugatmagan bo'lishi mumkin. U o'zini bezovta qilayotgan barcha shikoyatlarini shifokorga aytishni istaydi. Kishilar bir-birlari bilan muloqotga kirishar ekan, ularning asosiy maqsadlaridan biri o'zaro ta'sir ko'rsatishdir. Bu, o'z navbatida, fikr-g'oyalarini ko'ndirish, harakatga chorlash, ko'rsatmalarni o'zgartirish va yaxshi taassurot qoldirishni o'z ichiga oladi.

Psixologik ta'sir — bu turli vositalar yordamida insonlarning fikrlari, hissiyotlari va xatti-harakatlariga ta'sir ko'rsatishdir. V. Karimovanning fikricha, psixologiyada psixologik ta'sirning uchta asosiy vositasi farqlanadi:

1. Verbal ta'sir — so'z va nutq orqali ko'rsatiladigan ta'sir. Asosiy vosita bu yerda so'zlardir. Nutq — so'zlashuv, o'zaro muloqot jarayoni bo'lib, uning vositasi so'zlar hisoblanadi. Monologik va dialogik nutqlarda ham kishi o'zidagi barcha so'zlar zaxirasidan foydalanib, eng ta'sirchan so'zlarni tanlab, sherigiga ta'sir ko'rsatishni maqsad qiladi.

2. Paralingvistik ta'sir — nutqning atrofida, uni bezovta qiluvchi, kuchaytiruvchi yoki susaytiruvchi omillar. Bunga nutqning baland yoki past tovushda ifodalanishi, tovushlar, to'xtashlar, duduqlanish, yo'tal, til bilan amalga oshiriladigan harakatlar va nidolar kiradi. Shunga qarab, agar do'stim bizga biror narsani va'da berayotgan bo'lsa, biz uning qanchalik samimiyligini bilib olamiz.

3. Noverbal ta'sir — bu «nutqsizlik»ni anglatadi. Bunga suhbatdoshlarning bir-birlariga nisbatan tutgan o'rinlari, holatlari (yaqin, uzoq, intim), qiliqlari, mimika, pantomimika, qarashlar, bir-birini bevosita his qilishlar, tashqi qiyofa, undan chiqayotgan turli signallar (shovqin, hidlar) kiradi. Ularning barchasi muloqot jarayonini yanada kuchaytirib, suhbatdoshlarning bir-birlarini yaxshiroq tushunishlariga yordam beradi. Amerikalik olim Megrabyan formulasiga ko'ra, birinchi marta ko'rishib turgan suhbatdoshlardagi taassurotlarning ijobiy bo'lishiga gapirgan gaplar 7%, paralingvistik omillar 38%, noverbal harakatlar esa 58% ta'sir qiladi. Muqotda bo'lish, shuningdek, yaxshi tinglovchi bo'lish ham muhimdir.

Tinglash texnikasiga quyidagi asosiy jihatlar kiradi:

1. Aktiv tinglash: Bu – suhbatdoshingizning yuziga qarab, mimikalar va bosh chayqash kabi harakatlar orqali uning har bir so'ziga qiziqayotganingizni bildirishdir. Aktiv tinglovchi, nafaqat so'zlarni eshitadi, balki suhbatdoshi bilan aloqada bo'lib, uning fikrini tushunishga intiladi. Bu tinglash turi suhbatni jonlantiradi va fikrlar almashinuvi samarali bo'ladi.

2. Suhbatdoshingizga samimiy qiziqish bildirish: Bu – suhbatdoshingizning so'zlariga chin dildan e'tibor berish va uning fikrlarini qadriga yetish. Samimiy qiziqish bildirish, suhbatdoshingizni o'zini erkin va qulay his qilishiga yordam beradi, shuningdek, suhbatni yanada qiziqarli va samarali qilish uchun muhim omil hisoblanadi. Bu orqali siz suhbatdoshingizni o'zingizga jalb qilasiz va undan ko'proq ochiq fikrlarni olish imkoniyatini yaratgan bo'lasiz.

3. O'ychan jimlik: Suhbatdoshingiz gapirayotgan paytda, yuzingizda ma'suliyat bilan tinglayotganday ifoda yaratish – bu tinglashning yana bir samarali usuli. Suhbatdoshingizning so'zlariga to'liq e'tibor berish, uni tushunishga harakat qilish va unga vaqt ajratish, suhbatning haqiqiy qiymatini oshiradi. O'ychan jimlik, suhbatda manfaatdor ekanligingizni ko'rsatadi va suhbatni to'liq qabul qilishga imkon beradi. Bu metodlar, faqatgina suhbatdoshingizni tinglashni emas, balki uni chinakam qadriga yetish va o'zaro aloqani yanada mustahkamlashni ta'minlaydi. Xulosa: Bemorning psixologiyasini tushunish va ularga samarali psixologik yordam ko'rsatish tibbiy jarayonning ajralmas qismidir. To'g'ri yondashuv nafaqat bemorning ruhiy barqarorligini ta'minlaydi, balki sog'ayish jarayonini sezilarli darajada tezlashtiradi. Tibbiyot xodimlari va psixologlar bemorlarga empatiya, qo'llab-quvvatlash va ilmiy asoslangan psixologik usullar orqali samarali yordam berishlari kerak. Bu jarayon nafaqat bemorning fizik salomatligini yaxshilaydi, balki uning ruhiy holatini ham barqarorlashtiradi, bu esa umumiy sog'ayish jarayoniga katta ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, har bir bemorga individual yondashuv orqali uning ruhiy holatini yaxshilash va hayot sifatini oshirish mumkin.

Bemor o'zi ham sog'ayish jarayonida faol ishtirok etishi lozim. Uning o'z-o'zini parvarish qilishga qaratilgan yondashuvi sog'ayishni tezlashtiradi va sog'lom hayot tarzini ta'minlaydi. Bunda quyidagi o'z-o'zini parvarish qilish maslahatlariga amal qilish muhimdir:

1. Muntazam mashq qiling: Har kuni 30 daqiqa yurish yoki yengil jismoniy mashqlar kayfiyatni ko'taradi, stressni kamaytiradi va sog'liqni yaxshilaydi.

2. Sog'lom va muvozanatli ovqatlaning: Tananing yaxshi ishlashini ta'minlash uchun muntazam ravishda to'g'ri va mazali ovqatlanish zarur. Shuningdek, ko'proq suyuqlik ichish organizmni toza saqlashga yordam beradi.

3. Uyquni birinchi o'ringa qo'ying: Yaxshi va to'liq uyqu, tananing tiklanishiga va ruhiy salomatlikni saqlashga yordam beradi. Uyqu yetishmasligi kayfiyatga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

4. Tinchlantiruvchi faoliyat bilan shug'ullaning: Meditatsiya, yoga yoki oddiy nafas olish mashqlari ruhni tinchlantiradi, stressni kamaytiradi va umumiy farovonlikni yaxshilaydi.

5. Maqsadlar va ustuvorliklarni belgilang: Aniq va amalga oshiriladigan maqsadlar belgilab, ularga erishish uchun rejalar tuzish ruhiy holatni barqarorlashtiradi va motivatsiyani oshiradi.

6. Minnatdorchilikni mashq qiling: Har kuni o'z hayotingizdagi yaxshi narsalar uchun minnatdorchilik bildirish ijobiy fikrni rivojlantiradi va ruhiy salomatlikni yaxshilaydi.

7. Ijobiylikka e'tibor qarating: Negativ fikrlar o'rniga, har doim ijobiy yondashuvni tanlash, stressni kamaytiradi va insonning o'zini yaxshi his qilishiga yordam beradi.

8. Odamlar bilan muloqotda bo'ling: Ochiq suhbatlar, do'stlar bilan vaqt o'tkazish va o'zaro fikr almashish ruhiy holatni yaxshilaydi. Yaxshi ijtimoiy aloqalar o'z-o'zini qadrlashni oshiradi va stressni yengishga yordam beradi. Shunday qilib, bemorning sog'ayish jarayoni faqat tibbiy yordamga emas, balki uning o'z-o'zini parvarish qilishga ham bog'liqdir. Tibbiyot xodimlari, psixologlar va bemor o'zi birgalikda sog'ayish jarayonini tezlashtirishda katta rol o'ynaydi. Yondashuvning kompleksligi va har bir bemorning individual ehtiyojlarini hisobga olish sog'liqni saqlash tizimining samaradorligini oshiradi. ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. « Tibbiyot psixologiyasi » Z- Ibodullayev 2. « Muloqot psixologiyasi » M.Maxsudova 3. « Umumiy va tibbiy psixologiya » Y.M. Fayziyev.

4. «Ruhiiy kasallik – Alomatlar va sabablar – Mayo Clinic»
<https://www.google.com/url?sa=t&source=web&rct=j&opi=89978449&url=https://www.mayoclinic.org/diseases-conditions/mental-illness/symptoms-causes/syc20374968&ved=2ahUKEwiexfaSyJyLAXWRgSoKHWOPG7gQFnoECA8QBQ&usg=AOvVaw02D4krbd7LPCH0uy2QK8Ef>

5. «Ruhiiy kasalliklar «- MedlinePlus
<https://www.google.com/url?sa=t&source=web&rct=j&opi=89978449&url=https://medlineplus.gov/mentaldisorders.html&ved=2ahUKEwiBs4qaypyLAXUWGhAIHdnuESAQFn oECAMQBQ&usg=AOvVaw2-BcTsICI7i46kQhS4XizD>

6. «Ruhiy va hissiy salomatlik | Ta'rif va misollar» - Study.com
https://www.google.com/url?sa=t&source=web&rct=j&opi=89978449&url=https://stud.y.com/learn/lesson/psychological-health-emotional-mentalexamples.html&ved=2ahUKEwjW_7OnypyLAXVXHRAlHXpkCwxQFnoECAgQBQ&usg=AOvVaw0ya07kMUWPDv9BFkDUxkUk

7. «Sizning ruhiy salomatligingiz uchun g'amxo'rlik»
https://www.google.com/url?sa=t&source=web&rct=j&opi=89978449&url=https://www.nimh.nih.gov/health/topics/caring-for-your-mental-health&ved=2ahUKEwi_36WypyLAXXTPhAIHUhIN2UQFnoECAYQBQ&usg=AOvVaw2Ui0OI56mwszflgv4nubv2

8. «JSST Silga qarshi bilim almashish platformasi» <https://tbksp.who.int>
4.5.1 4.5.2

<https://www.google.com/url?sa=t&source=web&rct=j&opi=89978449&url=https://tbksp.who.int/en/node/2339&ved=2ahUKEwjxhbjy5yLAXUkUIUIHQLPBqIQFnoECBIQAQ&usg=AOvVaw3fET17q2Dj0sdKNTlg5A> mD 9. « Psixologik va hissiy yordam | TB haqida bilim almashish» <https://tbksp.who.int/en/node/2317>

ECONOMY IS THE BODY OF CIVIL SOCIETY LIFE

Navoi State University
"National idea, spirituality
Basics and legal education"
2nd year student
Farmanova Rukhshona
Hayatjon's daughter

Annotation: *In this article, it is considered that the implementation of structural reforms, modernization and diversification of leading industries are of great importance in order to ensure the rapid development of the economy of the Republic of Uzbekistan today.*

Key words: *Civil society, the role of the economic factor, Action strategy, investment, Constitution, private property.*

Today, the study of civil society is of great interest not only to researchers, but also to practitioners in the state and non-state spheres. The attention paid by the state to the civil society increased the interest in it. It is known from the history of civil society that the role of the economic factor in its creation was extremely high. It is possible to see the roots of civil society in the literal sense of the conflict between the state and the owners.

From this point of view, in order to fully understand the civil society, a comprehensive understanding of its economic foundations is required. It is known that production relations based on various forms of ownership form the economic basis of a legal state. In a legal state, property belongs directly to producers and consumers of material wealth, and the individual producer is the owner of the product of his labor. The equality of industrial relations, the primacy of law in all spheres, and the continuous increase in the well-being of society demonstrate the legality of the state. However, if you look at the societies where market relations are developing, you can witness the continuous increase of various professional associations in them, starting from various ethnic groups. It goes without saying that each group has its own interests and goals.

When the goals and interests of these groups collide in the civil society, this process does not lead to the disintegration of the society, but rather to its integrity. It is known that scientists do not deny that the importance of private property and the middle class is high for economic development and civil

society. In other words, it is stated in many sources that there cannot be a full-fledged civil society without this layer.

It is in the conditions of Uzbekistan that a comparative analysis of the process of formation of such a layer and the development of civil society is required.

As a result of the action strategy, the legal foundations of our country's economy were created. Article 67 of the Constitution of our General Assembly states that "The state provides a favorable investment and business environment. Entrepreneurs have the right to carry out any activity in accordance with the law and to independently choose the directions of their activity. The unity of the economic space, the free movement of goods, services, labor resources and financial funds are guaranteed in the territory of the Republic of Uzbekistan. Monopoly activity is regulated and limited by law"[1].

From the point of view of the ideas developed in the classical doctrines of the emergence of civil society, there are several aspects that require attention. So, according to the classical traditions, the middle class was formed and developed in the middle ages, how does the civil society, which was created as a result of the conflict between the state and the middle class, develop in today's conditions? These and similar questions can be answered during the study of the economic foundations of civil society.

It is known that private owners form the basis of a democratic society based on free market relations. Although private interest is unique to individuals and expresses individual interests, common values are manifested in the events that occur in the relations of these private interests with each other and with the state.

As the basis of the society is formed by representatives of the middle and small strata, the source of income of the representatives of this section and the main means of family life is economic activity based on private ownership. These are private enterprises in the fields of industry, trade, agriculture, services, etc., rental land, real estate, income-generating securities, interest-bearing currency, writers, poets, composers. , consists of activities carried out on the basis of intellectual property of inventors, scientific researchers, etc. If this section is deprived of its main activity, it will lose not only income, but also an important source of life. Therefore, property owners carry out all necessary organizational and legal activities to protect their property. From this point of view, private property is shown as one of the main reasons for the creation of civil society. It is on the basis of private property that social relations accelerate, and as a result, society becomes a powerful self-organizing system. "Private property is inviolable. "The owner cannot be deprived of his property in

the cases provided for by the law, except in cases and not based on the decision of the court" is defined in Article 65 of the Constitution [2].

It is known that private property serves the overall economic development of the country by stimulating the entrepreneurial activity of individuals. To prove this, the Uzbek scientist M. Sharifkhojayev points out the following factors:

First, private property encourages prudent property management. In other words, owners are required to maintain their property and increase it, to work regularly to earn income, and to always be in search. Otherwise, the property may depreciate and eventually the owners may face a crisis. If attention to the property is high and it is regularly developed, the possibility of increasing the income will increase.

If the property belongs to the state or is jointly owned by a large group, the possibility of its full preservation diminishes. An example of this can be given the lack of management in relation to state property during the former system. This can be seen from the deplorable state of state-owned housing in developed countries.

Second, private property encourages people to increase their material resources and use them effectively. The need to develop private property encourages people to improve their skills and work efficiently. That is why universities specializing in economics, especially business management, are the highest educational institutions in developed countries, and studying in them requires a huge amount of financial resources. There are always jobs for graduates of such higher education institutions, and salaries are constantly increasing as experience increases.

Third, private owners work to use their resources for the benefit of others. After all, property that effectively serves others brings income. The fact that the property is useful to others increases its value and the status of the owner of the property. From this point of view, if the behavior performed by the owner is approved by the consumers, the value of the property will increase, on the contrary, if such behavior is not approved, the value of the property will decrease. As you can see, the state of property is also a unique criterion in civil society.

In fact, although any owner works to increase his income, in the context of civil society, an entrepreneur first of all shows that he does not have this original intention, but that the quality of service to society is primary. In a civil society in the literal sense, the intention to earn a profit is of secondary importance. It is important here that both the owners, the state and the society realize that entrepreneurship is important and necessary for the civil society.

Fourthly, private property enables rational use of resources for the future and their preservation. Owners try to balance the interests of the present and the future, considering not only the present, but also future changes and growth of income.[3]

President Shavkat Mirziyoyev emphasizes the need to perform the following tasks when it comes to the development of entrepreneurship:

- Implementation of the program, which includes about 60 new initiatives and proposals in 7 areas, formed within the framework of open dialogue with events starting from 2022;

- Reducing the property tax rate for enterprises from 2% to 1.5%, leaving 500 billion soums at the disposal of entrepreneurs;

- lowering the value added tax rate from 15% to 12% starting from 2023;

- Introducing a single real estate tax by combining property and land taxes of legal entities;

- To reduce the profit tax rate of business in areas such as banking, finance, telecommunications from 20% to 15% and achieve the same rate for all business entities;

- Ending the monopoly on 25 types of activities, such as road construction, heat supply, landscaping services, and opening a wide path for entrepreneurship in these areas;

- Establishing a council of entrepreneurs on the basis of existing structures that support entrepreneurship in districts and cities;

- To fully transfer the issues of systematically dealing with professional education to the discretion of the Ministry of Employment and Labor Relations;

- 3-fold increase in the volume of services due to the expansion of the scope of service industries in the regions and in return create 3.5 million new jobs;

- By 2026, the share of private sectors in the gross domestic product will increase from 67% to 80%, and the export volume will increase from 32% to 60% [4].

So, the economic foundations of civil society mean economic relations based on private ownership, which has an important place in social relations in society. In history, it was private property and the layer of owners that contributed to the development of civil society. To this day, this layer of owners remains an important factor accelerating not only the economy, but also social relations.

USED LITERATURE.

1. Constitution of the Republic of Uzbekistan (this new version of the Constitution of the Republic of Uzbekistan was adopted by popular vote in the referendum held on April 30, 2023). T.: "Uzbekistan", 2023. - 39 - p.
2. Constitution of the Republic of Uzbekistan (this new version of the Constitution of the Republic of Uzbekistan was adopted by popular vote in the referendum held on April 30, 2023). T.: "Uzbekistan", 2023. - 38 - p.
3. M. Sharifhojaev. Formation of open civil society in Uzbekistan. T.: "Sharq", 2003. Pages 51-52.
4. Sh. M. Mirziyoyev. Development strategy of new Uzbekistan. T.: "Uzbekistan", 2021.- 148 149 - pages.

ТУРЛИ ХИЛ ДВИГАТЕЛ ТУРЛАРИНИНГ ДИАГНОСТИКАСИ ВА ТАЪМИРИ

Джумабаева Мадина Клышбаевна

Хожанова Айзада Даулетниязовна

1- сонли касиб хунар мактабининг ишлаб чиқариш талим устаси

Аннотация: Ушбу мақолада турли хил двигател турларининг, шу жумладан ички ёнув, дизель, гибрид ва электр двигателларининг диагностикаси ва таъмирига доир назарий ва амалий усуллар кенг қамраб олинади. Мақолада ҳар бир двигатель турига хос носозликлар, уларнинг пайдо бўлиши сабаблари, замонавий диагностика технологиялари ва муаммоларни бартараф этиш усуллари батафсил муҳокама қилинади. Мақсад – техник мутахассислар, автоваддецецлар ва қизиқувчилар учун самарали техник хизмат кўрсатиш ва носозликларни эрта даврда аниқлаш бўйича йўриқномалар тақдим этиш.

Калит сўзлар: Двигател, диагностика, таъмир, ички ёнув двигател, дизель двигател, гибрид двигател, электр двигател, техник хизмат, носозлик, OBD-II.

КИРИШ

Ҳар бир транспорт воситасининг самарали ишлаши ва узок муддат хизмат кўрсатиши унинг асосий қисмларидан бири бўлган двигателнинг тўғри фаолиятига боғлиқ. Ҳозирги кунда турли хил двигател турлари – бензинли ва дизел ички ёнув двигателлари, гибрид тизимлар ва ҳатто электр двигателлари кенг тарқалган. Ҳар бир турдаги двигательнинг ишлаш принциплари, конструкция хусусиятлари ва носозликларнинг пайдо бўлиши сабаблари бир-биридан фарқ қилади. Шу сабабли, ҳар бир двигатель тури учун ихтиёрий диагностика усуллари ва таъмир жараёнлари мавжуд бўлиб, уларни аниқлаш ва бартараф этиш самарадорлигини оширишда муҳим роль ўйнайди.

Замонавий технологиялар, айниқса OBD-II сканерлари, компьютерлаштирилган ташхис тизимлари ва сенсорлар орқали, двигателдаги кичик носозликларни ҳам тезда аниқлаш имконияти яратилаётгани сабабли, ҳар бир носозликнинг олдини олиш ва тезкор бартараф этиш техник хизмат кўрсатишда муҳим омил ҳисобланади. Мақолада турли хил двигател турларининг диагностикаси ва уларнинг таъмирида қўлланилаётган усуллар, шунингдек, аниқ мисоллар

келтирилган ҳолда, ушбу соҳадаги мутахассислар ва техник хизмат кўрсатувчилар учун кўмакчи восита сифатида тақдим этилади.

Ички ёнув двигателларининг диагностикаси ва таъмири

Диагностика усуллари

Ички ёнув двигателлари (бензинли ва дизел) асосий ишлаш элементлари сифатида клапанлар, поршеньлар, свечалар ва ёқилғи тизимига эга. Уларди носозликларни аниқлашда қуйидаги усуллар самарали ҳисобланади:

- Визуал текширув: Механик элементлар, мой сиқилишлари, ёки антифриз чиқиши каби кўринишли носозликларни аниқлаш учун ташқи кўринишдан текшириш.

- Электрон диагностика: OBD-II сканерлари орқали ECU (Двигател бошқарув блоги)да сақланган хатолик кодларини ўқиш ва таҳлил қилиш. Масалан, бензинли двигательларда P0300 (мисфайринг), P0171 (ҳаво-ёқилғи нисбати носозлиги) каби кодлар ёрдамида носозлик манбасини аниқлаш мумкин.

- Механик ўлчовлар: Компрессия текшируви, поршеньлар ва клапанларнинг ҳолатини аниқлаш учун босим ўлчовлари. Масалан, цилиндрлардаги босим нотўғри бўлса, клапан ёки поршеньнинг шу билан боғлиқ носозлиги етарлича текширилиши лозим.

Таъмир жараёнлари

Ички ёнув двигателларида носозлик аниқланганда, бартараф этиш жараёни қуйидагича амалга оширилади:

- Электр тизимининг таъмири: Искра берувчи свечалар, баланд кучланишли симлар ва ёқилғи системасининг электрон элементларини алмаштириш.

- Ёқилғи тизими таъмири: Форсункалар, ёқилғи насослари, ва фильтрларнинг носозликларини бартараф этиш. Масалан, ёқилғи циркуляциясидаги носозлик форсунканинг тўсилишига олиб келиши мумкин.

- Механик элементларнинг таъмири: Компрессия камлиги ҳолатида цилиндрлар, поршеньлар ёки клапанлар текширилиб, зарур бўлса, ўзгариш ёки қайта тайёрлаш ишлари олиб борилади.

Дизель двигателларининг диагностикаси ва таъмири

Диагностика усуллари

Дизель двигателлари бензинли двигателлардан фарқли равишда юқори босим ва турли турдаги ёқилғи тизимларига эга. Шу сабабли, уларда носозликларни аниқлашда қуйидаги усуллар самарали ҳисобланади:

- Электрон ташхис: OBD-II ва махсус дизель диагностика ускуналари орқали, инжекторлар ва турбокомпрессорлар каби элементлар ҳолати таҳлил қилинади.

- Механик ўлчовлар: Компрессия текшируви, ёқилғи таъминот тизимининг босим ва сифатини ўлчаш орқали носозликлар аниқланади.

- Эгзо газлар таҳлили: Дизель двигателларида чиқаётган эгзо газлар таркибини таҳлил қилиш, катализатор ва турбокомпрессор муаммоларини аниқлашда муҳимдир.

Таъмир жараёнлари

Дизель двигателларида носозликларни бартараф этиш учун қуйидаги чоралар кўрилади:

- Инжекторлар таъмири: Инжекторлар тўғри спрей бермаслиги ёки тўсилиши ҳолатида, уларни тозалаш ёки алмаштириш орқали носозликни бартараф этиш мумкин.

- Турбокомпрессорнинг текширилиши: Турбокомпрессор носозликлари ҳолатида, шу қисмни текшириш ва зарур бўлса, қайта танловдан ўтиш.

- Ёқилғи тизимини тузатиш: Ёқилғи насослари, филтрлари ва бошқа компонентларнинг носозликларини аниқлаш ва таъмирлаш.

Гибрид двигател ва электр двигателларининг диагностикаси ва таъмири

Диагностика усуллари

Гибрид ва электр двигателлар замонавий технологияларга асосланган бўлиб, уларда носозликларни аниқлаш учун қуйидаги усуллар қўлланилади:

- Сенсорли системалар ва компьютерлаштирилган ташхис: Батареяларнинг ҳолати, двигательнинг ишлаш самарадорлиги ва энергия сарфини назорат қилиш учун махсус сенсорлар орқали маълумотлар йиғилади.

- Электрон диагностика: Электр моторлари ва батарея тизимларининг электрон бошқарув блоклари орқали носозликлар кодлари аниқланади.

- Механик ва электр ўлчовлар: Электр двигателларидаги ҳарорат, ток ва кучланишни ўлчаш орқали носозликлар кузатилиши мумкин.

Бензинли двигательда мисфайринг муаммоси:

Масалан, OBD-II сканерлари орқали P0300 коди аниқланса, бу цилиндрларда нотўғри ёнғин жараёни борлигини кўрсатади. Носоз свечалар, форсункалар ёки ёқилғи системасидаги носозликларни аниқлаш орқали, техник мутахассислар тегишли қисмларни тозалаш ёки алмаштириш чораларини кўриши мумкин.

Дизель двигательда турбокомпрессор носозлиги:

Турбокомпрессордан чиқаётган эгзо газлар таркибидаги ўзгаришлар ва босим ўлчовлари орқали носозлик аниқланганда, махсус техник воситалар ёрдамида турбокомпрессорнинг ҳолати таҳлил қилинади ва зарур бўлса, у қайта тайёрланади ёки алмаштирилади.

Гибрид тизимда батарея муаммоси:

Сенсорлар орқали батарея элементларининг ишлаш самарадорлиги пастайгани кузатилганда, техник хизмат кўрсатувчилар батарея блоқларини индивидуал тарзда текшириб, кам самарали элементларни алмаштириш тавсиясини беради.

Электр двигателда бошқарув блоги хатолиги:

Электр двигателининг бошқарув блоги хатолик кодлари орқали носозлик аниқланганда, ушбу блог қайта калибровка қилинади ёки мутахассислар томонидан диагностика остида ислоҳ этилади.

ХУЛОСА

Турли хил двигател турларининг диагностикаси ва таъмири транспорт воситалари самарадорлиги ва ишончилигини таъминлашда ажралмас аҳамиятга эга. Ички ёнув, дизель, гибрид ва электр двигателларининг ҳар бирининг ўзига хос носозликлари ва уларни аниқлаш усуллари мавжуд бўлиб, замонавий диагностика технологиялари носозликларни тезда аниқлаш ва уларни бартараф этишда муҳим омил ҳисобланади.

Мақолада келтирилган назарий тушунчалар ва амалий мисоллар асосида, техник хизмат кўрсатувчилар ва автоваледецлар ҳар бир двигател турининг носозликларини мунтазам назорат қилиб, уларни эрта даврда аниқлашлари керак. Бу нафақат катта таъмирлаш харажатларидан сақланиш, балки йўл хавфсизлиги, атроф-муҳитга таъсирни минималлаштириш ва транспорт воситалари самарадорлигини оширишда ҳам муҳим аҳамиятга эга.

ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Максим Сергеевич Жмакин “Диагностика и быстрый ремонт неисправностей легкового автомобиля” 56-с, 77-с

2. А.С. Кузнецов “Техническое обслуживание и диагностика двигателя внутреннего сгорания” Москва- 2013. 4-с

3. С.М.Қодиров, М.О. Қодирхонов “Двигателлар ва автомобиль назарияси” Тошкент-2012. 75-б

4. Р.Тожибоев, А.Жураев, Р.Мақсудов “Машина деталлари” Тошкент 2010- 6- б

5. А.В.Пиятаев, Б.К.Мухамеджанов “Машина деталлари” Тошкент
2007. 8-б

6. В.С.Проскураков, С.В.Соболев “Электротехника Синхронные
электрические машины” Екатеринбург- 2008. 13- б

ABDULLA QODIRIY– MUSHTUM JURNALI HAQIDA

M.A.Razzoqova

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti

Annotatsiya: *Abdulla Qodiriy O'zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo'lib, u milliy uyg'onish davrining muhim shaxslaridan hisoblanadi. Mushtum — Abdulla Qodiriy tomonidan tashkil etilgan hajv va kulgi jurnali. Abdulla Qodiriy bu jurnalga asos solishdan maqsadi nima edi? Bu jurnldagi ba'zi maqolalar tufayli Abdulla Qodiriy qamoqqa olinishiga sabab bo'lgan.*

Kalit so'zlar: *„Qizil O'zbekiston“, Mushtum, G'afur G'ulom, zolimlar, „Afandi“, hajviy, „Obid ketmon“, "donos"*

KIRISH

Mushtum — Abdulla Qodiriy tomonidan tashkil etilgan hajv va kulgi jurnali. Jurnal 1923-yil 18-fevralidan beri chop etiladi. Toshkentda oyda 1 marta chiqadi. Mushtumning 1-soni 1923-yil 18-fevralda „Turkiston“ gazetasiga ilova (3 ming nusxada), 1924-yildan „Qizil O'zbekiston“ nashri sifatida chop etilgan. Jurnalning 1-sonida uning tashkilotchilaridan Abdulla Qodiriyning „Mushtum ta'rifida“ degan bosh maqolasi berilgan. Mazkur maqolada Mushtumning yo'nalishi belgilangan: Bu „Mushtum“ zo'rlik mushtumi emas, haqlik mushtumidir, bu „Mushtum“ zolimlar mushtumi emas, mazlumlar mushtumidir. Shuning uchun buning ma'nosi ham boshqachadir.

Mushtumga turli davrlarda ijod qilgan G'ozzi Yunus, Cho'lpon, Hoji Muin, Alijon Xoliqov, Rafiq Mo'min, G'afur G'ulom, Komil Aliyev, Abdulla Qahhor, Nosir Sayd, G'ayratiy, Sobir Abdulla, Said Ahmad, Anvar Muqimov, Xudoyberdi To'xtaboyev, Anvar Obidjon va boshqa ijodkorlar o'z asarlari bilan ishtirok etgan. Mushtumda chop etilgan ko'pgina hajviy asarlar adabiyotimizning bebaho durdonalariga aylangan. Masalan G'afur G'ulomning „Shum bola“si, Abdulla Qahhor, Said Ahmadning eng sara hajviyalari, Erkin Vohidovning „Donishqishloq hangomalari“, Abdulla Oripovning „Jannatga yo'l“ dramasi. Yuzlab tanqidiy maqolalar, felyetonlar jamiyatni turli illatlardan tozalashda Mushtumning asosiy quroli hisoblangan. Jurnal o'z faoliyatida turli ijodiy shakllardan, jumladan Nasriddin Afandi, Aldar Ko'sa kabi xalq og'zaki ijodidagi obrazlardan keng foydalanadi. Uning sahifalarida muhim voqealarga bag'ishlangan felyeton, pamflet, hajviya, o'rtoqlik hazillari va boshqa tanqidiy materiallar yoritiladi.

Mushtum o'z karikaturalari bilan ham mashhur. Uning birinchi rassomi Ishtvan Tullya bo'lgan, keyinchalik jurnalda turli yillarda T.Muhamedov, D. Sinitskiy, M. Vorobeynikov, N. Ibrohimov, A.Xoliqov, S. Subhonov, A. Qambarov, S.Salohiddinov, H.Sodiqov va boshqalar ishladi.

Mushtumga G'ozii Yunus, Ziyu Said, G'.G'afurov, Husayn Shams, J. Mahmudov, M. Muhamedov, Akmal Po'lat, Z. Yo'ldoshev, Mirmuhsin, Ibrohim Rahim, N. Aminov, Maqsud Qoriyev va boshqalar muharrirlik qilgan.

1926-yil „Mushtum“da bosilgan „Yig'indi gaplar“ hajviyasidagi tanqidiy mulohazalari uchun „aksilinqilobiy harakat qilganlik“da ayblanib qamoqqa olinadi, turli bo'xtonlar bilan sudlanadi. Sudda u mardona turib o'z sha'nini himoya qiladi. „Obid ketmon“ qissasi ham sho'ro mafkurachilariga ma'qul kelmaydi, keskin tanqidga uchraydi; „ideologik buzuvchiliklar va xatolar“ga to'la, „siyosiy tutuqsiz“ asar sifatida baholanadi. Yozuvchining tarixiy romanlarining esa asosiy mavzusi – millat taqdiri, birligi, el-yurt qayg'usi, mustaqilligi, shaxs erki, ijtimoiy adolat uchun kurash g'oyalari bilan yo'g'rilganligi tufayli ham hukmron mafkuraga zid asarlar bo'lib chiqdi. Millat ruhini yorqin aks ettirgan, xalqning, o'zga millat kitobxonlarining sevimli asarlariga aylangan bu romanlar sho'ro davri siyosati uchun zararli kitoblar sifatida bot-bot qoralandi. 30-yillar o'rtalariga kelib, bu mash'um kampaniya avjiga chiqdi. G'ofir G'ulom, Abdulla Qahhor, Uyg'un kabi shogirdlarining "donos"lari ortidan Abdulla Qodiriy 1937-yil 31-dekabr kuni xibsga olindi. 9 oylik qamoqdagi so'roq-tergov, qiynoq, xo'rlikdan so'ng Cho'lpon, Fitrat kabi maslakdoshlari bilan birga qatl etildi. Qodiriy xibsga olingach, asarlari „zararli“ sanalib o'tda yoqildi, kutubxonalaridan yo'qotildi, ularni o'qish ta'qiqlandi.

1998-yil 28-avgustda jurnalning haftalik ilovasi — „Afandi“ gazetasi tashkil etilgan. Gazetada davrning dolzarb muammolari, tanqidiy maqolalar ham keng yoritiladi. Hozir Mushtumning bosh muharriri — Ashurali Jo'rayev (1996-yildan). Adadi 10000 (2003)

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. B. Karimov. Jadidlar. Abdulla Qodiriy. – T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2022.
2. Oybek, Asarlar [19 jildli], 16-jild (Abdulla Qodiriyning ijodiy yo'li), T., 1979; Qodiriy H., Otam haqida, T., 1983; Abdulla Qodiriy zamondoshlari xotirasida, T., 1988; Boqiy N., Qatlnoma, T., 1992; Qo'shjonov M., O'zbekning o'zligi, T., 1994; Normatov U., Qodiriy bog'i, T., 1995; Normatov U., „O'tgan kunlar“ hayrati, T., 1996. Umarali Normatov, Bahodir Karimov. Sanjar Sodiq. Yangi o'zbek adabiyoti tarixi. Darslik. Toshkent "Universitet", 2005.

3. Quronov D. Mamajonov Z, Sheraliyeva M. Adabivotshunoslik lug'ati. - Toshkent: Akademik nashr, 2010.
4. I. Mirzayev Abdulla Qodiriyning ijodiy evolyutsiyasi . - T : Fan 1977.

УЛУШ КИРТИТИШ АСОСИДА ҚУРИЛИШДА ИШТИРОК ЭТИШ БЎЙИЧА ШАРТНОМАВИЙ МУНОСАБАТЛАРГА ОИД ХОРИЖИЙ ТАЖРИБА

Хасанов Дилшод Шухратович

Тошкент туманлараро иқтисодий судининг судъаси

АННОТАЦИЯ: Ушбу мақолада улуш киртитиш асосида қурилишда иштирок этиш бўйича шартномавий муносабатлари ҳақида, шу билан бирга халқаро ҳуқуқда намунали деб эътироф этилган улуш киртитиш асосида қурилишда иштирок этиш бўйича хорижий давлатлар тажрибаси яқиндан таништирилган. Бундан ташқари улуш киртитиш асосида қурилишда иштирок этиш бўйича шартномавий муносабатларни тартибга солувчи хорижий давлатлар қонунчилиги баён этилиб, тегишли таклифлар берилган.

Калит сўзлар: шартномавий муносабатлар, улуш киртитиш асосида қурилишда иштирок этиш, улушдор, қурувчи, қурилиш объекти, шартноманинг муҳим шартлари, тарафларнинг ҳуқуқ ва мужбуриятлари, қонун ҳужжатлари.

ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ДОГОВОРНЫХ ОТНОШЕНИЙ С УЧАСТИЕМ В СТРОИТЕЛЬСТВЕ НА ОСНОВЕ ДОЛЕВОГО УЧАСТИЯ

Хасанов Дилшод Шухратович

Судья Ташкентского межрайонного экономического суда

АННОТАЦИЯ: В этой статье мы поговорим о договорных отношениях участия в строительстве на основе долевого участия, в то же время внимательно изучается опыт зарубежных стран по участию в строительстве на основе долевого участия, который признан образцовым международном праве. Кроме того, описано законодательство зарубежных стран, регулирующее договорные отношения по участию в строительстве на основе долевого участия и даны соответствующие заключения.

Ключевые слова: договорные отношения, участие в строительстве на основе долевого участия, дольщик, застройщик, объект строительства, важные условия договора, права и обязанности сторон, законодательство

ISSUES OF CIVIL LAW REGULATION OF CONTRACTUAL
RELATIONS,
PROPOSALS FOR IMPROVING LEGISLATION

Hasanov Dilshod Shuhratovich

ANNOTATION: *In this article we will talk about the contractual relations of participation in construction on the basis of equity participation, at the same time, the experience of foreign countries on participation in construction on the basis of equity participation, which is recognized as exemplary in international law, is carefully studied. In addition, the legislation of foreign countries regulating contractual relations for participation in construction on the basis of equity participation is described.*

Keywords: *contractual relations, participation in construction on the basis of equity participation, equity holder, developer, construction object, important terms of the contract, rights and obligations of the parties, legislation.*

Улуш киртитиш асосида қурилишда иштирок этишнинг хорижий тизимлари ўзига хос хусусиятларга эга ва кўп жихатдан мамлакатимизда ривожланган тизимдан тубдан фарқ қилади.

Ушбу мақолада бир нечта хорижий мамлакатларда улуш киртитиш асосида қурилишда иштирок этиш институтини ва унинг ўзига хос хусусиятларини кўриб чиқамиз.

Ҳозирги вақтда Бирлашган Араб Амирликларида қўлланиладиган схема, биринчи навбатда, қурувчилар рухсатномалар олиши, лойиҳа экспертизасидан ўтиши ва уни тасдиқлаши билан тавсифланади. Лойиҳанинг қиймати экспертлар кенгаши томонидан баҳоланади ва қурилиш сметалари оммавий ҳисобланади. Қурилишни бошлаш учун объектни қуриш учун зарур бўлган маблағларнинг юз фоизини йиғиш керак, шу билан бирга у маълум бир муддат, масалан, олти ой давомида амалга оширилиши керак. Белгиланган муддатда улгуриш учун қурувчи дастлаб минимал нархларда сотишни бошлаб, кейинчалик қурилиш тугагунига қадар сотилмаган квартираларнинг нархи сезиларли даражада ошишини кутиб иш тутади.

Омонатчиларнинг маблағлари ваколатли банкларнинг мақсадли ҳисобварақларида сақланади. Қурилишни молиялаштириш босқичма-босқич ва ваколатли банк назорати остида амалга оширилади. Қурилиш нархининг сезиларли даражада ошиши хавфи суғурта компаниялари

томонидан суғурта қилиниши мумкин. Омонатчилар объект вақтида топширмаслик хавфидан химояланган - бу ҳолда, қурувчларга нисбатан жарима қўлланилиши мумкин.

Амерка Қўшма Штатларида миждоз қуйидаги схема бўйича ишлайди: у ерда лойиҳа менежерлари, усталар, харажатларни тахмин қилувчилар, иқтисодчилар, муҳандисларни ўз ичига оладиган гуруҳ яратади. Улар барча керакли ҳужжатларни ишлаб чиқадилар, тахминлар қиладилар. Материалларни олгандан сўнг, лойиҳа менежери пудратчилар билан ишлашни бошлайди, шу билан бирга консалтинг фирмаларининг иштироки кенг тарқалган.

Агар биз қурилиш инвестицияларининг кооператив шакли ҳақида гапирадиган бўлсак, унда Америкада у ҳам ўзига хос хусусиятга эга, масалан, баъзи штатларнинг прокуратураларида ушбу соҳада ишлайдиган кооператив субъектлар томонидан омонатчилардан олинган маблағларни йиғиш ва сарфлашни назорат қилувчи махсус бўлинмалар мавжуд. Бундан ташқари, барча маблағлар махсус прокуратура ҳисобварағига ўтказилади, бу орқали уларнинг кейинги харажатлари амалга оширишлари мумкин.

Қўшма Штатларда уй-жой таъминоти кенг тарқалган ипотека кредитлари билан қўллаб-қувватланади. Уй-жой қурилиши ва уйга эгаллик қилиш учун ипотека кредити тизими Президент Франклин Рузвелт даврида шакллана бошлади.

Ҳозирги вақтда ҳар хил турдаги кредит дастурлардан фойдаланилмоқда, асосан кредит муддати - бу қарз олувчи ишлайдиган вақт билан унинг нафақага чиққунга қадар бўлган вақт оралиғи.

Уй-жойни молиялаштириш фаолиятига ипотека банклари, жамғарма ва кредит уюшмалари, тижорат ва жамғарма банклари, суғурта компаниялари, пенсия фондлари, инвестиция институтлари, хусусий кредиторлар, кўчмас мулк, брокерлик фирмалари ва бошқа кўплаб турли хил муассасалар, бирламчи ва иккиламчи ипотека бозори, шу жумладан қимматли қоғозлар бозори жалб этилган. Шундай қилиб, ушбу мамлакатда кредитлашнинг яна бир хусусияти шундаки, барча турар-жой бинолари 3 гуруҳга бўлинган: энг арзон, ўртача ва энг қиммат. Биринчи тоифадаги объект учун кредит давлат томонидан, қолган тоифалар учун - хусусий ипотека муассасалари ёрдамида берилади. Бундай ҳолда, кредит муддати 12 йилни ташкил етади ва субсидия миқдори турар-жой бинолари нархининг 75 фоизигача ташкил қиладди.

Францияда биргаликда капитал қурилиш шартномасини тузишда объектнинг қиймати босқичма-босқич тўланади: қурилиш ишлари бошланишидан ва пойдевор қўйишдан олдин харидор харажатларнинг 5

фоизини тўлайди, том ўрнатилгунга қадар шартнома миқдорининг 70 фоизини тўлаш керак, кейин яна 20% тўланади ва қолган 5% уй топширилганда тўланади.

Франция қонунчилигида алданган улушдорларга маблағларнинг компенсация тўловлари кўзда тутилмаган, аммо кафолатлар француз банклари томонидан таъминланиши мумкин.

Уй-жой кредитлаш ҳам Францияда ривожланган. Францияда уй-жой жамғармаларининг икки тури мавжуд: биринчи ҳисобда фуқаро 100 минг франкгача тўплаши ва кейин 150 минг франк миқдорида имтиёзли уй-жой кредитини олиши мумкин, йилига 3,75%, ҳар йили мақсадли депозитга 7,5 минг франк миқдорида давлат мукофоти қўшилади; иккинчи жамғармада 400 минг франк тўлаб, имтиёзли уй-жой кредит олиш, бу ҳолда 600 минг франк олиш мумкин. Кредит ставкалари бозор ставкаларидан 4-5% паст. Шунингдек, уй-жой ва саноат қурилиши учун ер эгалари ва қурилиш компанияларига 3 йилдан 20 йилгача кредитлар берилади.

Германияда умумий капитални қуриш соҳасидаги муносабатларни ҳисобга олган ҳолда, бу ерда махсус қонунчилик қабул қилинмаганлигини, муносабатлар фуқаролик кодекси билан тартибга солинишини ва ҳукумат қарорлари фақат баъзи масалалар бўйича қабул қилинишини таъкидлаш лозим.

Германияда, харидор лицензияга эга қурилиш компанияси билан бевосита муносабатга киришади. Шартнома суммаси ҳам тўғридан-тўғри қурувчи компаниянинг ҳисоб рақамига ўтказилади, аммо қурилиш учун рухсатнома берилишидан олдин эмас, ақс ҳолда ишлаб қурувчининг лицензияни бекор бўлиши мумкин. Шундай қилиб, қурилиш компанияси қурилиш муддати ва сифатини таъминлаш учун шахсан жавобгарликни ўз зиммасига олиб, объектни қуриш ва унинг қисмини кўчмас мулк шаклида инвесторга топшириши шарт.

Германияда ҳам классик омонат шаклида фуқаролар учун қўллаб - қувватлаш тизимига эга қурилиш омонат кассалари мавжуд. Мақсадли уй-жой кредитлари учун ресурслар уларнинг манбаи фуқароларнинг депозитлари, уй-жой кредитлари фойдаланиш учун қарз олувчиларнинг тўловлари, шунингдек давлат мукофотлари сифатида, қурилиш омонат шартномага мувофиқ тўланади, агар омонатчи йил давомида ўз ҳисобига маълум бир миқдорда инвестиция киритган бўлса.

Буюк Британияда улуш киритиш асосида қурилишда иштирок этишда (шунингдек, айрим Скандинавия мамлакатларида) миждознинг вакили кўпинча архитектор эканлигига билан тавсифланади. У қурилиш учун зарур бўлган барча мутахассисларни танлайди, улар лойиҳанинг дастлабки

нарҳини таҳмин қиладилар, субпудрат бўйича турли ишларни бажарадилар. Меъмор улар билан биргаликда шартнома тузиш учун зарур бўлган ҳужжатларни тайёрлайди, бу ким ошди савдосида иштирок этишнинг мақсадга мувофиқлигини кўрсатади, ким ошди савдосидан олдин ва кейин иш дастурини ва қурилиш муддатини қисқартириш усулларини ишлаб чиқади.

Хорижий давлатларнинг улуш киритиш асосида қурилишда иштирок этиш бўйича қонунчилиги ва шартномавий муносабатларни фуқаролик-ҳуқуқ тартибга солиш масалаларни ўрганишда Россия Федерациясининг қонунчилиги бизнинг қонунчиликка ухшашлигини кўриш мумкин, шу билан биргаликда Россия Федерациясида бу соҳада қонунчилик такомиллашганини кўриш мумкин.

Биргаликда қурилишда иштирок этиш шартномасидан келиб чиқадиган муносабатларни ҳуқуқий тартибга солиш асослари Россия Федерацияси Конституциясида баён етилган. Россия Федерацияси Конституциясининг 40-моддасига асосан ҳар ким уй-жой олиш ҳуқуқига ега эканлигини эълон қилинган. Россия Федерациясининг асосий Қонунининг ушбу қонунини амалга ошириш орқали давлат ҳокимияти ва маҳаллий ўзини ўзи бошқариш органлари уй-жой қурилишини рағбатлантиради, уй-жой қуриш ҳуқуқини амалга ошириш учун шароит яратади.

Давлатнинг уй-жой сиёсати арзон уй-жой бозорини шакллантириш ва уй-жой ипотекасини ривожлантиришга қаратилган. Бу вазифаларни бажариш улуш асосида қурилиш ҳажми ва уйларда қуриш суръатини ошириш билан амалга оширилган.

Кўп қаватли уйда улушли уй-жой қурилишида иштирок этиш фуқароларнинг яшаш шароитларини яхшилашнинг энг кенг тарқалган усуллари билан бири бўлишига қарамай, яқин вақтгача ушбу муносабатларни тартибга солувчи етарли ҳуқуқий асос Россия Федерациясида ҳам мавжуд эмас эди. Шу муносабат билан, биринчи навбатда, квартираларни кейинчалик мулкка сотиб олиш мақсадида кўп квартирали турар-жой биноларини қуришга сармоя киритган фуқароларнинг ҳуқуқлари ва манфаатлари кўпинча бузилган.

Масалан, амалда фуқаролар томонидан битта уйни қуриш учун маблағ қурувчилар томонидан бошқа уйларни қуришга йўналтирилганлиги ёки қурилиш тугагандан сўнг, квартираларни ўтказиш ўрнига, қурувчилар фуқароларга пулларни ишлатиб қайтарилган, квартиралар эса қимматга сотилган ҳолатлар бўлган. Бир хонадонга бўлган ҳуқуқларни бир вақтнинг ўзида бир неча фуқарога ўтказиш ҳоллари ҳам кузатилиб турилган.

Улуш асосда биргаликда уй-жой қурилиши иштирокчиларини ҳимоя қилиш мақсадида Россия Федерациясида 2004 йил 30 декабрда "Қўп қаватли уй-жойлар ва бошқа кўчмас мулк объектларини биргаликда қурилишида иштирок этиш тўғрисида" Қонун қабул қилинган. Ушбу қонун улушли уй-жой қурилиши учун маблағ жалб қилиш ва улушли қурилиш иштирокчилари ўртасида улушли қурилиш объектларига эгаллик ҳуқуқларининг пайдо бўлиши билан боғлиқ муносабатларни тартибга солувчи асосий норматив ҳужжат бўлиб хизмат қилади.

Ушбу Қонуннинг қабул қилинишидан асосий мақсад улушдорлар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш бўйича давлат кафолатларини оширишдан иборат эди. Шу билан бирга, қурувчиларнинг манфаатлари деярли ҳисобга олинмади. Ушбу қонуннинг дастлабки матнида қурувчига шартномани бир томонлама бажаришдан бош тортиш ҳуқуқини берадиган ҳеч қандай норма йўқ эди. Шу сабабли айрим олимларнинг фикрича, қонун чиқарувчи ушбу соҳадаги муносабатларни қурувчининг муаммоларини ҳисобга олмаган ҳолда, улушдорларнинг муаммолари призмаси орқали тартибга солиш зарурлигини кўриб чиққан.

Россия Федерациясида ушбу Қонунни қабул қилиш зарурати, шунингдек, улуш асосида қурилишда иштирок этиш тўғрисидаги муносабатларни тўғридан-тўғри тартибга солишнинг махсус механизми йўқлиги сабаб бўлган. Томонлар қўп қаватли уйларни улуш асосда биргаликда иштирок этиш бўйича шартномалар тузишда Фуқаролик кодексида мавжуд бўлган шартнома тузиш эркинлиги принциpidан фойдаланиб, турли хил шартномалар тузишга олиб келган. Бу эса улушдорларнинг ҳуқуқларининг кўплаб бузилишларига олиб келган.

Қонун билан улуш киритиш асосда қурилишда биргаликда иштирок этиш алоҳида мустақил шартнома сифатида шаклланди, бу шартноманинг тушунчаси, унинг муҳим шартлари, томонларнинг ҳуқуқ ва мажбуриятлари белгиланди.

Қозоғистон Республикасида қурилишда улуш асосида иштирок этиш узоқ вақтдан бери қўлланилиб келинган, аммо махсус Қонун йўқ эди. Қурилишда улуш асосида иштирок этиш муносабатлари Фуқаролик кодекси, 16 йил 1997 апрелдаги "Уй-жой муносабатлари тўғрисида"ги Қонун, 16 йил 2001 июлдаги "Архитектура, уй-жой муносабатлари тўғрисида"ги Қонун ва бошқа бир қатор қонунлар билан тартибга солиниб келинган.

Юқорида номлари саналган қонун ҳужжатларида улушдорларга тақдим этилиши керак бўлган кафолатлар ва уларга тақдим этилиши керак бўлган ҳимоя чоралари ҳисобга олинмасдан, улуш киритиш асосида

қурилшни амалга оширишнинг фақат умумий тамойиллари белгиланган, ҳатто ушбу соҳадаги шартнома қўйилган талаблар ҳам мавжуд эмас эди. Натижада, қурувчилар қурилишда улшдорлар маблағларини фаол жалб қилиб, улшдорларнинг ҳуқуқлари кафолатланмасди. Бу соҳадаги дастлабки кадам 2007 йилда қабул қилинган "Уй-жой қурилишида улш асосида иштирок этиш тўғрисида"ги Қонун бўлди.

Қозоғистон Республикасида ижтимоий-иқтосодий ҳаётнинг ривожланиши, улш асосида уй-жой қурилиши билан боғлиқ муносабатларнинг ривожланиши, янгидан янги ўз ечимни топиши керак бўлган муаммо ва масалаларнинг кўпайиши ушбу соҳани тартибга соладиган янги қонунчилик ҳужжатига эҳтиёж олиб келди. Натижада, 2016 йил 7 апрел куни янги таҳрирда "Уй-жой қурилишида улш асосида иштирок этиш тўғрисида"ги Қонун қабул қилинди ва такомиллаштири борилмоқда (охрғи ўзгаришлар 2021 йилнинг 29 декабрида киритилган).

Қонуннинг 3-моддасига асосан, Қонун бир томон бино қурилишини таъминлаш ва қурилиш тугаганидан кейин иккинчи томонга бинода квартиралар ёки нотураржой хоналари ўтказиш мажбуриятини бўлган муносабатларга амал қилади, ва иккинчи томон тўловларни амалга ошириш ва квартиралар ёки нотураржой хоналари қабул қилиш мажбуриятини олиш муносабатларига тадбиқ қилинади.

Қонунда белгиланган талабларни бузган ҳолда кўп қаватли уйларни қуриш учун жисмоний ва юридик шахслардан пул жалб қилиш тақиқланади. Қонун талабларини бузган ҳолда амалга оширилган қурилиш учун жисмоний ва юридик шахслардан пул маблағларини жалб қилиш тўғрисидаги битим ҳақиқий эмас деб ҳисобланади.

Юқорида номи тилга олинган Қонун, шунингдек, қуриб битказилган бино иншоотларни топшириш масалаларини ҳам тартибга солади. Жумладан, Қонуннинг 17-моддасига асосан, ваколатли компания улшдорга қурилган кўп квартирали турар-жой биносидаги улшини уй-жой қурилишида улш билан иштирок этиш тўғрисидаги шартномада назарда тутилган муддатдан кечиктирмай топшириши шартлиги белгиланган.

Улшдорга унинг кўп қаватли уйдаги улшини ўтказиш ваколатли компания томонидан қурилган кўп қаватли уйни ишга қабул қилиш тўғрисидаги далолатнома имзолангандан кейин амалга оширилади.

Умуман олган Қозоғистон Республикасида ҳам қурилишда улшдорнинг иштироки-бу нисбатан янги шартнома шакли бўлиб, бу соҳасидаги муносабатларни ҳуқуқий тартибга солишни такомиллаштириш

масалалар устида ҳар доим изланишлар олб борилишини кўзатиш мумкин.

Юқоридагилардан келиб чиқиб шуни айтиш мумкинки турли давлатларда бу шартномалар улуш киритиш асосида қурилишда иштирок этиш, қурилишга инвестиция киритиш ва бошқа бир қатор номлар билан номланади. Айрим назариётчи олимлар бу шартномаларни олди-сотди шартномаси, пудрат, хизмат кўрсатиш ва бошқа бир қатор шартнома турларига кириши ҳақида ўз қарашларини билдиришган. Олиб борилган тадқиқот улуш киритиш асосида қурилишда иштирок этиш шартномавий муносабатларнинг ўзига хос тури эканлиги, улуш киритиш асосида қурилишда иштирок этиш шартномасининг ҳозирги кундаги аҳамиятини, шунингдек унинг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда, фуқаролик қонунчилигининг шартномалар тизимига махсус боб - "улуш киритиш асосида қурилишда иштирок этиш шартномаси" киритилиши ёки хорижий давлатлар, жумладан Россия, Қозоғистон тажрибасидан фойдаланган ҳолда алоҳида қонун ишлаб чиқариш мақсадга мувофиқдир, зеро бу мутлақо янги шартнома тури бўлиб, олди-сотди, пудрат ва бошқа турдаги шартномалардан ўзига хос жиҳатлари билан фарқ қилади.

Шунингдек, улуш киритиш асосида қурилишда иштирок этиш иштирокчилари-улушдорлар учун иқтисодий кафолатларни таъминловчи чора сифатида улуш киритиш асосида қурилишда иштирок этиш шартномасини бажармаганлик учун қурилиш ташкилотининг фуқаролик жавобгарлигини мажбурий суғурта қилиш институтини жорий этиш таклиф этилади. Ушбу чора муносабат иштирокчиси бўлган улушдорларнинг, юридик ва жисмоний шахсларнинг, ҳуқуқ ва қонуний манфаатларини инсофсиз қурувчилардан ҳимоя қилишда катта роль уйнайди. Улушдорларнинг мулкӣ манфаатларини ҳимоя қилиш мақсадида молиявий хатарларни ихтиёрӣ суғурта қилиш имконияти ва механизмини ушбу муносабатларни тартибга солувчи қонунчиликка киритиш таклиф этилади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Резцова Е. В. Правовая природа договора долевого участия в жилищном строительстве, 2006.
2. [https://ru.wikipedia.org/wiki/ Долевое_строительство](https://ru.wikipedia.org/wiki/Долевое_строительство).

3. <https://www.dissercat.com/content/pravovaya-zashchita-uchastnikov-otnoshenii-dolevogo-stroitelstva>.
4. <https://online.zakon.kz/>
5. http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_5103
6. Кайль А.Н. Постатейный комментарий к Федеральному закону «Об участии в долевом строительстве» многоквартирных домов». - М.: ГроссМедиа, 2008. - 221 с.
7. Вознесенская Н.Н. Иностранные инвестиции: Россия и мировой опыт (сравнительно-правовой комментарий). М., 2001.

KONSTITUTSIYA – YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTINING HUQUQIY MUSTAHKAM POYDEVORI

Xolmurodova Sevinch Jumanazarovna

Yuridik fakulteti Yurisprudensiya (faoliyat turi bo'yicha) yo'nalishi

2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Yuridik fakulteti Jinoyat huquqi va fuqarolik protsessi

kafedrasi o'qituvchisi

Tursunov Behruz

Anotatsiya: *Ushbu maqolada Konstitutsiyaning ahamiyati, uning qanday qilib tuzilgani va hozirgi kunga qadar unga qanday o'zgartirishlar kiritilgani, hamda uning yangi O'zbekistonning yaratilishidagi o'rni va ahamiyati haqida yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *Sessiya, prinsip, aybsizlik prezumpsiyasi, Miranda qonuni, deputat, senat, senzura.*

Hozirgi kunda hech bir demokratik davlatni konstitutsiyasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Zero, konstitutsiya bu, davlatlarning huquqiy poydevori, inson huquqlari va erkinliklarining kafolatidir. Usiz demokratik jamiyat bo'lmaydi. Shunday ekan, har bir demokratik davlatga konstitutsiya kerak. Hamma demokratik davlatlar qatori O'zbekiston Respublikasining ham o'z konstitutsiyasi bor. Keling hozir O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan tanishib olsak.

Mustaqillik uchun qo'yilgan shaxdam qadam sifatida e'tirof etiladigan, 1990-yil 20-iyunda qabul qilingan Mustaqillik deklaratsiyasi yangi Konstitutsiya yaratish uchun ham asos bo'ldi. Deklaratsiya qabul qilingan oliy kengash sessiyasida shu hujjat prinsiplari asosida yangi Konstitutsiya ishlab chiqish zarur, degan xulosaga kelindi va Prezident I.Karimov boshchiligida 64 kishidan iborat Konstitutsiya loyihasini tayyorlash uchun komissiya tuzildi. 1991-yil Konstitutsiya loyihasini tayyorlovchi komissiyaning birinchi majlisi o'tkazilib, komissiya a'zolari va yetakchi mutaxassislardan tashkil topgan, 32 kishidan iborat ishchi guruh tuzildi. Konstitutsiya bo'limlarini tayyorlash uchun 6 ta kichik guruh tashkil qilinib, ularning har biriga Konstitutsiyaning muqaddimasini, Konstitutsiyaviy tuzum asoslarini, fuqarolarning huquq, erkinlik, burchlari, fuqaro va jamiyat, davlat tuzilishi, davlat hokimiyati tizimi bo'limlarini tayyorlash yuklandi. Kichik guruhlar tarkibiga 50 nafar olim, ilmiy xodimlar, mutaxassislar jalb etildi. Konstitutsiya loyihasining birinchi variant 1991-yil noyabrida tayyorlab bo'lindi. 1991-yili 31-avgustda Respublikamizda

Mustaqillik e'lon qilindi. Konstitutsiya loyihasining aslabki varianti muqaddima, 6 ta bo'lim va 158 ta moddadan iborat edi. Tayyorlangan loyiha Komissiya qaroriga asosan 1992-yil 26-sentyabrda ommaviy axborot vositalarida umumxalq muhokamasiga e'lon qilindi. 1992-yil 21-noyabrda ikkinchi marta umumxalq muhokamasiga qo'yildi. Loyihadagi 127 ta moddadan deyarli 60 tasi tuzatishlarga uchradi, ularning normalariga aniqliklar kiritildi, e'lon qilingan loyiha variantidan 4 ta modda umuman chiqarib tashlandi. 1992-yil 8-dekabrda Oliy Kengashning XII chaqiriq XI sessiyasi bolib o'tdi. Bu sessiya tarixiy sessiya bo'lib, tarixiy ahamiyatga ega masalani muhokama qildi. Sessiyada Konstitutsiya loyihasini tayyorlovchi komissiya raisi I.Karimov ma'ruza qildi. Ma'ruzada Konstitutsiya loyihasi batafsil bayon qilib berildi. Shundan so'ng Konstitutsiya loyihasi deputatlar muhokamasidan o'tdi. Sessiyada loyihaga 80 ga yaqin o'zgartirish, qo'shimcha, aniqliklar kiritildi. Deputatlar yakdillik bilan muqaddima, 6 ta bo'lim, 26 ta bob va 128 ta moddadan iborat Konstitutsiyasini qabul qildilar. Shunday qilib asosiy qonunimiz vujudga kelgan.

Asosiy qonunimiz xalqimiz irodasini, ruhiyatini, ijtimoiy ongi va madaniyatini aks ettiradi. Chunki uni ishlab chiqishda va muhokama qilishda butun xalq ishtirok etdi. "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi xalqimiz siyosiy-huquqiy tafakkurining yuksak namunasidir. U hech kimga qaram bo'lmasdan, erkin va ozod, tinch va osoyishta, farovon yashashning qonuniy kafolati bo'lib kelmoqda. Bozor munosabatlariga asoslangan huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish borasida mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilmoqda". Jamiyatning rivojlanib borishi natijasida yangi ijtimoiy munosabatlar, ehtiyojlar vujudga keladi. Davlat boshqaruv faoliyati kengayib boradi, davlat – fuqaro o'rtasidagi munosabatlar rivojlanadi. Yangi yutuqlarga erishiladi. Bular esa ularni Konstitutsiyada mustahkamlash zaruratini keltirib chiqaradi va bu Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish yoki butunlay yangi Konstitutsiya qabul qilishga olib keladi. 2022-yilda yangi Prezidentlik muddatiga kirish marosimidagi ma'ruzasida Sh.Mirziyoyev, saylovoldi uchrashuvlarida saylovchilardan tushgan istaklar natijasida Konstitutsiyamizga jiddiy o'zgartirishlar kiritish masalasini ilgari surgan edi. Shu va boshqa shunday takliflarni, ilmiy tadqiqot natijalarini hisobga olgan holda 2022-yil 20-mayda 47 nafar a'zodan iborat Konstitutsiyaviy komissiya tuzildi. Mutaxassislardan iborat ishchi guruhlari Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish ishini amalga oshirdi. Tayyorlangan loyiha 2022-yil 25-iyunda muhokama uchun e'lon qilindi. Muhokama muddati bir necha marta uzaytirildi va olib borilgan ishlar natijasida avvalgi 128 ta moddadan iborat bo'lgan Konstitutsiya o'zgartirish, qo'shimchalar natijasida 155 moddadan

iborat yangi tahrirdagi Konstitutsiya loyihasi tayyorlandi. Bu Konstitutsiyaning 65% matni xalq takliflari asosida yangilandi. Unda Konstitutsiyaviy komissiya ta'kidlaganidek, "Inson – jamiyat – davlat", "Yangi O'zbekiston ijtimoiy davlat" tamoyillari, "Inson manfaatlari – iqtisodiy islohotlarning bosh mezon", "Jamiyat islohotlari tashabbuskori" singari ezgu g'oyalar o'z aksini topdi. Tayyorlangan loyiha 2023-yil 30-aprelda referendumga qo'yildi. Referendumda ro'yxatga kiritilganlarning 84,51% ma'qullab, 9,35% loyihaga qarshi ovoz berdi. Natijada loyihani mutlaq ko'pchilik ma'qulladi.

Yangi tahrirdagi konstitutsiyadagi eng muhim yangiliklar:

- O'zbekistonda boshqaruvning respublika shaklini Konstitutsiyada belgilanishi;

- O'zbekistonni huquqiy, ijtimoiy, dunyoviy davlat deb belgilanishi;

- Atrof-muhitni avaylab-asrashga e'tibor berilganligi;

- Ta'lim olish huquqining kengaytirilganligi, o'qituvchilar maqomining Konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanishi;

- Oila maqomining yangicha mustahkamlanishi;

- Inson huquqlari doirasi kengayganligi;

- Inson huquq va erkinliklari kafolatlarining kuchaytirilganligi;

- Davlat majburiyatlarini konstitutsiyaviy darajada belgilanishi;

- Qonun ustuvorligining kuchaytirilganligi;

- Yoshlar huquqini himoyalashning kengayganligi;

- Tadbirkorlar, mulk huquqining kuchaytirilganligi;

- Parlamentimizning kuchaytirilganligi;

- Hukumat tarkibining ixchamlashtirilganligi;

- Advokatura faoliyatiga Konstitutsiyaviy maqom berilganligi;

- Mahalliy davlat hokimiyati tarmoqlarining mustaqilligi ta'minlanganligi, hokim maqomining o'zgartirilganligi;

- Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining davlat hokimiyatidan mustaqilligining belgilanganligi;

- Fuqarolik jamiyati institutlarining faolligini ta'minlash belgilanganligidir

Barcha yangiliklar insonni eng oliy qadriyat darajasiga ko'tarish, fuqarolik jamiyatini yanada takomillashtirish va xalqparvar davlat barpo etishni nazarda tutadi.

Bizning asosiy qonunimiz bo'lmish Konstitutsiyamiz, O'zbekiston Respublikasining – huquqiy poydevori, tayanchi hisoblanadi. U mamlakatimizning huquqiy davlat ekanligining isbotidir. Huquqiy davlat bu – davlat va jamiyat faoliyatida qonuniylik, qonun ustuvorligiga to'la amal

qilishini, huquq normalari har jabhada eng hayotiy, zaruriy hodisaga aylanishini bildiradi. Konstitutsiyada belgilangan barcha inson huquqlarini amalga oshishi uchun yetarli sharoitlar yaratilishi – huquqiy davlatga xos asosiy xususiyatdir.

Huquqiy davlat – qonun hukmdorligi, qonun oldida hammani – mansabi, boyligi, jamiyat va oldidagi xizmatlaridan qat’i nazar qonun oldida tengligidir.

Bu yuqorida aytib o’tilgan barcha xususiyatlar Respublikamizda mavjudligi sababli uning hech qanday o’ylovlarsiz huquqiy mamlakatlar qatoriga qo’shdik va buni Konstitutsiya darajasida mustahkamladik.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak biz Yangi O’zbekistonimizni – Yangi huquqiy poydevor bilan barpo qilishni boshladik. U bor ekan mamlakatimiz tinch , osoyishta, osmonimiz musaffo , huquqlarimiz, erkinliklarimiz, daxlsizligimiz kafolatlangan . Bundan ortiq baxt bo’lmasa kerak. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining qabul qilinishi orqali ijtimoiy hayotdagi bir qancha sohalarni maqomini Konstitutsiya darajasida mustahkamlab qo’ydi. Bu o’zbek xalqi uchun katta faxr! Zero, shunday tinch osoyishta demokratik davlatning xalqi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

- 1.O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. <https://www.arxiv.uz>
- 3.Konstitutsiyaviy huquq . O’quv qo’llanma O.T.Husanov
- 4.Lex.uz
- 5.Constitution.uz
- 6.Insonhuquqlari.uz

QAHRAMONNING PYESADAN TASHQARI HAYOTI TAHLILI

O'z DSMI FMF "Dramatik teatr va kino aktyorligi" 3-bosqich talabasi

Soatmurodova Marjona Bahriddin qizi

soatmurodova@icloud.com

Ilmiy rahbar: Saksonova Sarvinoz Zuxriddin qizi

O'z DSMI FMF "Sahna nutqi va teatrshunoslik" kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada g'oya va oliy maqsadning uzviylikini ta'minlovchi badiiy omillar ilmiy tadqiq etilgan, soha mutaxassilarining fikrlari tahlil qilinib g'oya va oliy maqsadning badiiy uzviylikini ta'minlovchi ijodiy bosqichlar aniqlangan.*

Kalit so'zlar: *madaniy tadbir, bayram, tomosha, san'at, ssenariy, dramaturgiya, kompozitsiya, g'oya, oliy maqsad*

Abstract: *In this article, the artistic factors that ensure the unity of the idea and the highest goal in cultural events are scientifically researched, the opinions of industry experts are analyzed and the creative stages that ensure the artistic continuity of the idea and the highest goal are determined.*

Keywords: *cultural event, celebration, spectacle, art, screenplay, dramaturgy, composition, idea, higher purpose*

Inson ma'naviyatini yuksaltirmasdan turib, xalqimiz hayoti va turmushi yuksalishida, hamda mamlakatimiz taraqqiyotida muvaffaqiyatlarga erishish qiyin.

Yangi O'zbekistondagi madaniy islohotlar davrida ma'naviy-ahloqiy qadriyatlarning ahamiyati tobora o'sib borayotganligi ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashning eng dolzarb masala sifatida kun tartibiga qo'ymoqda.

2017-yil 3-avgust kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimiz ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashdi. Mazkur uchrashuvda muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev "Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish - xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir" mavzusida ma'ruza o'qidi. Shuni ishonch bilan aytish mumkinki, mamlakatimiz ijod ahli haqiqatan tarixiy voqea ishtirokchisi va guvohi bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ijodkor ziyolilar vakillari bilan uchrashuvi ishtirokchilarga yangidan yangi ijodiy muvaffaqiyatlarga

erishish uchun ilhom bag'ishladi. "Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug' ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va men ishonaman, nasib etsa, havas

qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san'atimiz ham albatta bo'ladi"- deb ta'kidlab, ijodkorlarga ham ishonch, ham mas'uliyat yukladi.

Bu holat zamonaviy ommaviy bayram va tomoshalarda, xususan madaniy tadbirlarda ham o'z aksini topmog'i, madaniy tadbirlarning g'oyasi va oliy maqsadi bevosita yuqorida qayd etilgan dolzarb masalalarga mos bo'lmog'i lozim.

Zamonaviy bayram va tomoshalar dramaturgiyasi va rejissurasini amalga oshirishda eng avvalo bayramning oliy maqsadini, g'oyasini aniqlash, inson ma'naviyatiga ta'sir yetuvchi badiiy omillarni mana shu maqsadga birlashtirish muhim jarayondir.

Oliy maqsad bu - ijodkorning o'z g'oyasini insonlar ongiga singdirishdan ko'zlagan muddaosidir. Oliy maqsad rejissyorning xususiy fikri, shaxsiy, obyektiv nuqtai nazari bo'lib, unda u o'z oldiga qo'ygan shaxsiy va jamiyatning ijobiy fikrlarini amalga oshirishga qaratiladi.

G'oya - bu asarda ilgari suriladigan asosiy fikr, ya'ni adabiy asarning butun mazmunidan, badiiy to'qmasidan kelib chiqadigan fikr. Agar muallif o'zi yozgan asari orqali nima demoqchi ekanligi to'g'risida gapirganda g'oya tushunchasini anglasak, oliy maqsad tushunchasi esa, men rejissyor, shu asarni sahnalashtirish orqali nima demoqchiman, nimaga erishmoqchiman va bunga qanday vositalar orqali yetishishim mumkin, degan savollarga javob berishi kerak.

Oliy maqsadning mavjudligi asarning bir butunligini, uning tuzilishida ham, personajlarning xatti-harakatlari, fikrlari, his-tuyg'ularida ham mustahkam mantiq mavjudligini belgilaydi. Dramatik asar, ssenariy mantiqi avvalo personajlarni xatti-harakati mantiqida namoyon bo'ladi.

Bu jarayonda rejissyor tafakkuri va fantaziyasi birlamchi bo'lib, dramaterg tomonidan berilgan shart-sharoitni badiiy vositalar orqali jonlantiradi va namoyish etadi. Dramaturgning sir tutgan oliy maqsadini ochish rejissyor uchun kerakmi va amaliy jihatdan bu, unga nima beradi? Rejissyor uchun muallif tomonidan asarda ilgari surilgan asosiy g'oyasini, mohiyatini, fikrini aniqlash muhimdir.

Asarning barcha komponentlarini birlashtiruvchi birdan-bir asos uning g'oyasi yoki K.S.Stanislavskiy aytganidek, oliy maqsadi - vazifasidir. Badiiy asarning g'oyasi va oliy maqsadi san'atda aks ettirilgan voqelikning va san'atkorning bu voqelikka munosabatlarida umumlashgan, uyg'unlashgan bo'lishi zarur. San'atdagi xalqchilik tasvirlanayotgan asardagi muayyan g'oyaviylik yagona maqsadga qaratilishi lozim.

Aktyor o'zini "taklif etilgan" shart-sharoitga olib kirish jarayoni nimadan iborat va u qanday sodir bo'ladi, degan savolga javob berish uchun avvalambor asarni ba'zi

jihatlarini ko'rib chiqishga to'g'ri keladi. Inson organizmi qo'l, oyoq, o'pka va yurakning arifmetik yig'indisidan iborat bo'lmaganidek, har qanday badiiy asar ham ijrochilarning bunday yig'indisidan iborat emas.

Badiiy asar personajlarning bir-biriga moslashgan faoliyati, o'zaro munosabati va birgalikdagi harakatidan iborat. Bu jihatdan badiiy asar organizmga o'xshaydi: unda alohida komponentlar oddiygina qo'shilmaydilar, balki bir-birlariga yordamlashib, uzviy bog'liq holda harakat qiladilar.

Oliy maqsadning mavjudligi asarning bir butunligini, uning tuzilishida ham, personajlarning xatti-harakatlari, fikrlari, his-tuyg'ularida ham mustahkam mantiq mavjudligini belgilaydi. Dramatik asar, ssenariy mantiqi avvalo personajlarni xatti-harakati mantiqida namoyon bo'ladi.

Rejissor pyesa ustida ishlash jarayonida asarning asosiy g'oyasini topa olishi lozim. Stanislavskiy o'gitlarida aytilishicha, "oliy maqsad bu ishtirokchining - asosiy maqsadidir", muallifning oliy maqsadi yaxshi asar yaratib, uni teatr sahnasida ko'rish bo'lishi mumkin.

Muallifning sir tutgan oliy maqsadini ochish rejissor uchun kerakmi va amaliy jihatdan bu, unga nima beradi? Rejissor uchun muallif tomonidan asarda ilgari surilgan asosiy g'oyasini, mohiyatini, fikrini aniqlash muhimdir.

Albatta rejissor birinchi navbatda asarning g'oyasini aniqlaydi. Topilgan g'oya rejissorning ijodi orqali oliy maqsadni vujudga keltiradi. Buning asosida shu g'oyani tomoshabinga yetkazib beradi. Asarning asosiy g'oyasidan oliy maqsad vujudga keladi. Rejissor uchun asosiy masalalardan biri shundaki: o'zining oliy maqsadini aniqlab olgach, tomoshabinning ongiga yetkazib berishning yo'llarini topib olishi lozim. Bunda u tomoshabin uchun dramaturg tomonidan surilgan asarning oliy maqsadi va asosiy g'oyasini, spektaklning oliy maqsadi va g'oyasi sifatida qabul qiladi.

«Oliy maqsad» va «yetakchi xatti-harakat»- hayotning asosiy mazmuni, pyesaning tomiridir. Oliy maqsad-xohish, yetakchi xatti-harakat esa - uni bajarishga intilishdir.

Ssenariy - bu bo'lg'usi tadbirni tayyorlash uchun asosiy badiiy manbadir. Ssenariyda tadbirning g'oyasi, oliy maqsadi, kompozitsion tuzilishi aks ettiriladi. Shuningdek, ssenariyda tadbir o'tkaziladigan joy (sahna, maydon)ning bezatilishi, qatnashchilar so'zlarining matnlari, badiiy va hujjatli materiallar, badiiy fon va fon guruhi tasviri, chiroqlar, sahnalashtirish rejasi va rejissorlik tahlili ham ko'rsatilib o'tiladi. Ssenariyning puxta bo'lishi bo'lajak tadbirning eng asosiy yutuqlaridan biridir. Ssenariyning bo'sh yozilishi esa

tadbirning mexanik qismlar umumlashmasiga, yagona syujetning buzilishiga, g'oyaviy mazmunning to'la yoritilmasligiga olib keladi. Shuning uchun ijodiy guruh a'zolari aynan shu kasbning mutaxassislari bo'lishi hamda ijodiy guruhda ahillik talab qiladi.

Ssenariy yaratishda bo'lajak tadbirlarning g'oyaviy - mavzu asosini chuqur o'ylamoq lozim. Eng muhimi shundaki, ssenariy asosida muhim ijtimoiy va mahalliy aholining hayotiga yaqin bo'lgan qiziqarli mavzu yotishi kerak. Shuni unutmash kerakki, ssenariy har doim ma'lum bir sana va muayyan aholi uchun mo'ljallanib yoziladi. Ssenariy yozayotganda mahalliy shart-sharoitlarni e'tiborga olish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Estrada va ommaviy tomoshalar dramaturgiyasini yaratishda mahalliy dalillar: arxiv hujjatlari, mahalliy tarixiy shaxslar va ularning ilmiy-ijodiy merosi, mahalliy yutuqlar (ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy va sport sohalaridagi yutuqlar), ommaviy axborot vositalarida berilgan dramatik obekt haqidagi ma'lumotlar asosiy manba sanalib, badiiy vositalar orqali sintezlanadi.

"Qiziqarli ma'lumotlar ummoni ro'parasida hovliqish va unga shaydo bo'lmaslik zarur. Bu, albatta, qiyin narsa, Ya'ni tayyor ma'lumotlar dengizida cho'kib ketmaslik uchun ssenariy yozuvchi bo'lajak tadbirning "qovurg'asini" ko'z oldida saqlashi, har doim uning oliy maqsadini esda tutishi zarur".

Madaniy ommaviy tadbirlarda g'oya va oliy maqsadning badiiy uzviyligini ta'minlashda rejissyor va dramaturg ijodiy hamkorlikda quyidagilarni amalga oshirishi lozim:

- tadbirning mavzusini aniq va lo'nda belgilash;
- tadbir mavzusidan kelib chiqib, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga mos tarzda g'oya belgilash;
- tadbir g'oyasining badiiy uzviyligini ta'minlash yuzasidan oliy maqsadni belgilash;
- tadbir g'oyasi va oliy maqsadi asosida mahalliy materiallarni yig'ish, tahlil qilish va saralash;
- tadbir dramaturgiyasini yaratish;
- tadbir rejissurasini amalga oshirish.

Xulosa sifatida shuni qayd etish lozimki, madaniy tadbirlarning asosi bu avvalo uning dramaturgiyasi, ya'ni ssenariysi bo'lsa, ssenariydagi birlamchi badiiy omil bu g'oya va oliy maqsadning aniq belgilanishidir. Shu sabab har qanday tadbir dramaturgiyasi yaratilishidan oldin g'oya va oliy maqsadning birlamchi hal qilinishi tadbirning badiiy saviyasini ta'minlaydi.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev SH.M. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish - xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir // O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi. Xalq so'zi. 2017-yil 4-avgust.
2. Ahmedov F.E. Ommaviy bayramlar rejissurasi asoslari. - Toshkent: Aloqachi, 2008. 424 b.
3. Dushamov J. Ommaviy tadbirlar rejissurasi. - Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2002. - 192 b.
4. Mamatqosimov J.A. Estrada va ommaviy tomoshalar rejissurasi. - Toshkent: Lesson press, 2019. - 272 b.
5. Qoraboyev U. Badiiy-ommaviy tadbirlar. - Toshkent: O'qituvchi, 1986. - 240

INTEGRATING AI IN FOREIGN LANGUAGE LEARNING AND AND TEACHING.

Akhmedova Sarvinoz Hikmatovna

PhD of English Linguistics Department, Bukhara State University

s.h.axmedova@buxdu.uz

Islomova Bahora Ne'matjonovna

1st year Student of Bukhara State University

Islomovabahora63@gmail.com

Abstract: *This article explores the integration of artificial intelligence (AI) in foreign language learning and teaching, highlighting its transformative potential. It discusses AI's capabilities, such as Natural Language Processing (NLP), voice recognition, and machine learning, which enhance language acquisition through personalized and adaptive learning experiences. The article also examines how AI supports teachers by automating tasks and providing data-driven insights to improve teaching strategies. Despite its benefits, challenges such as technological limitations, ethical concerns, and cultural nuances are addressed. Finally, the article looks at future prospects, suggesting that advancements in AI could further revolutionize language education, making it more engaging and accessible.*

Key words: *personalized, efficient, accessible learning experiences, holistic learning, AI-powered chatbots and virtual assistants, virtual classroom, future prospects of AI.*

INTRODUCTION

In recent years, artificial intelligence (AI) has revolutionized various sectors, including education. AI technologies have the potential to transform the way foreign languages are learned and taught, offering personalized, efficient, and accessible learning experiences. This article explores the integration of AI in foreign language learning and teaching, examining its benefits, challenges, and future prospects.

AI in Language Learning: AI Capabilities in Language Learning AI technologies such as Natural Language Processing (NLP), voice recognition, and machine learning algorithms play a crucial role in language learning. These tools can analyze speech, correct pronunciation, and provide instant feedback, enhancing the learning experience. AI-powered chatbots and virtual assistants, like Google Assistant and Siri, also help learners practice conversational skills in real-time. **Personalized Learning** One of the significant

advantages of AI in language learning is personalized education. AI systems can assess individual learners' strengths and weaknesses, tailoring lessons to their needs. Adaptive learning platforms, such as Duolingo and Babbel, use AI to customize exercises, ensuring that learners progress at their own pace. Current AI Tools Several AI-based language learning platforms have gained popularity. Duolingo employs AI to analyze user data and adapt lessons accordingly, while Rosetta Stone uses speech recognition to help learners with pronunciation. These platforms make language learning more interactive and engaging, increasing the likelihood of success.

AI in Language Teaching Assistance to Teachers: AI can assist teachers by automating repetitive tasks such as grading and providing feedback. This allows educators to focus on more creative and interactive aspects of teaching. AI tools can track students' progress, identify areas where they struggle, and suggest resources to help them improve. Utilizing AI Tools Teachers can integrate AI tools into their teaching methods to enhance the learning experience. For instance, AI-powered analytics can help educators understand students' learning patterns and adapt their teaching strategies. AI also facilitates collaborative learning through virtual classrooms and interactive sessions. Examples Platforms like Smart Sparrow and Century Tech use AI to support teachers in creating adaptive learning environments. These tools provide insights into student performance, enabling data driven decision-making in the classroom.

Technological Limitations: Despite its advantages, AI in language learning has limitations. AI systems may struggle with understanding context, idioms, and cultural nuances, which are essential components of language mastery. Moreover, AI's ability to replicate human-like interactions is still developing. Ethical and Privacy Issues The integration of AI in education raises ethical and privacy concerns. The collection and use of student data must be handled responsibly to ensure privacy and security. Transparency in how AI systems use data is crucial to building trust among users. Cultural Differences AI systems may not fully comprehend cultural differences, leading to potential misunderstandings in language learning. It is essential to incorporate cultural context into AI-driven language education to provide a holistic learning experience.

Future Prospects: The Future Role of AI As AI technologies continue to evolve, their role in language learning and teaching is expected to expand. Innovations such as AI tutors, immersive virtual reality environments, and real-time translation tools will further enhance language education.

Future AI-driven innovations could include advanced speech synthesis, more accurate translation services, and immersive experiences through augmented reality (AR) and virtual reality (VR). These advancements will make language learning more engaging and effective.

Conclusion: The integration of AI in foreign language learning and teaching offers numerous benefits, including personalized education, efficient teaching methods, and increased accessibility. While challenges such as technological limitations and ethical concerns exist, the future prospects of AI in language education are promising. By addressing these challenges, AI can play a pivotal role in transforming the way languages are taught and learned, making language education more inclusive and effective.

REFERENCES:

1. Brown, H. D. (2015). *Principles of Language Learning and Teaching*. Pearson Education.

2. Goodfellow, I., Bengio, Y., & Courville, A. (2016). *Deep Learning*. MIT Press. 3. Duolingo. (n.d.). *How We Use AI to Personalize Learning*. Retrieved from <https://www.duolingo.com>

4. Kaplan, A., & Haenlein, M. (2019). Siri, Siri, in My Hand: Who's the Fairest in the Land? On the Interpretations, Illustrations, and Implications of Artificial Intelligence. *Business Horizons*, 62(1), 15-25.

5. Chassignol, M., Khoroshavin, A., Klimova, A., & Bilyatdinova, A. (2018). *Artificial Intelligence Trends in Education: A Narrative Overview*. *Procedia Computer Science*, 136, 16-24.

6. Hakimovna, U. X. (2019). Lexico-semantic group of the verb "to break" in modern english. *Indonesian Journal of Innovation Studies*, 8.

7. Hakimovna, U. X. (2022). Linguacultural features of weddings in Uzbekistan and United Kingdom. *O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali*, 2(14), 111-117.

BILINGUALISM AND COGNITIVE DEVELOPMENT**Akhmedova Sarvinoz Hikmatovna***PhD of English Linguistics Department, Bukhara State University**s.h.axmedova@buxdu.uz***Mukhammadova Mehrangiz Mahmudovna***Student of the group 11-4ING-24, Bukhara State University*

Abstract: *This article discusses how bilingualism improves cognitive functions like memory and problem-solving, while also delaying dementia. It also covers challenges such as language delays and interference. The benefits depend on factors like age and proficiency, making bilingualism a valuable cognitive asset.*

Key words: *bilingualism, cognitive development, executive functions, memory, metalinguistic awareness, working memory, dementia, language acquisition, cognitive flexibility.*

Bilingualism, defined as the ability to use two or more languages fluently, has been widely studied for its impact on cognitive development. Research into bilingualism has uncovered various ways in which managing multiple languages influences cognitive functions, such as executive functions, memory, and problem-solving skills. This article delves into the cognitive benefits and challenges of bilingualism, highlighting its effects on brain development, lifelong learning, and mental health.

Cognitive Benefits of Bilingualism: Bilingualism offers a broad range of cognitive benefits that go beyond the simple ability to communicate in more than one language. One of the most prominent benefits is its influence on executive functions, which include skills like attention control, task-switching, and cognitive flexibility. These abilities are crucial for everyday problem-solving and multitasking. Research has shown that bilingual individuals tend to outperform monolinguals in tasks that require cognitive flexibility, as they regularly switch between languages based on context and interlocutor. This practice helps improve their ability to juggle multiple tasks or adapt quickly to changing circumstances (Bialystok, 2011).

In addition to enhancing executive functions, bilingualism contributes to metalinguistic awareness, the understanding of how language works. Bilingual children, for example, often outperform their monolingual peers in tasks that require analysis of language structure and manipulation of words. This

heightened awareness helps them learn additional languages more easily and improves their literacy skills (Bialystok et al., 2012).

Working memory, which is responsible for holding and manipulating information over short periods, also benefits from bilingualism. Bilingual individuals often show superior working memory capacity, which is essential for problem-solving, decision-making, and academic success. This advantage is particularly prominent in tasks that require the juggling of multiple pieces of information simultaneously (Morales et al., 2013).

Furthermore, bilingualism may offer long-term cognitive health benefits. Studies have suggested that bilingual individuals experience a delayed onset of dementia and Alzheimer's disease compared to monolinguals. This delay is believed to be linked to the increased neural connections and cognitive reserves created by constant bilingual language use (Alladi et al., 2013).

Challenges of Bilingualism. While bilingualism offers numerous cognitive advantages, it is not without its challenges. One concern often raised is the initial delay in language acquisition among bilingual children. Research has shown that bilingual children may initially have smaller vocabularies in each language compared to their monolingual peers. This is due to the fact that their exposure to each language is divided between two systems, leading to slower vocabulary development in each individual language. However, this delay typically diminishes as the child continues to develop proficiency in both languages, and by school age, bilingual children often catch up to their monolingual peers in language proficiency (De Houwer, 2009).

Another challenge of bilingualism is language interference, where one language may influence the other, resulting in errors in grammar, pronunciation, or vocabulary. For example, a bilingual child might use words from one language while speaking in another, leading to temporary confusion or errors in speech. Despite being seen as a drawback, language interference can be viewed as a natural consequence of the brain managing two linguistic systems and contributes to the overall cognitive flexibility of bilingual individuals.

Factors Influencing Cognitive Development in Bilinguals: The cognitive effects of bilingualism are not uniform across all individuals; several factors play a significant role in shaping these outcomes:

1. **Age of Acquisition:** Early exposure to a second language, especially during childhood, is crucial for maximizing cognitive benefits.

The brain's plasticity during these years allows for more efficient language learning and stronger cognitive development.

2. **Language Proficiency:** Higher proficiency in both languages correlates with more substantial cognitive advantages. Fluent bilinguals tend to show more significant benefits in cognitive flexibility, working memory, and problem-solving skills.

3. **Language Context:** The context in which languages are used also affects cognitive outcomes. Bilinguals who regularly use both languages in various contexts—whether at home, work, or in social settings—tend to experience more robust cognitive benefits.

4. **Cultural and Social Factors:** The social environment and positive attitudes toward both languages and cultures play a critical role in sustaining bilingualism. When bilingual individuals feel supported in using both languages, they are more likely to maintain fluency and reap the cognitive rewards of bilingualism.

Conclusion: Bilingualism provides a powerful cognitive advantage that extends beyond mere communication. From enhancing executive functions like attention and problem-solving to delaying cognitive decline in later life, the cognitive benefits of bilingualism are vast. While there are challenges, such as initial language delays and language interference, these are generally outweighed by the long-term cognitive gains. The impact of bilingualism on cognitive development is influenced by several factors, including the age of acquisition, language proficiency, and the social context in which both languages are used. In light of these findings, bilingualism should be viewed not only as a linguistic skill but as a valuable cognitive asset that enriches mental capabilities throughout life.

REFERENCES

1. Alladi, S., Bak, T. H., Duggirala, V., Surampudi, B., Shailaja, M., Shukla, A. K., ... & Kaul, S. (2013). Bilingualism delays age at onset of dementia, independent of education and immigration status. *Neurology*, 81(22), 1938-1944.

2. Bialystok, E. (2011). Reshaping the mind: The benefits of bilingualism. *Canadian Journal of Experimental Psychology*, 65(4), 229-235.

3. Bialystok, E., Luk, G., Peets, K. F., & Yang, S. (2012). Receptive vocabulary differences in monolingual and bilingual children. *Bilingualism: Language and Cognition*, 13(4), 525-531.

4. De Houwer, A. (2009). Bilingual first language acquisition. *Multilingual Matters*.

5. Morales, J., Calvo, A., & Bialystok, E. (2013). Working memory development in monolingual and bilingual children. *Journal of Experimental Child Psychology*, 114(2), 187-202.

6. Xakimovna, U. X. (2019). Lexico-semantic group of the verb “to break” in modern english. *Indonesian Journal of Innovation Studies*, 8.

7. Hakimovna, U. X. (2022). Linguacultural features of weddings in Uzbekistan and United Kingdom. *O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali*, 2(14), 111-117.

"O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI" AJDA MARKETING TIZIMINI RIVOJLANTIRISH

Rustamov Jahongir Ilhom o'g'li

"O'zbekiston temir yo'llari" AJ Boshqaruv raisi huzuridagi Kotibiyat boshlig'i o'rinbosari

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy ishda O'zbekiston Temir Yo'llari (O'zTT) aksiyadorlik jamiyati marketing tizimini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar keltirilgan. Ishda O'zTTning mavjud marketing strategiyalari tahlil qilinib, xizmatlar diversifikatsiyasi, raqamli texnologiyalarni joriy etish, brendni rivojlantirish va mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish yo'nalishlarida yangi yondashuvlar taklif etilgan. Shuningdek, marketing tizimini rivojlantirishda xalqaro hamkorliklar, maxsus aksiyalar va agentlik tarmoqlarini kengaytirish kabi strategik qadamlar muhokama qilingan. Ushbu ish O'zTTning transport va logistika bozorida raqobatbardoshligini oshirish hamda xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashga yo'naltirilgan.*

Kalit so'zlar: *O'zbekiston Temir Yo'llari, marketing tizimi, brendni rivojlantirish, xizmatlar diversifikatsiyasi, raqamli texnologiyalar, mijozlarga xizmat ko'rsatish, xalqaro hamkorlik, maxsus aksiyalar, agentlik tarmoqlari, raqobatbardoshlik, logistika, transport, marketing strategiyalari, xizmat ko'rsatish sifati.*

KIRISH

O'zbekiston Temir Yo'llari (O'zTT) aksiyadorlik jamiyati mamlakatning eng yirik transport tizimlaridan biri bo'lib, yirik logistika va transport xizmatlarini ko'rsatadi. O'zTTning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati katta, chunki u mamlakat ichidagi va tashqarisidagi yuk va yo'lovchi tashish bozorida muhim rol o'ynaydi. Bugungi kunda, global raqobat sharoitida, O'zTT marketing tizimini rivojlantirish va yangi strategiyalarni joriy etish zarurati yuzaga kelgan.

Ushbu ishda O'zTT marketing tizimini takomillashtirish bo'yicha asosiy yo'nalishlar va takliflar ishlab chiqilgan. Raqobatbardoshligini oshirish va mijozlarga yanada sifatli xizmatlar ko'rsatish maqsadida, marketing strategiyalarini rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarni joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Shu maqsadda, marketing tizimining barcha jihatlarini tahlil qilish, xizmatlar diversifikatsiyasini kuchaytirish, brendni rivojlantirish va mijozlar bilan aloqalarni mustahkamlash kabi masalalar muhokama qilinadi. Ushbu

tadqiqot O'zbekiston Temir Yo'llari aksiyadorlik jamiyatining kelajakdagi rivojlanishiga hissa qo'shishni maqsad qilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zbekiston Temir Yo'llari (O'zTT) marketing tizimi bo'yicha adabiyotlar tahlili, ushbu sohaning rivojlanishi va dolzarb muammolarini tushunish uchun zarur bo'lib, bu sohada olib borilgan tadqiqotlar, ilmiy maqolalar va amaliy tadqiqotlar asosida amalga oshiriladi. O'zbekiston va xalqaro miqyosda transport va logistika sohasida marketingning o'rnini va ahamiyati haqida ko'plab ilmiy ishlar mavjud.

Marketing sohasida mavjud adabiyotlar, brendni rivojlantirish va mijozlarga xizmat ko'rsatishning ahamiyati, raqamli texnologiyalardan foydalanish bo'yicha muhim tavsiyalarni o'z ichiga oladi. Xususan, Kotler va Keller (2016) tomonidan ta'kidlanganidek, marketing faqat mahsulot yoki xizmatni sotishdan iborat emas, balki mijozlar bilan uzoq muddatli munosabatlar o'rnatishdir. Bu yondashuv, O'zTT marketing tizimini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

O'zTT marketing tizimini rivojlantirishda raqobatbardoshlikni oshirish va bozorni chuqur tahlil qilish juda muhim. Bir qancha ilmiy tadqiqotlarda, masalan, Porter (1985) tomonidan ishlab chiqilgan "Raqobat kuchlari" modeli, transport va logistika sohasidagi korxonalar uchun raqobatbardoshlikni oshirish strategiyalarini belgilaydi. Bu modelda bozorning talab va taklifiga, narxlarning moslashuvchanligiga, va yangi texnologiyalarni joriy etishga urg'u beriladi.

Raqamli marketing sohasida o'rganilgan adabiyotlar, ayniqsa internet va mobil ilovalar orqali xizmatlar ko'rsatish, onlayn bronlash tizimlari va mijozlarga xizmat ko'rsatishning yangi usullari haqida ko'plab ma'lumotlarni taqdim etadi. Smith va Chaffey (2020) tomonidan o'rganilganidek, raqamli texnologiyalar va onlayn xizmatlar marketing tizimini qayta qurish va mijozlarni jalb qilishda samarali vosita sifatida ishlatiladi.

Xalqaro miqyosda temir yo'l transporti va logistika sohasidagi marketing strategiyalarini o'rganish, O'zbekiston Temir Yo'llari uchun ham foydali bo'lishi mumkin. Masalan, Yevropa va Osiyo davlatlarida temir yo'l tizimlarining marketing yondashuvlari, mijozlarga xizmat ko'rsatishning innovatsion usullari, va transport tarmoqlarini integratsiyalashning samaralari haqida ko'plab tadqiqotlar mavjud.

O'zbekistonning geosiyosiy joylashuvi va iqtisodiy sharoitlari, transport va logistika tizimining rivojlanishiga alohida ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston iqtisodiyoti va uning transport infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan.

davlat dasturlari, temir yo'l transportining ahamiyatini oshirish va bozorni kengaytirish imkoniyatlarini yaratmoqda.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zTT marketing tizimini rivojlantirish uchun innovatsiyalarni joriy etish, raqamli texnologiyalarni kengaytirish, mijozlarga xizmat ko'rsatishni yaxshilash va raqobatbardoshlikni oshirish kabi asosiy tamoyillarga asoslanish zarur. Ushbu strategiyalar O'zTTning kelajakdagi muvaffaqiyatli faoliyatiga hissa qo'shishi mumkin.

TADQIQOT NATIJALARI

O'zbekiston Temir Yo'llari (O'zTT) aksiyadorlik jamiyatining marketing tizimini rivojlantirish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar quyidagi asosiy natijalarni ko'rsatdi:

O'zTTning mavjud xizmatlarining diversifikatsiya qilinishi, ya'ni yangi yo'lovchi va yuk tashish xizmatlarini taklif etish, kompaniyaning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, O'zTTning mijozlarga taklif etayotgan xizmatlarini kengaytirish orqali, nafaqat yangi auditoriyani jalb qilish, balki mavjud mijozlar bilan munosabatlarni mustahkamlash mumkin.

O'zTTda raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha o'zgarishlar talab etiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli tizimlar, mobil ilovalar va onlayn bronlash tizimlari joriy etilganda, mijozlar uchun qulaylik yaratish va kompaniyaning xizmatlarini tezroq va samarali targ'ib qilish mumkin. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar yordamida O'zTT mijozlar bilan aloqani yaxshilashi va xizmat ko'rsatish sifatini oshirishi mumkin.

O'zTTning brendi mamlakatdagi transport tizimi uchun muhim o'rin tutadi, ammo uning taniqliligi va imijini yaxshilash zarur. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, brendni rivojlantirish orqali O'zTT mijozlar bilan yanada mustahkam aloqalar o'rnatishi mumkin. Bu uchun marketing va PR kampaniyalarini samarali o'tkazish, xizmatlar sifatini ta'kidlash va brendni xalqaro miqyosda targ'ib qilish zarur.

Tadqiqotlar natijasida, O'zTTning xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Xizmat ko'rsatishning yuqori darajasi mijozlarni jalb qilishda asosiy omil bo'lib, kompaniyaning xizmatlari va mijozlar bilan aloqalarni yaxshilashga imkon beradi. Mijozlarning fikr-mulohazalarini muntazam ravishda yig'ish va xizmatlarni shunga muvofiq takomillashtirish, kompaniyaning rivojlanishiga hissa qo'shadi.

O'zTT uchun yangi hamkorliklar o'rnatish va partnyorlik tarmog'ini kengaytirish orqali yangi bozorlar va mijozlarga xizmatlar ko'rsatish imkoniyatlari ochiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, xalqaro transport kompaniyalari bilan hamkorlik qilish, yangi logistika yo'nalishlarini ochish va

eksport-import operatsiyalarini rivojlantirish, kompaniyaning bozordagi o'rnini yanada mustahkamlashi mumkin.

Tadqiqotlar natijasida, O'zTTning marketing kommunikatsiyalarini kuchaytirish zarurati aniqlandi. Targ'ibot, reklama, PR va mijozlar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqalarni yanada rivojlantirish kompaniyaning brendini kuchaytirishga yordam beradi. O'zTT xizmatlarini taqdim etishda, ayniqsa, raqobatbardoshlikni oshirish va yangi mijozlar jalb qilishda marketing kommunikatsiyalarining roli katta.

“O'zbekiston temir yo'llari” AJning tashkiliy tuzilmasida bugungi kunda butunjahon iqtisodiy sharoitidagi rivojlantirishga qaratilgan strategik faoliyat qamrovida “transformatsiya ofisi”, “investitsiyalarni jalb qilish investitsion loyihalarni amalga oshirish”, “strategik rivojlantirish, sanoat faoliyatini tashkil etish va mehnat muhofazasi”, “personalni tayyorlash muassasi”, “tashishlarni tashkil qilish” bo'limi, boshqarmasi hamda markazlari temir yo'l transportida xizmat ko'rsatishning talofatlarini oldini olish yuzasidan tashkiliy tarkibda faoliyat olib boriladi, biroq hech qaysida risklarni boshqarish bilan bog'liq muvofiqlashtirish ishlab chiqilmagan. Shu nuqtai nazardan, boshqaruv raisining transformatsiya, raqamlashtirish va moliya bo'yicha birinchi o'rinbosari boshqaruviga qarashli “Iqtisodiy tahlil va prognozlash departamenti” tarkibida “Temir yo'l xizmatida risklarni boshqarish” mutaxassislarini jalb etish tavsiya etiladi. Bu o'z navbatida temir yo'l transportida risklarni boshqarish yuzasidan model ishlab chiqish taqozo etiladi.

O'zTT xizmatlarini ko'rsatuvchi boshqa kompaniyalar bilan solishtirganda, maxsus aksiyalar va chegirmalar tizimini joriy etish, mijozlarni jalb qilishning samarali vositasi sifatida qaraladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, vaqtinchalik chegirmalar va aksiyalar orqali mijozlarning soni oshadi va kompaniya raqobatbardoshligini kuchaytiradi.

Mazkur modelga ko'ra risklarni boshqarish yuzasidan menejmentning besh bosqichiga asosan “O'zbekiston temir yo'llari” AJ tashkiliy tarkibidagi mavjud bo'lim, boshqarma, muassasa hamda markazlarni o'zaro tizimlashtirish orqali risklarni baholash, ularni yumshatish, zaruratga qarab voz kechish yoki minimallashtirishdan tashqari insonlarni tashishda ko'rsatiladigan qo'shimcha xizmatlarning sifati hamda qulayligini oshirish maqsadida xizmat ko'rsatish, ta'minlash, shu bilan bir qatorda rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Rejalashtirish bosqichida asosan risklarning yuzaga kelishi, shuningdek ehtimoliga ko'ra baholashni muntazam olib borishni yo'lga qo'yish uchun dasavval ma'lumotlarning saralanishi, ularning tegishli funksional tasnifiga ajratilishi natijasida rejalashtirish bilan bog'liq asosiy tarkiblar asosida bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Biroq, mazkur holatda asosiy ish tashkiliy tarkibda

mutaxassislarining jalb etilishi va aynan shu masala yuzasidan ishlarning tashkiliy-iqtisodiy faoliyatini olib borishi muhim ahamiyatga ega.

Tashkil etish bosqichi yuzasidan xizmatlarni yo'lga qo'yish maqsadida risklarni bartaraf etishga qaratilgan chora-atadbirlarni inobatga olish bilan bog'liq holat nazarda tutiladi.

Muqobillashtirish bosqichida risklarni inobatga olish yuzasidan amalda qo'llanilgan chora-tadbirlarning natijaviyligiga qarab qilib faoliyatdagi e'tibor qaratish lozim bo'lgan jihatlarni qayta tahlil qilish imkonini beradi.

Xulosa: O'zTT marketing tizimini rivojlantirish uchun yuqoridagi natijalar asosida bir qator strategiyalarni amalga oshirish zarur. Xizmatlar diversifikatsiyasi, raqamli texnologiyalarni joriy etish, brendni rivojlantirish, mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish va hamkorliklarni rivojlantirish kabi yo'nalishlar O'zTTning bozor raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi. Ushbu tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan marketing strategiyalari kompaniyaning kelajakdagi muvaffaqiyatiga hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Fazliddinovich R. G. Some disadvantages of the architectural design of residential buildings and their solutions //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 4. – C. 411-416.

2. Raxmonov G.I. Temir yo'l transportida xizmat ko'rsatish jarayonini rivojlantirishning retseptiv tahlili. "YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT" ijtimoiy, iqtisodiy ilmiy ommabop jurnal, 2024-yil, may. № 5-son, 557-562

3. Shokirovna B. Z., Xurram o'g'li X. S. INNOVATIVE FOUNDATIONS OF A UNIFIED ECONOMY IN THE FIELD OF RELIGIOUS EDUCATION

//Western European Journal of Modern Experiments and Scientific Methods. – 2024. – T. 2. – №. 5. – C. 110-113.

4. Shokirovna B. Z., Muxayyo Y., Xurram o'g'li X. S. TOPIC: DIRECTIONS FOR THE DEVELOPMENT OF INNOVATIVE ENTREPRENEURIAL ACTIVITY IN UZBEKISTAN //Scientific Impulse. – 2023. – T. 2. – №. 16. – C. 42-45.

5. Shokirovna B. Z., Xurram o'g'li X. S. INNOVATIVE FOUNDATIONS OF A UNIFIED ECONOMY IN THE FIELD OF RELIGIOUS EDUCATION

//Western European Journal of Modern Experiments and Scientific Methods. – 2024. – T. 2. – №. 5. – C. 110-113.

JAHON TAJRIBASIDA FAKTCHEKING

Abdurashidova Nilufar Shuhrat qizi

*O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalari universiteti
Jurnalistika yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Faktcheking faqat jurnalistik surishtiruvda emas balki jurnalist faoliyatining barcha jabhalarida muhimdir. Bu haqiqat deb qaralayotgan axborot va fakt o'rtasidagi nomuvofiqlikni aniqlash hisoblanadi. Faktcheking yangilik e'lon qilinishidan oldingi yoki keyingi tekshiruv bo'lish mumkin. Odatda, maqolani nashr qilishdan oldin faktoidlar, noaniqliklar, xatolar matndan chiqariladi. Bu sud jarayonlari va tahririyatni obro'sizlantirish kabi jiddiy muammolardan qochishga yordam beradi.*

Kalit so'zlar: *Faktcheking, journalist, muharrir, nashr, fakt.*

Faktcheking odatda jurnalist va muharrir tomonidan amalga oshiriladi, ammo ba'zi ommaviy axborot vositalarida doimiy faktcheker lavozimi mavjud. Nufuzli nashrlarda faktchekerlarga oddiy texnik deb emas, aksincha ishi yuqori professionalizm talab qiladigan mutaxassis deb qaraladi, kelajakda ularning aksariyati muxbir yoki to'liq muharrirga aylanadi. Professional bo'lmagan jurnalistlarning maqolalari, ayniqsa o'quvchilar yoki uchinchi tomon mutaxassislari tarafidan yuborilgan materiallar, shuningdek ba'zi siyosiy bayonotlar maxsus tekshiruvni talab qiladi. Jurnalistlar uchun faktlarni tekshirishda quyidagi tavsiyalar mavjud:

1) Matbuot anjumanlarida spikerning ismini to'g'ri yozganingizga ishonch hosil qilganingizdan so'ng, uning rasmiy lavozimi, jamoat tashkilotlariga a'zoli va boshqa unvonlarini so'rang. Suhbatdan so'ng, ma'ruzachidan iloji boricha mobil va ish telefoni, elektron pochta, ijtimoiy tarmoqlardagi akkauntlari kabi aloqalarni olishingizga ishonch hosil qiling.

2) Hech qachon manba xatosini bahona sifatida ishlatmang. Agar manba sizga ma'lumot bersa undan ma'lumotni qaerdan olganligi haqida so'rang.

3) Sizga aytilgan ma'lumotlarni tasdiqlashi, rad etishi yoki to'ldirishi mumkin bo'lgan rasmiy ma'lumotlar, hisobotlar va yozuvlarni toping. Fotosuratlar va videolar ba'zi tafsilotlarni tasdiqlashga yordam beradi.

4) Agar sizning qaydlaringizda siz to'liq tushunmagan yoki shubhangiz bo'lgan biron bir narsa bo'lsa, ma'ruzachiga yana qo'ng'iroq qilishdan tortinmang.

5) Hamma narsani to'g'ri tushunganingizga va o'quvchini chalg'itmasligingizga ishonch hosil qilish uchun materialni faktcheker mutaxassisga ko'rsating.

6) Agar siz onlayn ommaviy axborot vositalarida ishlasangiz materialni saytga joylashtirganingizdan so'ng, o'quvchilarni sizga maqoladagi noaniqliklar va xatolar haqida ochiq xabar berishga taklif qiling. E'tiborli o'quvchiga minnatdorchilik bildirish orqali xatoni tuzatish oson.

Axborot iste'molchilari har kuni juda ko'p miqdordagi turli xil ma'lumotlarga duch kelishadi. Axborot jamiyati sharoitida katta miqdordagi ma'lumotlarning mavjudligi bilan ko'plab xavflar yuzaga kelishi mumkin. Bugun haqiqatan ham ma'lumotlarni boshqarish, olish va qayta ishlash tobora qiyinlashib bormoqda. Axborotdan ma'rifat uchun ham, inson ongi va xatti-harakatlarini boshqarish uchun ham foydalanish mumkin. Axborotni uzatish va qabul qilish usullari va manbalarining evolyutsiyasi "fake news", "clip thinking" va "factchecking" kabi atamalarning paydo bo'lishiga olib keldi. Zamonaviy media imkoniyatlarining yon ta'siri va manfaatdor tomonlarning ma'lumotni idrok etishidagi sezilarli o'zgarishlar tufayli ishonchsiz yangiliklar paydo bo'ldi. Shuni ta'kidlash kerakki, faktlarni tekshirish zamonaviy jurnalistikaning muhim ajralmas vositasidir. Boshqa tomondan, jamiyatning ishonchli ma'lumotni haqiqiy bo'lmagan ma'lumotlardan ajrata olmasligi yoki buni istamasligi kabi muammo ham mavjud. Jahon tajribasiga ko'ra axborot iste'molchilarining 50 foizdan ortig'i noto'g'ri ma'lumotni ajrata olmaydi. Xususan, foydalanuvchilarning 23 foizi ma'lumotning ishonchsizligini bilsa ham uni qasddan tarqatadi. Ayniqsa, bu holat dunyodagi siyosiy-ijtimoiy ahamiyatga ega voqealar fonida ko'proq yuz beradi. Populizm va manipulyatsiya, shuningdek soxta faktlar bilan yashiringan noto'g'ri ma'lumotlar siyosiy qarorlarni jamoatchilik ongiga kiritishning asosiy usullari hisoblanadi. Mustaqillik, obyektivlik, xolislik, aniqlik kabi axloqiy tamoyillarga rioya qilish orqali auditoriyaning ishonchi paydo bo'ladi va ommaviy axborot vositalarining obro'si shakllanadi. Faktcheckingning asosiy qoidalari quyidagilar:

1. Birlamchi manbani qidirish yoki bir nechta mustaqil manbalardan ma'lumotlarni tasdiqlash. Asosiy manbaga erishish jiddiy va mas'uliyatli jurnalist uchun professional talabdir. Manba - bu asl bayonot yoki harakat kelib chiqadigan shaxs. Shuningdek, manba voqealarda ishtirok etgan (guvoh) yoki asl manba bilan yaqin tanish bo'lgan shaxs bo'lishi mumkin. Turli manbalardan olingan ma'lumotlarni tekshirish, mavzu bo'yicha mutaxassislar va odamlarning sharhlarini olish hech qachon ortiqcha bo'lmaydi. Ammo

o'quvchilar tomonidan konteksni yaxshiroq tushunish uchun manbani sharhdan ajratish kerak.

2. Qarama-qarshi tomonning fikri. Birinchi qoidaning mantiqiy davomi quyidagicha: qancha manbalar bilan suhbatlashishingizdan qat'iy nazar, agar ularning barchasi bitta pozitsiyaga rioya qilsalar, unda material obyektivlikni yo'qotadi. Tarafdorlar bo'lgan respondentlar soni aslida sifat va obyektivlik uchun ishlamaydi. Har qanday vaziyatda kamida ikki tomon, ikkita qutb mavjud. Hech bo'lmaganda voqeaga jalb qilingan barcha ishtirokchilar va manfaatdor tomonlar bilan bog'lanishga harakat qilish kerak. Ko'pincha jurnalistlar zerikarli bayonotlardan qutqaradigan ushbu asosiy prinsipni e'tiborsiz qoldiradilar.

3. Soxta narsalarni tanib olish qobiliyati. Faktcheker uchun zarur bo'lgan mahorat soxta narsalarni tanib olishni o'rganishdir. Bu birinchi qarashda ko'rinadigan darajada oson emas. Soxta ma'lumotlarni barcha ongli soxta narsalar va simulyatsiyalar sifatida tushunilishi kerak. Bunga matn terish xatolari va texnik xatolardagi beparvoliklar ham kiradi. Ommaviy tus berilganda yolg'on haqiqatga aylanadi. Shuning uchun odamlarning ismlari, kasblari va unvonlarining imlosini tekshirish, sanalar, ismlar, manzillar va boshqalarni tekshirish juda muhimdir. Soxta yangiliklarni tanib olish uchun tanqidiy fikrlash va texnik ko'nikmalarga ega bo'lish kerak.

4. Faktlarning aniqligi samaradorlikdan ko'ra muhimroqdir. Tuyg'ular faktchekerning xavfli dushmanidir. Jurnalistning ishida ko'pincha "sensatsiyalar" haqida gap ketganda, umumiy kayfiyatga berilish va keraksiz axborotni haqiqat sifatida berish vasvasasi mavjud. Ba'zi ommaviy axborot vositalari faktoidlarni chiqarishdan manfaatdor, chunki ular tomoshabinlar orasida mashhurdir. Bu yerda ko'pincha yolg'onni nashr etish xavfi mavjud.

5. Ijtimoiy tarmoqlardan manbalar sifatida "toza" foydalanish. Ijtimoiy tarmoqlar bir vaqtning o'zida jurnalistlar va muharrirlarning ishini osonlashtiradi va murakkablashtiradi. Ideal holda, ularda topilgan har bir fakt uchun siz kamida ikki yoki uchta tasdiqni topishingiz kerak. Internet va ijtimoiy tarmoqlar tufayli voqea ishtirokchilarining qarindoshlari va do'stlari bilan bog'lanishingiz, hamkasblari va tanishlari bilan suhbatlashishingiz mumkin.

Jahon tajribasiga nazar tashlasak, AQSh da 2015-yilda xalqaro faktlarni tekshirish tarmog'i "IFCN" tashkil etilgan. Tashkilot butun dunyo bo'ylab faktlarni tekshirish bo'yicha mutaxassislarni birlashtiradi. Ushbu jarayonda Germaniya, Turkiya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya kabi dunyoning 19

mamlakati

vakillari


ishtirok

etadi.




Rossiya federatsiyasi Milliy markazining ijrochi direktori, xavfsiz Internet Ligasi direktori Yekaterina Mizulinaning “Soxta xabarlarini tarqatish muammosi haqiqatan ham butun dunyo boʻylab dolzarbdir. Sababi, ular bir kun ichida hatto butun mamlakatni qamrab olishlari mumkin, bu esa fuqarolarning jismoniy yoki ruhiy salomatligiga xavf tugʻdiradi”, degan fikrlarida jon bor.

Hozirda koʻpchilik davlatlarda feyk xabarlarini aniqlovchi faktcheking saytlari faoliyat olib bormoqda. Shuningdek, www.factcheck.org sayti ham mavjud.



Onlayn platformalar ham soxta xabarlariga qarshi kurash eʼlon qilgan. Facebook ijtimoiy tarmogʻi soxta maʼlumotlarni aniqlash va ularning takrorlanishini cheklashga yordam beradigan faktik tekshirish algoritmlaridan foydalanadi. Facebookda shubhali maʼlumotlarni tekshirish ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilaridan shikoyat olgandan yoki moderatorlar tomonidan muammoli xabarni mustaqil ravishda aniqlagandan soʻng boshlanadi. Shundan soʻng, ijtimoiy tarmoq tasdiqlangan postlarga foydalanuvchilar qoʻshimcha kontekst olishlari mumkin boʻlgan yorliqni joylashtiradi. Google ham faktlarni tekshirish boʻyicha mutaxassislar, jurnalistlar va tadqiqotchilarning ishini yengillashtirish uchun moʻljallangan – Fact Check Explorer vositasiga ega.

Tizim tomonidan tekshirilgan ma'lumotlarda faktcheking belgisi paydo bo'ladi.



Yandex.ru da ham faktlarni tekshirish dasturi mavjud. Nashr bir nechta faktlarni tekshiruvchilarga tasodifiy tartibda yuboriladi. Bitta materialni tekshirish uchun to'rt soatdan sakkiz soatgacha vaqt ajratiladi. Bu vaqt ichida u umumiy tavsiyalar lentasida ko'rinmaydi va faqat to'g'ridan-to'g'ri havola orqali mavjud bo'ladi.

Faktcheking - tushunchasi an'anaviy jurnalistikaga yangi media vositalari bilan birga kirdi. Fakt - bu ishonchli dalillar bilan tasdiqlangan axborot. Turli odamlar bir xil voqeaga boshqacha qarashlari mumkin, ammo biz faktlar bilan bahslasha olmaymiz. Shuning uchun fakt nafaqat aniqlanishi, balki ikki marta tekshirilishi kerak. Faktlarni buzish obyektivlik va aniqlikka qarshi jinoyatdir. Zamonaviy raqamli mediada "faktoid" tushunchasi ham tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Bu dastlab mavjud bo'lmagan haqiqat bo'lib, u ommaviy axborot vositalarida nashr etilgach, jonli reaksiya va bahoga ega bo'ladi. Ko'pchilik odamlar avtomatizm va stereotiplarga rioya qilib, mohiyatni tanqidiy qabul qilmasdan aksincha yuzaki shaklga ishonadilar. Targ'ibotchilar, kiberjinoyatchilar, tarmoq trollari va barcha yo'nalishdagi boshqa manipulyatorlar tomonidan tasdiqlanmagan faktlar, sohta xabarlar ehtiyotkorlik bilan dolzarb yangilik shakliga kiritiladi. Faktchekerning asosiy quroli shubha, professional ishonchsizlik va haqiqatning kuchini tekshirishdir. Bu yerda faktcheking mantig'i va vositalari asosan ilmiy ishlarning metodologiyasi va texnologiyalariga to'g'ri keladi. Bundan tashqari, tarixchilar uchun ixtisoslashgan manbashunoslik kursi jurnalistning manbalar bilan ishlash sifatini oshirishi mumkin. Afsuski, ommaviy kommunikatsiyalar sohasida ishlaydiganlar ko'pincha faktchekingning kuchidan qanday foydalanishni bilmaydilar.

Faktchekingning xususiyatini tushunib olish uchun uning yaratilish jarayonini ko'rib chiqish kerak. Jurnalistikaning shakllanishi tarixiy jihatdan shu bilan xarakterlanadiki, yangilik asta-sekinlik bilan siyosiy janglarni yuritish asosi sifatida ko'rila boshlandi, axborot qimmatli tovarga aylana bordi. Uning qiymati reportyorning o'z shaxsiy kuzatuvlari va qarama-qarshi

tomonlarning ko'rsatmalari asosida xabar berishi natijasida orta bordi. Shunday qilib, jurnalistlarning faktlarni turli uydirma va mish-mishlardan ajratib olib bilishi natijasida jurnalist faoliyatiga nisbatan ishonchli reputatsiya shakllana bordi. Bu faoliyat foyda keltira boshlagan va natijada ilk axborot agentliklari tashkil qilingan: Amerikadagi "Associated Press" (1846), Angliyaning "Reuters" (1851) va Fransiyaning "Havas" agentligi (1835) shular jumlasidandir. Agentlik asoschilarining tasdiqlashicha, istalgan siyosiy tarafdashlik natijasida potensial auditoriya torayishi mumkin. Axborotni aniq va xolis uzatishga bo'lgan intilish Amerikada XIX asr oxiri — XX asr boshlarida jurnalist surishtiruvini boshlab bergan "axlat tituvchilar" (muckrackers) harakatini vujudga keltirdi. Sifatli media doirasida jurnalist surishtiruvining rivojlanishi natijasida soha professionallari o'rtasida xalqaro va milliy etika standartlari paydo bo'la boshladi. Standartlar etika qoidalari kabi jurnalistlar uchun tavsiya sifatida xarakterlanadi. Xolislik va betaraflikka intilish jurnalist xatolari va noaniqliklarini ko'rsatib beruvchi ombudsmanlar institutini shakllantirdi. O'quvchilarning ishonchli axborot olish borasidagi huquqlarini himoya qilish fikri ilk bor Yaponiyada paydo bo'lgan. Ombudsman bu — tahririyat majburiyatlari va auditoriya tomonidan kutilgan natijalar o'rtasidagi vositachi bo'lib, o'zaro ta'sirda so'nggi hal qiluvchi hisoblanadi. Faktcheking jurnalist surishtiruvi va ombudsmanlik faoliyati doirasidagi tajribaning ortishi natijasida paydo bo'ldi. Hozirda faktcheking "xatolar ustida ishlash" dan ko'ra jurnalistik faoliyatning keng spektri bo'ylab ishlay boshladi. Auditoriyaning yangi axborotga bo'lgan ehtiyojini qondirish verifikatsiya — tarqatilgan axborotning ishonchliligini tasdiqlash yoki unga raddiya berish orqali uni tekshirish jarayonining rivojlanishiga sabab bo'lmoqda. Bu sohaga ixtisoslashgan jurnalist va ekspertlar faktchekerlar deb atalmoqda. Qoidaga ko'ra, faktchekerlar turli tashkilot va jamoatchilikning ko'p sonli tasdig'i orqali tekshirish o'tkazadi. Bizning fikrimizcha, faktlarni xolisona va mustaqil ravishda tekshirish jurnalistikaning eng kuchli instrumentlaridan hisoblanadi. Faktlarni tekshirishda xolis bo'lmagan va aniq manbaga asoslanmaganlarini berish OAV va ekspertlarga bo'lgan ishonchsizlikni orttiradi. Birinchi axborot manbasi va ekspertlarni o'z ichiga olgan faktlarni tekshirishning standart ko'rinishida tayyor materialni tasdiqlash yoki unga raddiya berishdagi tahrir qilishning 3 muhim bosqichi ajratib ko'rsatiladi:

- kontekstga moslikni tekshirish;
- uslub va grammatikani tekshirish;
- ishonchlilik darajasini tekshirish va keltirilgan faktlarni dalillash.

Faktchekerlar muammosi haqida gapirganda, shuni ta'kidlash kerakki, ular allaqachon "zararlangan" axborot oqimi izlari bo'ylab ishlaydi, feyklarining

o'shkor qilinishi dezinformatsiya asosida paydo bo'lgan tushunchalarni o'zgartirishga qodir emas. Bu xulosa "Psychological Science" nashri tomonidan "dezinformatsiyani rad qiluvchi psixologik meta-analiz" nomi ostida chop qilingan ilmiy tadqiqot natijasiga asoslangan. Qiyinchilik tug'diradigan jihati shundaki, onlayn ravishda tarqalgan feyklarni to'g'rilash yetarli emasdek ko'rinadi, sababi auditoriya aynan to'g'rilangan, haqiqiy axborotga ishonishi qiyinlashadi. "The Guardian" gazetasining sotsial va yangi medialar muharriri Martin Belamning qayd etishicha, "bu ahmoqlikka chek qo'yish uchun faktcheking o'z-o'zi uchun yetarli emas, biz haqiqatni tarqatishda qaysi yo'l samarali ekanini hal qilib olishimiz darkor". Feyklar aksariyat hollarda internetda paydo bo'ladi. Internet axborotni qayta va qayta tekshirish vazifasiga ega bo'lmagan "havaskor" OAV uchun "qulay" muhitga aylandi. "Observer" ("The Guardian"ning yakshanbalik nashri) ning muharriri Stefan Pritchardning fikricha, o'zini hurmat qilgan nashr doimo faktik xatolarini raddiya berish yoki tuzatish kiritish yo'li bilan to'g'rilaydi, sifatli nashrlardan farqli o'laroq, havaskor nashrlar esa tarqatilgan yolg'on va to'g'rilanmagan materiallarning tepasiga havolalarga asoslangan tuzatish kiritadi. Havaskor mass-media an'anaviy OAVga nisbatan shakllangan ishonchsizlik natijasida media bozorida o'z qarashlarini manipulyatsiya vositasida yoyib, xatti-harakatlarini shu yo'l bilan qonuniylashtirishga harakat qiladi. Xatolar va falsifikatsiyadan oqlanish maqsadida o'z raqiblariga mas'uliyatni yuklash prinsipidan foydalanadi: "eng yaxshi himoya usuli — hujum" qabilida ish ko'radi. Lekin, turli ekspertlarning baholashicha, havaskor OAV ixtisoslashgan va o'z qarashlarini aniq bayon qiluvchi bloglar kabi tanilmaydi. Professional jurnalistlarning bezovtalanishiga yana bir sabab bu — churnalizm (ingliz tilidagi churnout — qoliplamoq so'zidan olingan). Bu atama "BBC" jurnalisti Vadim Zakirning 2008-yilda yangiliklar axborot agentliklari va PR-bo'limlar tomonidan "qadoqlangan" matnlar orasidan mexanik tarzda saralab olish natijasida paydo bo'lgan jurnalistikaning yangi shakliga nisbatan ishlatishi natijasida kundalik hayotga kirib keldi. Bu atama Kardiff universiteti tadqiqotidagi jarayonda o'z aksini topgan edi: mazkur qolip asosida britan yangiliklarining 80 foizi yaratilgan bo'lsa, 12 foiz matngina reportyorlar tomonidan yozilgan edi. 2013-yilning aprelida ochiqlik va shaffolikni himoya qiluvchi "The Sunlight Foundation" notijorat tashkiloti "Media Standards Trust" bilan hamkorlikda churnalism.com saytini ishga tushirdi, bu sayt "qoliplangan" jurnalistik materiallarni aniqlashtirar edi. Feyk yangiliklar va alternativ faktlarga qarshi tushuncha sifatida britaniyalik media tadqiqotchisi va jurnalistika professori Brayen Mak-Neyr "zamonaviy xolislik" (media objectivity) atamasini qo'llashni taklif qildi. Fakt va fikrlarni aniq chegaralash

uchun manbalarni tekshirish, ma'lumotlarni verifikatsiyalashdan tashqari jurnalist ishi o'z fikrlarini tahlil qila bilishi uchun ochiq bo'lishi kerak, ana shunda u shaffoflikka erishadi: axborot bilan ishlash chegarasini ham aniqlashtirish kerak. Olimlar fikricha, raqamlashtirilgan davrda ommaviy muhitning globalizatsiyasi haqida gap ketganda xolislik tushunchasiga berilgan ta'rifni qaytadan ko'rib chiqish kerak. Demokratik jarayonlarni qo'llab-quvvatlovchi jamoatchilik muhokamasi doirasi hozirgi kunda internetning "madaniy xaos" ini yengib o'tishi kerak. Xolislikning an'anaviy izohlanishiga qarama-qarshi holda, olimlar kvazijurnalistikaning turli shakllarining ko'payish holatini keltiradilar. Jurnalistikaning bu ko'rinishi nafaqat professional jurnalistlar, balki internet foydalanuvchilar hamda internetda reklama beruvchilar uchun ham raqobatni anglatadi. Jurnalistik faoliyatda feyklarni belgilash va fosh qilishdagi texnik yangilikka muhim qo'shimcha sifatida turli mamlakatlarda joriy qilingan boshlang'ich, o'rta va oliy ta'limdagi mediasavodxonlik loyihalarini keltirish mumkin. "Full fact" nashrining ta'kidlashicha, butun dunyodagi faktchekerlar IFCN doirasida 13 tilda 9–11 va 14–16 yoshdagi maktab o'quvchilari uchun dars rejalarini ishlab chiqqanlar. Oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun bo'lsa, feyk yangiliklar va loyihalarni identifikatsiyalash bo'yicha "Lib Guiede" qo'llanmasi tayyorlandi. Bundan tashqari, Amerikaning kutubxonachilik assotsiatsiyasi mintaqaviy kutubxonalar bilan hamkorlikda "News Know How" nomli dasturni ishlab chiqqan bo'lib, u yoshlarga mass-medianing "ongli iste'molchilari" bo'lishlari, propagandani fosh qilish va feyklarni tekshirishda yordam beradi. Shunday qilib, faktlarni tekshirish jurnalist ishining qonunchilik bosqichidan alohida faoliyat turi sifatida ajralib chiqa boshladi. Bu xalqaro miqyosda faktcheking ya'ni faktlarni ularning realligi bilan mos kelishini tekshirish nomi bilan ataladi. Xalqaro miqyosdagi mediasavodxonlik bo'yicha loyihalar esa mass-medianing "ongli iste'molchilari" ni shakllantirishga, feyk yangiliklarni mustaqil ravishda ajratib olish ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nozima Muratova, Nargis Qosimova, Gulnoza Alimova, A'zam Dadaxonov, Azizaxon Ilyosxonova, Sitora Xolmatova, Nigina Xakimova: Jurnalistika "Onlayn jurnalistika va mediada yangi trendlar" –T.: O'zbekiston, 2019.
2. Nesterenko F.P., Irnazarov K.T., Mamatova Y.M. Lug'at ma'lumotnoma: jurnalistika, reklama, pablik rileyshnz. - T., Zar qalam, 2003.

3. N.S.Qosimova. Internet jurnalistikaning texnologik asoslari [qo`llanma], Toshkent, 2010.
4. Muratova Nozima. Online jurnalistika: nazariya va amaliyot [Matn] : o`quv qo`llanma / N.Muratova.- Toshkent: Qaqnus media, 2019.
5. Кудратхужаев Шерзодхон Тождидинович. Интернет: тарихи, тузилиши, хавфсизлик масалалари. Услужий қўлланма. – Т.: © Чинор НК. 2010.

O'ZBEKISTON TA'LIM TIZMIDA INGLIZ TILINI O'RGANISHDAGI MUOMMO VA YECHIMLAR

Akbarov Alijon Ikrom o'g'li,

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti,

2-kurs talabasi.

Ilmiy rahbar: Madiyeva Madina Yusupovna,

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti,

Xorijiy til va adabiyoti kafedrasi katta o'qituvchisi (PhD),

Telefon: +998 93-794-50-00

E-mail: madinayusupovna1984@gmail.com

Annotatsiya: *O'zbekistonda ingliz tilini o'rganish jarayoni zamonaviy dunyoda muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda ingliz tili global muloqot tili sifatida tanilgan va ko'plab sohalarda, jumladan, ta'lim, biznes, ilm-fan va madaniyatda keng qo'llaniladi. O'zbekistonning ta'lim tizimida ingliz tilini o'rganish jarayoni ko'plab o'quvchilar va o'qituvchilar uchun qiziqarli va muhim bo'lsa-da, bu jarayonda bir qator qiyinchiliklar va to'siqlar mavjud. Ushbu maqolada ingliz tilini o'rganish jarayonida uchraydigan muammolar va ularni hal etish yo'llari haqida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *ingliz tili, pedagogik texnologiyalar, ta'lim sifati, darsliklar, o'quv dasturlari, muammolar, yechimlar.*

ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ В ИЗУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация: *Процесс изучения английского языка в Узбекистане важен в современном мире. Сегодня английский признан языком глобального общения и широко используется во многих сферах, включая образование, бизнес, науку и культуру. Хотя процесс изучения английского языка в системе образования Узбекистана интересен и важен для многих студентов и преподавателей, в этом процессе существует ряд сложностей и препятствий. В данной статье рассказывается о проблемах, возникающих в процессе изучения английского языка, и путях их решения.*

Ключевые слова: *английский язык, педагогические технологии, качество образования, учебники, учебные программы, проблемы, пути решения.*

PROBLEMS AND SOLUTIONS IN LEARNING ENGLISH IN THE UZBEKISTAN EDUCATION SYSTEM

Abstract: *The process of learning English in Uzbekistan is important in the modern world. Today, English is recognized as the language of global communication and is widely used in many fields, including education, business, science and culture. Although the process of learning English in the educational system of Uzbekistan is interesting and important for many students and teachers, there are a number of difficulties and obstacles in this process. This article analysis problems encountered in the process of learning English and ways to solve them.*

Key words: *English language, pedagogical technologies, quality of education, textbooks, curricula, problems, solutions.*

KIRISH

Ingliz tilini o'rganish jarayoni ko'plab o'quvchilar uchun qiyin va murakkab ko'rinishi mumkin. Buning sababi, ko'plab o'quvchilar ingliz tilini o'rganish jarayonida an'anaviy ta'lim usullariga tayanadilar. O'qituvchilar ko'pincha gramatikani yodlash, tarjima qilish va darsliklardan foydalanishga e'tibor qaratadilar. Bu usullar o'quvchilarning tilni o'zlashtirish jarayonini sekinlashtiradi va ularning qiziqishini pasaytiradi. Zamonaviy ta'lim metodologiyalarini joriy etish, jumladan, kommunikativ yondashuvlar va interaktiv darslar o'quvchilarning qiziqishini oshirishda muhim ahamiyatga ega. O'qituvchilarni zamonaviy pedagogik metodlar bilan tanishtirish va ularni tayyorlash jarayonini takomillashtirish zarur.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi: Ta'lim resurslarining yetishmasligi ham muhim muammo hisoblanadi. O'zbekistonning ko'plab hududlarida ingliz tilini o'rganish uchun zarur bo'lgan darsliklar va o'quv materiallari mavjud emas. Bu holat o'quvchilarning ingliz tiliga bo'lgan qiziqishini kamaytiradi. Darsliklar va o'quv materiallarini yangilash, shuningdek, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini oshirish muhimdir. Internet orqali ta'lim resurslariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, o'quvchilarga ingliz tilida o'quv materiallarini topish va ulardan foydalanish imkoniyatini yaratadi. O'quvchilarning motivatsiyasini oshirish ham muhim ahamiyatga ega[1].

Ko'plab o'quvchilar ingliz tilini o'rganishga qiziqmaydilar, chunki ular bu tilni amaliyotda qo'llash imkoniyatlarini ko'rmaydilar. O'qituvchilar ingliz tilini o'rganishning amaliy foydasini ko'rsatishlari zarur. O'quvchilarga ingliz tilida muloqot qilish imkoniyatlarini yaratish, ingliz tilida filmlar, kitoblar va musiqalar bilan tanishtirish orqali ularning motivatsiyasini oshirish mumkin. Shuningdek, ingliz tilida o'tkaziladigan tanlovlar va musobaqalar

o'quvchilarning qiziqishini oshirishga yordam beradi. Sinflarda ingliz tilida muloqot qilinmasligi o'quvchilarning tilni o'rganish jarayonini sekinlashtiradi. O'quvchilar dars davomida ingliz tilida gapirishdan qo'rqishadi. O'qituvchilar darslarda ingliz tilida muloqot qilishni rag'batlantirishlari va talabalarni bu tilni qo'llashga undashlari zarur. Sinflarda ingliz tilida suhbatlar, rolli o'yinlar va boshqa interaktiv faoliyatlar o'tkazish orqali o'quvchilarning muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish mumkin. O'qituvchilar o'quvchilarga o'z fikrlarini ifoda etish va muhokama qilish imkoniyatini berishlari, shuningdek, o'quvchilar o'rtasida ingliz tilida muloqot qilish muhitini yaratishlari zarur[2].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ingliz tilini o'rganish jarayonida texnologiyalardan foydalanishning yetarli darajada emasligi ham muhim muammo hisoblanadi. Hozirgi kunda onlayn ta'lim resurslari va mobil ilovalar orqali ingliz tilini o'rganish imkoniyatlari juda kengaygan. Biroq, O'zbekistonda ko'plab o'quvchilar va o'qituvchilar bu imkoniyatlardan yetarlicha foydalanmayaptilar. Ta'lim tizimida texnologiyalardan foydalanishni rag'batlantirish, o'qituvchilarni yangi texnologiyalar bilan tanishtirish va o'quvchilarga onlayn platformalardan foydalanishni o'rgatish zarur. Onlayn darslar, video darsliklar va interaktiv o'quv platformalari orqali o'quvchilarning ingliz tilidagi bilimlarini oshirish mumkin. O'quvchilarning o'z-o'zini baholash qobiliyatining yetishmasligi ham muhim masala. O'quvchilar ko'pincha o'z bilimlarini baholashda qiyinchiliklarga duch keladilar. O'qituvchilar o'quvchilarga o'z bilimlarini baholash va rivojlantirishda yordam berishlari zarur. O'z-o'zini baholash vositalarini ishlab chiqish, o'quvchilarga o'z yutuqlarini kuzatish va rivojlantirish imkoniyatini beradi. Shuningdek, o'quvchilarga o'z bilimlarini baholash uchun testlar va boshqa baholash usullarini taqdim etish, ularning o'rganish jarayonini yanada samarali qiladi. Oila ta'lim jarayonida muhim ahamiyatga ega. Biroq, ko'plab oilalarda ingliz tiliga nisbatan qiziqish yetishmaydi. Ota-onalar o'z farzandlarini ingliz tilini o'rganishga rag'batlantirishlari zarur. Oila muhitida ingliz tilida muloqot qilish, ingliz tilidagi kitoblar o'qish va filmlar tomosha qilish orqali farzandlarning qiziqishini oshirish mumkin. Ota-onalar o'z farzandlariga ingliz tilida o'qitish jarayonida yordam berish, ularning bilimlarini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish orqali ta'lim jarayonini yaxshilashlari mumkin. Ingliz tilini o'rganish jarayonida o'quvchilarning psixologik to'siqlari ham muhim rol o'ynaydi. Ko'plab o'quvchilar ingliz tilida gapirishda qo'rqishadi yoki o'zlarini noqulay his qilishadi. Bu psixologik to'siqlarni bartaraf etish uchun o'qituvchilar darslarda qulay muhit yaratishlari zarur. O'quvchilarga o'z fikrlarini ifoda etish va muloqot qilishda yordam berish, ularning ishtirokini

oshiradi va qo'rqishlarini kamaytiradi. O'qituvchilar o'quvchilarga muvaffaqiyatli muloqot qilish ko'nikmalarini o'rgatish, ularning o'z-o'ziga ishonchlarini oshirishda yordam beradi[3].

Yuqoridagi masalalarni hal etish uchun ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlar va zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, ta'lim resurslarini yangilash va o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish zarur. O'zbekistonning kelajagi uchun ingliz tilini o'rganish jarayoni muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun barcha tomonlar birgalikda harakat qilishlari zarur. O'qituvchilar, o'quvchilar, ota-onalar va ta'lim muassasalari o'zaro hamkorlikda ishlashlari, ingliz tilini o'rganish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilish uchun birgalikda harakat qilishlari lozim. Ingliz tilini o'rganish jarayonida o'quvchilarning o'zaro hamkorlikda ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish ham muhimdir. Guruhli darslar va jamoaviy faoliyatlar orqali o'quvchilar bir-birlari bilan muloqot qilish va o'z bilimlarini baham ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu jarayon o'quvchilarning o'zaro yordam berish va bir-biridan o'rganish imkoniyatlarini yaratadi. O'qituvchilar guruhli ishlarni tashkil etib, o'quvchilarning o'zaro hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishlari zarur[4].

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda ingliz tilini o'rganish jarayoni ko'plab qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Biroq, ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlar va zamonaviy metodlarni qo'llash, o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish va o'qituvchilarni zamonaviy pedagogik metodlar bilan ta'minlash orqali bu muammolarni bartaraf etish mumkin. O'zbekistonning kelajagi uchun ingliz tilini o'rganish jarayoni muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun barcha tomonlar birgalikda harakat qilishlari zarur. O'qituvchilar, o'quvchilar, ota-onalar va ta'lim muassasalari o'zaro hamkorlikda ishlashlari, ingliz tilini o'rganish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilish uchun birgalikda harakat qilishlari lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdurazakov, S. (2021). "Increasing students' motivation in the process of learning English." Education of Uzbekistan, 2021, pp. 45-50.
2. Karimova, N. (2020). "Modern pedagogical technologies and English language learning." Education and Innovation, 2020, pp. 12-18.
3. Akhmedov M. (2019). "Problems and solutions in learning English." Public education of Uzbekistan, 2019, pp. 30-35.
4. Muradov, A. (2022). "The Role of Learning Resources in English Language Learning." Education system of Uzbekistan, 2022, pp. 22-27.

5. Ruzmetova, D. (2021). "Development of communication skills in English." Pedagogical Journal of Uzbekistan, 2021, pp. 55-60.
6. Yusupov, E. (2020). "Psychological obstacles in the process of learning English in Uzbekistan." Psychology and Education, 2020, pp. 15-20.
7. Shodmonov, R. (2023). "Modern methods and strategies for learning English." Education and Development, 2023, pp. 10-15.

GEOPOLITICS AND SECURITY: RELATIONS BETWEEN RUSSIA AND AFGHANISTAN IN THE PAST, PRESENT AND FUTURE

Akhmadaliev Azamjon

Master degree 2nd year student in International relations courses of HSE university

Inson tanasi massasining 99% ini oltita element tashkil etadi. O`quvchilar yodlab olishi uchun CHNOPS qisqartma shaklida yoziladi. Ya`ni C-uglerod, H-vodorod, N-azot, O-kislorod, P-fosfor va S-oltingugurtdir. Birinchida turgan 4 ta element C, H, N, O, har qanday organism massasining 96.3% ni tashkil etadi. Endi oltita element har birining inson tanasida qanday va qancha % dan tarqalganini bilib olamiz. Kislorod inson tanasida eng ko`p tarqalgan element bo`lib, inson massasining taxminan 65% ini tashkil etadi. Suv molekulasida bitta kislorod atomida ikkita vodorod atomi to`g`ri keladi. Biroq bitta kislorod atomiga ikkita kislorod to`g`ri kelsa ham massa jihatdan kislorod atomi vodorod atomidan ancha yuqoridir. Undan tashqari nafas olish uchun kislorod eng muhim elementdir. Uglarod organik moddalarning asosini tashkil etuvchi element bo`lib, kisloroddan keyin ko`p tarqalgan element hisoblanadi. Inson tanasi massasining 18% ini tashkil etadi. Uglarod karbon, oqsillar, uglevodlar, lipidlar va nukleinalarda uchraydi. Bundan tashqari nafas chiqarish uchun eng muhim bo`lgan birikma CO₂ tarkibida ham uchratishimiz mumkin. Vodorod atomlari inson tanasida eng ko`p tarqalgan atom turi bo`lib, vodorod atomlari yorug` bo`lgani uchun massaning 10% ni tashkil etadi. Vodorod suv va organik birikma molekulasining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Shuning uchun ham vodorod inson tanasining elektron tashuvchisi hisoblanadi. Azot tana massasining 3.3% ni tashkil etuvchi element hisoblanadi. Azot asosan oqsil va nuklein kislotalarda uchraydi. Kalsiy tana massasining 1.5% tashkil etuvchi elementdir. Kalsiy asosan suyak va tishlarni qurish uchun ishlatiladi. Kalsiyning asosiy vazifalaridan biri mushak qisqarishi va metabolizm jarayonida muhim ro`l o`ynaydi. Kalsiyning kunlik extiyoji yoshiga qarab 800 mgdan 1500 mggacha bo`ladi. Fosfor tana massasining 1% ni tashkil etadi. Fosfor kalsiyga o`xshab suyak to`qimalari va asab tizimi hujayralari va to`qimalari yadrosining asosiy qismi hisoblanadi. Fosfor oqsillar, yog`lar va uglevodorodlar almashinivuda muhim ro`l o`ynaydi. Kaliy tana massasining 0.2-0.4% ni tashkil etadi. Kaliy yurak-qon tomirlarining normal ishlashi uchun muhim element hisoblanadi. Kaliy inson tanasi uchun asosiy kation va musbat zaryadlangan iondir. Oltingugurt Ba`zi aminokislota va oqsillarda uchraydi. Shuning uchun tana massasining 0.2-0.3% ni tashkil etadi. Natriy kaliy kabi musbat zaryadlangan iondir. Natriy tanadagi elektrolitlarning muvozanatini tartibga solib turadi. Natriy tana massasining 0.1-0.2% ni tashkil etadi. Bulardan tashqari inson tanasida Fe, Mg, Cl₂, Na va boshqa elementlari uchraydi. Buni quyidagi rasmda ko`rishimiz mumkin:





Inson tanasidagi anorganik va organik birikmalar ahamiyati. Inson tanasidagi anorganik moddalar suv va mineral tuzlardir. Rux (Zn) va yod (J) ga o`xshash mikroelementlar inson tanasida oz miqdorda uchraydi. Oz miqdorda uchrashiga qaramay hayot jarayoni uchun hal qiluvchi hususiyatga ega. Masalan: yod yetishmovchiligi qalqonsimon bezining kengayishi ya`ni bo`qoq kasalligini kelib chiqishiga olib keladi. Mineral tuzlar: inson tanasidagi mineral tuzlar kation+ va anionga- ajraladi. Eng muhim kationlar: K^+ , Ca^{2+} , Mg^{2+} , Na^+ , NH_4^+ . Eng muhim anionlar: Cl^- , SO_4^{2-} , HPO_4^{2-} , $H_2PO_4^-$, HCO_3^- , NO_3^- . Inson tanasidagi organik moddalarga uglevodlar, lipidlar, oqsillar va nuklein kislotalar kiradi. Uglevodlar inson tanasidagi hujayralar uchun energiya beruvchi kuch va energiya manbai hisoblanadi. Uglevodlar energiyani organizmda bo`ladigan moddalar almashinuvidan hosil bo`lgan energiyalardan olib, zahira saqlab qo`yadi.



Lipidlar va yog`lar o`zida uzoq vaqtgacha energiya saqlaydi. Inson organizmida sodir bo`ladigan bug`lanish, suv yo`qolishini kamaytirish, parchalash va suv hosil qilish jarayonlarida muhim ahamiyatga ega. Yog`lar ko`p funksiyalarni bajaradigan ovqatlanishning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Yog`lar bizga energiya beradi va miyaning ishlash faoliyatini tezlashtiradi va A, D, E, K vitaminlari so`rilishida ishtirok etadi.

Proteinlar va oqsillar: oqsilarni insonlar asosan oziq-ovqat mahsulotlarini iste`mol qilish orqali qabul qiladi. Masalan: go`sht va go`sht mahsulotlari, tuxum, loviya, mosh, no`xat kabi mahsulotlar oqsilning asosiy manbasi hisoblanadi. Oqsillar-organizmning transport vazifasini bajaradi. Ya`ni o`pkadan kislorodni olib hujayraga, hujayradan karborat angidridni olib o`pkaga tashiydi.

Kimyoviy elementlar yetishmasa kelib chiqadigan kasalliklar:




Kasallik	Kimyoviy elementlar
Immunitetning susayishi	J, Ca, Si, Mg, Se, S, P
Ozg`inlik	J, Mn, P
Semizlik	J, Ca, Si, Mg, Se, P
Kamqonlik	Fe, J, Cu
Shabko`rlik	Ca, Zn
Infark-miokard	J, Ca, Mg
Bo`qoq	J, Ca, Cr
Ich qotishi	Fe, K
Bo`y o`smasligi	J, Ca, K, Mg, Se, Cr, Zn
Eczema	Zn
O`pka kasalligi	Cu
Xotiranining susayishi	Li, J, K, Na, Zn
Tutqanoq	K, Ca, Mg
Revmatizm	K, Ca, Si, Zn
Ta`m bilmaslik	Na, Zn
Saraton (rak)	J, K, Si, Na, Se, Zn


Men bu mavzuni talabalarning yaxshi tushunishi uchun birgalikda o`qiyimiz metodidan foydalanmoqchiman. Bu metod haqida qisqacha to`xtalib o`tadigan bo`lsak, umumiy talabalar kichik guruxlarga bo`linadi. Har bir gurux o`rganilayotgan mavzuning soxalarini bo`lib olib o`rganib boshqa guruxlarga o`rgatib berishdan iboratdir.

“Birgalikda o`qiyimiz” metodining texnikasi quyidagilardan iborat:


1) bilim darajasiga qarab 3-5 kishilik kichik guruxga bo`linadi. Masalan 25 ta talaba bo`lsa, 5 kishidan iborat 5-guruhga ajraladi.




2) har bir guruxga mavzuning bir qismi topshiriq qilib beriladi. O`sha berilgan mavzuni esa butun gurux qamrab oladi. Masalan bizning o`rganadigan mavzumiz “Inson organizmidagi kimyoviy elementlar va birikmalar” bo`lsa, 1-guruhga inson organizmidagi asosiy elementlar, 2-guruhga inson tarkibidagi organik moddalar, 3-guruhga inson tarkibidagi anorganik moddalar, 4-guruhga inson tarkibidagi moddalarning inson organizmi uchun ahamiyati, 5-guruhga ega 4 ta mini mavzuni qisqacha birlashtirish beriladi.



3) har bir guruh o'ziga biriktirilgan mini mavzuga tayyorlanib, qolgan guruhlariga o'zlari tayyorlab kelgan tarqatma va materiallar bilan o'ziga biriktirilgan mavzuni tushuntirib beradi. Masalan : klaster, krasvort, tarqatma materiallar va qiziqarli ma'lumotlar



4) hamma guruh boshqa guruh a'zolariga maxsus tayyorlangan savollar va tarqatma materiillar bilan tushuntirib berilgan mavzusini qay darajada tushunganligini tekshirib olinadi.



5) Har bir guruh qilgan ma'ruzasi va bajargan topshirig'ilari bo'yicha baholanadi. Baholash me'zoni;

Baholash uchun qo'shimcha savollar:

<p>1-guruh:</p> <p>1-savol; inson tanasi qanday elementlardan tashkil topgan?</p> <p>2-savol; inson organizmidagi anorganik moddalar haqida m'lumot ?</p> <p>3-savol; inson tarkibidagi uglevodlar tarkibi va ahamiyati?</p>	<p>2-guruh:</p> <p>1-savol; inson tanasidagi C elementi vazifasi va %?</p> <p>2-savol; inson organizmidagi organik moddalar hqida ma'lumot?</p> <p>3-savol; inson tarkibidagi uglevodlar tarkibi va ahamiyati?</p>
<p>3-guruh:</p> <p>1-savol; inson tanasidagi O₂ elementi vazifasi va %?</p> <p>2-savol; inson organizmidagi biogen elementlar haqida ma'lumot?</p> <p>3-savol; inson tarkibidagi uglevodlar tarkibi va ahamiyati?</p>	<p>4-guruh:</p> <p>1-savol; inson tanasidagi H₂ elementi vazifasi va %?</p> <p>2-savol; inson organizmidagi minral tuzlar haqida ma'lumot?</p> <p>3-savol; inson tarkibidagi uglevodlar tarkibi va ahamiyati?</p>
<p>Umumiy savollar:</p> <p>1-savol; inson tarkibidagi elementlar qanday ahamiyati ega?</p> <p>2-savol; inson tarkibidagi kimyoviy birikmalar qanday ahamiyatga ega?</p> <p>3-savol; inson tanasidagi CHNOPS ning vazifasi va foizi qancha?</p> <p>4-savol; inson tarkibidagi uglevodlar tarkibi va ahamiyati?</p> <p>5-savol; inson organizmidagi qaysi modda yetishmasa qanday kasallik kelib chiqadi.</p>	

Bu metodni qo'llashimdan maqsad talabalar birinchi mavzu bilan o'rganib chiqadi. Ikkinchi marta o'rganilgan mavzusini o'qituvchi tomonidan mustahkamlanadi. Guruxlar va auditoriya bilan savol javob vaqtida uchinchi marta mastahkamlanadi. Bu metod effekti: O'rgangan mavzusidan muhim savollarni terib olishni o'rganadi. Eng asosiysi gurux va auditoriya bilan ishlashni o'rganadi.

Xulosa: inson organizmida qandaydir noxush holat sezilsa. Shuni xulosa qilish kerakki inson organizmida kimyoviy elementlarning ko'payib ketilgani yoki kamayishidan kelib chiqadi ekan. Qaysi element kamayganligini bilish uchun eng avvalo inson tanasi qaysi elementlardan tashkil topganini bilishimiz kerak ekan. Barqaror taraqqiyot inson organizmi uchun foydali bo'lgan elementlar tabiiy yo'l orqali organizmga kirishi va uning organizmga ta'siri haqida oldingi maqolalarda berilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Eshchanov, R. A., Shirinova, D. O. (2022). Kimyo darslarida mineral o'g'itlar mavzusini o'qitishda barqaror taraqqiyot ta'limi tushunchalarini rivojlantirish. *Pedagogik mahorat*, 2(2), 244-248.

2. Shirinova, D. O. (2022). Davriy jadval mavzusini o'qitishda barqaror ta'lim tushunchasini tadbiq qilishning klaster usuli (yordamchi dasturli vositalardan foydalanish). *Netherlands intellectual education technological solutions and innovative digital tools*, 5(4), 402-406.

3. Eshchanov, R. A., Shirinova, D. O. (2022). Uglarod mavzusini o'qitishda ekologik muommolar va barqaror taraqqiyot ta'limi. *Konferensiya*, 1(2), 464-468.

4. Shirinova, D. O. (2022). Kremniy mavzusini o'qitishda barqaror taraqqiyot ta'limining ahamiyati. *Energetika sohasini rivojlantirish*, 2(4), 53-56.

5. Shirinova, D. O. (2022). Kimyo fanidan suv mavzusini o'qitishda barqaror taraqqiyot ta'limi tushunchalarining tatbiqi. *Образование и наука в XXI веке*, 2(25), 666-670.

6. Shirinova, D. O. Q., & Eshchanov, R. A. (2021). Osmos va teskari osmos hodisalarini maktabda o'qitishda klaster metodi. *Academic research in educational sciences*, 2(12), 986-991.

7. Shirinova, D. O. Q. (2021). Kimyoni o'qitishda talabalarning ekologik intellektual qobiliyatini shakllantirish. *Academic research in educational sciences*, 2(9), 571-574.

DORIVOR MOYCHECHAK O'SIMLIGINI YETISHTIRISH AGROTEXNOLOGIYASI

Mirodilova Odinaxon Abdumutal qizi
Topvoldiyeva Saidaxon Baxovodin qizi
Fargona davlat universiteti talabalari

Annotatsiya : *Ushbu maqola Farg'ona viloyati sharoitida dorivor moychechak (*Matricaria chamomilla L.*) yetishtirish agrotexnologiyasiga bag'ishlangan. Maqolada dorivor moychechakning biologik xususiyatlari, o'simlikni yetishtirish uchun optimal sharoitlar, ko'chat tayyorlash, ekish, parvarishlash, hosilni yig'ishtirib olish va qayta ishlash kabi agrotexnik tadbirlar batafsil yoritilgan. Shuningdek, maqolada Farg'ona viloyatining tuproq-iqlim sharoitlari dorivor moychechak yetishtirishga ta'siri ham ko'rib chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *dorivor moychechak, *Matricaria chamomilla L.*, Farg'ona viloyati, yetishtirish, agrotexnologiya ko'chat, ekish, parvarishlash, hosil, tuproq, iqlim.*

Аннотация: *Данная статья посвящена агротехнологии выращивания лекарственной ромашки (*Matricaria chamomilla L.*) в условиях Ферганской области. В статье подробно освещены биологические особенности лекарственной ромашки, оптимальные условия для выращивания растения, а также агротехнические мероприятия, такие как подготовка рассады, посадка, уход, уборка и переработка урожая. Также в статье рассмотрено влияние почвенно-климатических условий Ферганской области на выращивание лекарственной ромашки.*

Ключевые слова: *лекарственная ромашка, *Matricaria chamomilla L.*, Ферганская область, выращивание, агротехнология, рассада, посадка, уход, урожай, почва, климат.*

Abstract: *This article is dedicated to the agrotechnology of growing medicinal chamomile (*Matricaria chamomilla L.*) in the conditions of the Fergana region. The article details the biological characteristics of medicinal chamomile, optimal conditions for growing the plant, agrotechnical measures such as seedling preparation, planting, care, harvesting and processing. The article also examines the influence of soil and climatic conditions of the Fergana region on the cultivation of medicinal chamomile.*

Keywords: *medicinal chamomile, Matricaria chamomilla L., Fergana region, cultivation, agrotechnology, seedling, planting, care, harvest, soil, climate.*

Ko'p yillik tajribalardan ma'lumki, moychechak o'simligi yorug'likni yaxshi ko'radi, tuproq unumdorligiga unchalik talabchan emas, azotli o'g'itlarni yoqtiradi, begona o'tlar bilan kuchli raqobatlasha olmaydi. Moychechak urug'idan ko'payadi. Respublikamizdagi toza, begona o't bosmagan, o'rtacha mexanik tarkibli sug'orma va lalmi tuproqlar moychechak yetishtirish uchun maqbuldir. Moychechak ekishga ajratilgan maydonning har gektariga kuzda 30-40 tonnadan go'ng yoki 80kg dan superfosfat solinadi, 20-25 sm chuqurlikda shudgor qilinadi. Ekishning maqbul mavsumi kuzdir, shuningdek, qish oldidan va bahorda ham ekish mumkin. Kuzgi ekish lalmi yerlarda birinchi kuz yomg'iridan keyin, oktyabr oxiri-noyabr boshlarida o'tkaziladi. Bundan maqsad, ekinni to'pbarg holatida qishdan chiqarishdir. Qish oldidan ekish esa barqaror sovuqlar boshlanishiga, ya'ni noyabr oxirlari dekabr boshlariga to'g'ri kelishi lozim. Lalmi yerda bahorgi ekish yaxshi natija bermaydi. Biroq moychechak o'sib rivojlanish davri qisqaligi tufayli, sug'orish sharoitida hatto may oyining boshlarida ekilganida ham yaxshigina to'pgul hosili olish mumkin. May oyi boshlarida ekilganida moychechak o'z mavsumini sentyabr oxiri-oktyabr boshlarida tugatadi. Bu vaqtda urug'dan unib chiqqan nihollarning ayrimlari gullashi mumkin. O'z-o'zidan ko'karib chiqqan nihollarning aksariyati qishni to'pbarg holatida o'tkazadi, ulardan kelasi yili ekini sifatida foydalaniladi. Ayni bir dalada 2-3 yil uzluksiz moychechak yetishtirish mumkin, lekin uning asosiy dushmani begona o'tlardir. Ularga qarshi muntazam ravishda kurash olib borish talab etiladi. Begona o't bosgan moychechak maydonidan begona o'tli xomashyo olinadi, asosiy ekin siqilib qolib, hosildorlik keskin pasayib ketadi. Moychechakning mayda urug'lari yaxshi unishining asosiy omili, urug' tushadigan tuproq yuqori qavati holatidir. Bu begona o't bosmagan, o'rtacha mexanik tarkibli sug'orma va lalmi tuproqlar moychechak yetishtirish uchun maqbuldir. Moychechak ekishga ajratilgan maydonning har gektariga kuzda 30-40 tonnadan go'ng yoki 80kg dan superfosfat solinadi, 20-25 sm chuqurlikda shudgor qilinadi. Ekishning maqbul mavsumi kuzdir, shuningdek, qish oldidan va bahorda ham ekish mumkin. Kuzgi ekish lalmi yerlarda birinchi kuz yomg'iridan keyin, oktyabr oxiri-noyabr boshlarida o'tkaziladi. Bundan maqsad, ekinni to'pbarg holatida qishdan chiqarishdir. Qish oldidan ekish esa barqaror sovuqlar boshlanishiga, ya'ni noyabr oxirlari dekabr boshlariga to'g'ri kelishi lozim. Lalmi yerda bahorgi ekish yaxshi natija bermaydi. Biroq

moychechak o'sib rivojlanish davri qisqaligi tufayli, sug'orish sharoitida hatto may oyining boshlarida ekilganida ham yaxshigina to'pgul hosili olish mumkin. May oyi boshlarida ekilganida moychechak o'z mavsumini sentyabr oxiri-oktyabr boshlarida tugatadi. Bu vaqtda urug'dan unib chiqqan nihollarning ayrimlari gullashi mumkin. O'z-o'zidan ko'karib chiqqan nihollarning aksariyati qishni to'pbarg holatida o'tkazadi, ulardan kelasi yili ekini sifatida foydalaniladi.

Dorivor ромашка (*Matricaria chamomilla* L.) yetishtirish bo'yicha jadval

Bosqich	Tadbir	Muddat	Xususiyatlari
Urug' tayyorlash	Saralash, namlash, unumdorlash	Ekishdan 1=2 hafta oldin	Saralash uchun yirik va sog'lom urug'lar tanlanadi. Namlash uchun iliq suv ishlatiladi. Unumdorlash uchun maxsus preparatlar qo'llaniladi.
Yer tayyorlash	Haydash, kultivatsiya, boronalash, o'g'itlash	Kuz, bahor	Yer haydash chuqurligi 20-25 sm. O'g'itlash uchun organik (go'ng, kompost) va mineral (azot, fosfor, kaliy) o'g'itlar ishlatiladi.
Ekish	Urug'ni sepish yoki ko'chat ekish	Bahor (aprel-may)	Urug' sepish chuqurligi 1-2 sm. Ko'chatlar orasidagi masofa 20-25 sm. Qatorlar orasidagi masofa 40-50 sm.
Parvarishlash	Sug'orish, o'toq qilish, yumshatish, oziqlantirish	Vegetatsiya davri davomida	Sug'orish tuproqning namligiga qarab amalga oshiriladi. O'toq qilish va yumshatish begona o'tlarni yo'qotish va tuproqning havo o'tkazuvchanligini yaxshilash uchun amalga oshiriladi. Oziqlantirish uchun azotli va fosforli o'g'itlar ishlatiladi
Hosilni	Gullarni	Iyun-iyul	Gullar to'liq ochilganda, 50-70%

yeg'ish	terish		gullari ochilganda teriladi.
---------	--------	--	------------------------------

Ayni bir dalada 2-3 yil uzluksiz moychechak yetishtirish mumkin, lekin uning asosiy dushmani begona o'tlardir. Ularga qarshi muntazam ravishda kurash olib borish talab etiladi. Begona o't bosgan moychechak maydonidan begona o'tli xomashyo olinadi, asosiy ekin siqilib qolib, hosildorlik keskin pasayib ketadi. Moychechakning mayda urug'lari yaxshi unishining asosiy omili, urug' tushadigan tuproq yuqori qavati holatidir. Buqavat nam bo'lib, urug' unib chiqquniga qadar harorati 5 darajadan yuqori bo'lishi kerak. Moychechak sabzavot ekish moslamasida qator oralari 50-60 sm qilib ekiladi. Urug'i nihoyatda mayda, uni bir tekis ekish uchun avval urug' 1/10 nisbatda qum yoki go'ngga aralashtiriladi. Urug'larini shamol osongina uchirib ketadi, shu sababli urug' sepilgan yer yengilgina g'altak mashinada bosib o'tiladi. Har gektariga 2-2,5 kg urug' sarflanadi. Urug' 8-10 kunda unib chiqadi. Urug' unib 2-3 ta barg hosil bo'lgach, egat olinadi. Bunda maysalar juda mayda bo'lganligidan uning tuproq ostida qolib ketishi mumkinligini nazarda tutish kerak. Shuningdek, havo quruq vaqtda kichik-kichik egatlar olinadi. Sug'organda ekinni yuvib ketmasligi uchun ohista jildiratib suv beriladi. Bahorda maysa ko'rinishi bilanoq begona o'tlar motiga yoki ketmonda, qator oralaridagisi esa kultiatorlarda o'tab chiqiladi. Mavsumda 12 marta sug'oriladi va shox-shabbasi tutashib ketgunicha hap 2-3 marta sug'orilgandan keyin yer yumshatib turiladi. O'simlik o'sib rivojlanishi davomida ikki marta: birinchisi maysa hosil bo'lganining 10-15- kunlarida, ikkinchisi - shonalash davrida gektariga 30-40 kg hisobida azot bilan oziqlantiriladi. Ekin unib chiqqanidan 30-40 kun o'tgach, gullaydi. Moychechak to'pgullari maxsus yasalgan temir moslama yoki moychechak yig'gich uskunalarida yig'iladi. Hosilni necha bor yig'ib olish o'simlik holatiga bog'liq bo'lib, 11 martadan to 20 martagacha yetishi mumkin. Bir gektar daladagi to'pgulni yig'ish bir kishi uchun 180 kunlik ish hisoblanadi. Moychechak urug'i maxsus ajratilgan maydonda, urug' to'liq pishib yetilgan davrda savatchalarga yig'iladi. Urug'ning pishib yetilganlik darajasi savatchasining uzunchoq, konussimon shaklda bo'lishi bilan aniqlanadi. O'simlikning gul savatchalari pishib yetilgan yuqori qismi tongda, hali shudring ko'tarilmasidan o'roqda o'rib olinadi va uncha zichlamasdan bog'-bog' qilib brezentga joylanib, shiyponda saqlanadi. Bu yerda poyasini ichkariga qaratib 2 qator joylanadi va bog'lar qizib ketmasligi nazorat qilib turiladi. Qurigan bog'lar yanchiladi, urug'lari turli aralashmalardan tozalanib, sovuriladi va qoplarga joylanadi. Urug' ikki yilgacha saqlanishi mumkin. Yig'ib olingan to'pgullarni tezda quritish uchun yaxshi shamol aylanadigan shiyponga olib boriladi. Bu yerda javonlarga har bir kvadrat metr ga 1-1,5 kg hisobida yoyib qo'yiladi. Xomashyo yetilganining tashqi

belgilari: yarim kurrasimon yoki konus shaklidagi butun yoki qisman yorilib to'kila boshlagan gul savatchalari, ular gulbandsiz yoki 3 sm dan uzun bo'lmagan gulband qoldig'idir. Savatchalari tevarakatrofdagi tilsimon yoki ko'plab o'rta naysimon gullardan iborat bo'ladi. Gul o'rni taqir, mayda-mayda chuqurchali, ichi bo'sh, gullash avvalida yarim kurrasimon, oxirida konussimon; savatcha o'rami cherepitsasimon, ko'pqatorli bo'lib, ko'plab uzunchoq, uchi to'mtoq va chekkalari keng barglardan tashkil topgan. Savatchaning (tilsimon gullardan tashqari) kengligi 4-8 mm, tilsimon gullar rangi oq, naysimonlariniki sariq, savatcha o'rami sarg'ish-yashil, xushbo'y, ta'mi o'tkir. Yer ustki qismi oktyabr oyida o'rib olinadi va daladan olib chiqiladi. Yer ustki qismi daladan olib ketilganidan keyin egatlarda gektar hisobiga 80 kg dan fosfor beriladi va yer yumshatiladi, bunda pushtalar tepasidagi urug'dan chiqqan ekin kelgusi yil uchun saqlab qolinishi kerak.

Hosildorlik gektar hisobiga 7-8 sentnerni tashkil etadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdunazarov E.E. Introduktsiya i bioekologicheskie osobennosti *Valeriana officinalis* L. v usloviyax Tashkentskogo oazisa. Dis. ... kand. biol. nauk. – Tashkent: AN RUz. 2010.

2. Akopov I.E. Vajneyshie otechestvennyye lekarstvennyye rasteniya i ix primeneniye. – Tashkent: Meditsina, 1990. – s. 444.

3. Axmedov E.T. *Mandragora turcomaica* Mizg. Ning Toshkent vohasi sharoitida introduktsiyasi. Dis. Avtoref.... biol. fan. nom. – Toshkent: O'z RFA 2002. – b. 138.

4. Ashurmetov O. A., To'xtaev B. Ye. Dorivor o'simliklar introduktsiyasining tarixi, muammolari va istiqbollari // O'simliklar

introduktsiyasi: muammolari va istiqbollari: Respublika ilmiy - konferentsiya materiallari. . – Xiva: XMA, 2003. – b. 12-15.

5. Badalov M. M. Некоторые результаты вегетативного размножения солодки голубой на засоленных землях Голубой степи //Sb. nauch. trudov Instituta botaniki AN UzSSR – Tashkent, Fan, 1970. – s. 131-138.

6. Bogdasarova M.X. Biologiya sveteniya i sitoembriologiya nekotorykh vidov roda Ferula L. Uzbekistana. Avtoref. dis. ... kand. biol. nauk. – Tashkent: AN RUz. 1990.

7. Butkov A. Ya. Lekarstvennyye rasteniya // Сырьевые ресурсы Узбекистана для местной промышленности: Sb. nauch. tr. – Tashkent, 1942. IB AN UzSSR, T.2.– вып. 1. -s. 70-73.

8. Gomilevskiy V. I. Lekarstvennyye rasteniya, prigodnyye dlya kul'tury na Kaspiyskom poberej'ye // Sel'skiy khozyain. – M.: 1915. –№ 45. – S. 1727-1728.

9. Dilevskiy A.A. K kul'ture lekarstvennykh rasteniy // Turkestanskoe sel'skoe khozyaystvo. – M.: 1916. –№ 3. – s. 129-139.

LOYIHALARNI MOLİYALASHTIRISHDA CHET EL KAPITALINING O`RNI VA DAVLATNING RO`LI

Bozarboyeva Go`zal Doniyorovna

guzalbozorboeva29@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu tezisda, Loyihalarni moliyalashtirishda chet el kapitalini jalb qilishda davlatning o`rni, ahamiyati, maqsadi va ularni amalga oshirish yo`llari, xorijiy investitsiyalarning milliy iqtisodiyotga ta`siri va rivojlanish tendentsiyalari yoritilgan.*

Kalit so`zlar: *Globalizatsiya, investitsiya, investor, texnologik transfer, kapital, resurs, eksport, infratuzilma.*

Annotation: *This thesis the role of the state in attracting foreign capital in the financing of projects, its importance, purpose and ways of their implementation, the impact of foreign investments on the national economy and development trends are highlighted.*

Key words: *Globalization, investment, investor, technological transfer, capital, resource, export, infrastructure.*

KIRISH

Chet el kapitali, globalizatsiya va iqtisodiy integratsiya jarayonlari natijasida, mamlakatlar o'rtasida investitsiya oqimlarini kuchaytirmoqda. O'zbekistonda chet el kapitalining loyihalarni moliyalashtirishdagi o'rni va maqsadi iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillaridan biridir. Ushbu ishda chet el kapitalining iqtisodiy sektorlar bo'yicha ta'siri, uning maqsadlari va istiqbollari tahlil qilinadi. Globalizatsiya jarayonida chet el kapitali iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biriga aylangan. O'zbekistonda, xususan, loyihalarni moliyalashtirishda chet el kapitalining roli va maqsadi haqida gapirganda, bu jarayonning asosiy jihatlarini ko'rib chiqish lozim.⁵

Chet el kapitali yangi texnologiyalar, innovatsiyalar va boshqaruv usullarini olib keladi. Bu, o'z navbatida, mahalliy iqtisodiyotni yangilash va rivojlantirishga yordam beradi. Chet el investorlari yangi korxonalar ochish orqali ish o'rinlari yaratadi. Bu, nafaqat iqtisodiy rivojlanishga, balki ijtimoiy barqarorlikka ham hissa qo'shadi.

Chet el kapitali yordamida ishlab chiqarilgan mahsulotlar va xizmatlar eksport qilish imkoniyatini oshiradi, bu esa mamlakatning global bozordagi

⁵ "O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, 2019 y 25 dekabr."

o'rnini mustahkamlaydi. Ko'plab chet el investorlar infratuzilma loyihalariga investitsiya kiritadi, bu esa transport, energetika va kommunikatsiya sohalarida rivojlanishni ta'minlaydi.⁶

Chet el kapitalining maqsadi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Raqobatbardoshlikni oshirish: Chet el investorlari o'z investitsiyalarini qaytarish maqsadida raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarishga intilishadi. Bu, mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun ham foydali bo'ladi.

Bozorni kengaytirish: Chet el kompaniyalari yangi bozorlarni o'zlashtirish va o'z mahsulotlarini sotish uchun imkoniyatlar yaratadi, bu esa iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi.

Siyosiy va iqtisodiy barqarorlik: Chet el investitsiyalari mamlakat ichidagi siyosiy va iqtisodiy barqarorlikka hissa qo'shadi, bu esa investitsion muhitni yaxshilaydi.

Texnologik transfer: Chet el kapitali orqali yangi texnologiyalarni import qilish va o'zlashtirish mumkin, bu esa mahalliy sanoatni rivojlantirishga yordam beradi.

Chet el kapitalini jalb qilishda davlatning ro'li juda muhimdir. Quyida davlatning bu jarayondagi asosiy vazifalari va funksiyalari keltirilgan:

1. Investitsion muhoitni yaratish

• *Qonunchilik:* Davlat chet el investitsiyalari uchun qulay qonunchilik bazasini yaratishi kerak. Bu, investorlarning huquqlarini himoya qilish va sarmoyalarni qaytarish imkoniyatlarini oshirishga yordam beradi.

• *Stabil siyosat:* Iqtisodiy va siyosiy barqarorlikni ta'minlash, investorlar uchun ishonchli muhit yaratadi.

2. Soliq va imtiyozlar

• *Soliq imtiyozlari:* Davlat chet el investorlariga soliq imtiyozlari, bojxona qulayliklari va boshqa foydali shartlar taklif qilishi mumkin.

• *Davlat dasturlari:* Maxsus investitsiya dasturlari orqali investorlarni jalb qilish va qo'llab-quvvatlash.

3. Infratuzilmani rivojlantirish

• *Jamoat infratuzilmasi:* Transport, energetika va kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish orqali chet el investorlarining ish faoliyatini osonlashtirish.

• *Loyihalarni qo'llab-quvvatlash:* Davlat yirik infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishda ishtirok etishi va ko'mak berishi mumkin.⁷

⁶ Eshov M., Mirzayev Ch., Tursunov A. Investitsiya mahorati. –T.: Ma'naviyat, 2020. – 167 b.

⁷ G'ozibekov D.G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. T.: "Moliya" nashriyoti. 2022. 50 bet.

4. *Iqtisodiy diplomatiya*

• *Xalqaro aloqalar*: Davlat xalqaro aloqalarni rivojlantirish va chet el investorlari bilan hamkorlikni kuchaytirish orqali investitsiyalarni jalb qiladi.

• *Tashqi iqtisodiy siyosat*: Tashqi iqtisodiy siyosat orqali chet el sarmoyalarni jalb qilishga qaratilgan strategiyalar ishlab chiqish.

5. *Ta'lim va kadrlar tayyorlash*

• *Kadrlar tayyorlash*: Mahalliy mutaxassislar va kadrlarni tayyorlash orqali investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash va texnologik transforni ta'minlash.

• *Ta'lim tizimi*: Ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va innovatsion bilimlar berish orqali iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirish.

6. *Ijtimoiy barqarorlik*

• *Ijtimoiy dasturlar*: Ijtimoiy dasturlar orqali jamiyatda barqarorlikni ta'minlash va investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash.

• *Mahalliy aholini jalb qilish*: Mahalliy aholini investitsiya jarayonlariga jalb qilish va ularning manfaatlarini himoya qilish.

Chet el kapitali O'zbekistonda bir qator muhim sohalarga ko'proq yo'naltirilgan va ushbu sohalar quyidagilar:

Energetika: Chet el investorlarining ko'pchiligi energetika sohasida, xususan, neft va gaz ishlab chiqarish, qayta tiklanuvchi energiya manbalari loyihalariga sarmoya kiritmoqda.

Transport va infratuzilma: Transport tizimini yaxshilash, yo'llar, temir yo'llar va aeroportlar qurilishi uchun chet el kapitali jalb qilinmoqda.

Sanoat: Tashqi investorlar ishlab chiqarish va sanoat infratuzilmasini rivojlantirishga qiziqmoqda, xususan, kimyo, mashinasozlik va oziq-ovqat ishlab chiqarish sohasida.

Turizm: Turizm sohasida chet el kapitali investitsiyalari mehmonxonalar, dam olish maskanlari va turistik infratuzilmani rivojlantirishga yo'naltirilmoqda.

Axborot texnologiyalari: IT va kommunikatsiya sohasida innovatsion loyihalar va startaplar uchun chet el investitsiyalari jalb qilinmoqda.

Sog'liqni saqlash: Sog'liqni saqlash tizimining modernizatsiyasi va yangi tibbiy xizmatlar ko'rsatish uchun chet el kapitali sarmoyalari kiritilmoqda.

Ushbu sohalarga yo'naltirilgan chet el kapitali mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishini hamda rivojlanishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Xulosa

Chet el kapitalining loyihalarni moliyalashtirishdagi o'rni va maqsadi. O'zbekistonda iqtisodiy rivojlanishga katta ta'sir ko'rsatadi. Ushbu investitsiyalar nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlabgina qolmay, balki ijtimoiy va

siyosiy barqarorlikni ham mustahkamlashga yordam beradi.⁸ Chet el kapitalini jalb qilishda davlatning roli ko'p jihatdan investitsion muhitni yaxshilash, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va investorlar uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan. Davlatning faol ishtiroki va strategik yondashuvi O'zbekiston kabi mamlakatlar uchun chet el sarmoyalarini jalb qilishda muhim ahamiyatga ega. Chet el kapitaliga bo'lgan qiziqishni oshirish va investitsion muhitni yaxshilash orqali O'zbekiston o'z iqtisodiy salohiyatini yanada oshirishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “O'zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida”gi Qonuni, 2019 y 25 dekabr.
2. Eshov M., Mirzayev Ch., Tursunov A. Investitsiya mahorati. –T.: Ma'naviyat, 2020. – 167 b.
3. G'ozibekov D.G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. T.: “Moliya” nashriyoti. 2022. 50 bet.
4. Ergasheva Sh. T., Uzoqov A. T. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O'quv qo'llanma. – T: 2007. – 225 bet.

⁸ Ergasheva Sh.T., Uzoqov A.T. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O'quv qo'llanma. T: 2007. 225 bet.

KO'KRAK SARATONINING TARQALISH EPIDEMIOLOGIYASI**Xomidova Tursunoy***Farg'ona davlat universiteti mustqail izlanuvchi*

Annotatsiya: *Hozirda ko'krak bezi saratoni butun dunyoda saraton kasalliklari orasida hamda ayollarda o'lim ko'rsatkichlari bo'yicha yetakchi o'rinlardan birini egallab kelmoqda. Ushbu maqolada ko'krak bezi saratoni bilan kasallanish bo'yicha umumiy ma'lumotlar hamda kasallanishning epidemiologik xususiyatlari va ko'krak bezi saratonini oldini olish uchun tavsiyalar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *ko'krak bezi saratoni skriningi, epidemiologiya, statistika.*

ЭПИДЕМИОЛОГИЯ РАСПРОСТРАНЕНИЯ РАКА МОЛОЧНОЙ ЖЕЛЕЗЫ**Хомидова Турсуной***Ферганский государственный университет независимый исследователь*

Аннотация: *В настоящее время рак груди является одним из ведущих видов рака во всем мире, а также по уровню смертности среди женщин. В этой статье представлена общая информация о заболеваемости раком груди, а также эпидемиологические характеристики заболеваемости и рекомендации по профилактике рака груди.*

Ключевые слова: *скрининг рака груди, эпидемиология, статистика.*

EPIDEMIOLOGY OF THE SPREAD OF BREAST CANCER**Khomidova Tursunoy***Ferghana State University independent researcher*

Annotation. *Currently, breast cancer is one of the leading cancers worldwide, as well as in terms of mortality among women. This article provides general information on the incidence of breast cancer, as well as epidemiological characteristics of the incidence and recommendations for the prevention of breast cancer.*

Keywords: *breast cancer screening, epidemiology, statistics,*

INTRODUCTION

Breast cancer ranks first in morbidity and mortality among women worldwide. It was mentioned that the incidence of breast cancer is twice as high as for other types of cancer. Developed countries with this disease have a higher risk of ucgrash. Breast cancer (KBS) is the most common form of cancer in women. According to official statistics provided by the World Health Organization, 4,454 new cases of the disease were reported in 2020 alone, and 2,067 women died of the disease in the same year. According to updated estimates from the International Agency for Research on Cancer (IARC), 2288,695 (24.1%) cases of breast cancer were reported among women in 2022, compared with 664,366 (15.6%) deaths. In the Republic of Uzbekistan, 5,022 cases (25.3%) were registered in 2022. Currently, secondary prevention is becoming important in the prevention of breast cancer, that is, the preventive detection of breast tumors. In developed countries, the concept of screening has been developed, thanks to which prevention and early detection of diseases that a healthy population may encounter during mass examinations are achieved.

The purpose of the study: to analyze the epidemiological features of breast cancer incidence.

Materials and methods of research. Based on data from the International Agency for Research on Cancer for 2023, as well as statistical data and research reports, we studied and analyzed. Epidemiological and statistical methods were used to carry out this scientific work.




Figure 1. Frequency of occurrence of breast cancer in cross section of other diseases

Results. Currently, oncological diseases are considered one of the main medico-social problems characterized by their direct impact on the health of people. According to the World Health Organization, there has been an increase in oncological diseases in all countries of the world. Around 16 million new cases of cancer are being identified worldwide each year. To prevent breast

cancer and develop anti-epidemic measures, it is necessary to first know the extent of the spread of this disease.

Conclusions. Diagnosis at an early stage can help prevent breast cancer as well as improve women's health by reducing the number of deaths.

LIST OF PUBLICATIONS:

1. International Agency for Research on Cancer 2023.
2. Семиглазов В.Ф. Семиглазов В.В. Скрининг рака молочной железы // Практическая онкология. – 2010. – Т. 11. – № 2. – С. 60-65.
3. Захарова Н.А., Семиглазов В.Ф., Duffy S.W. Скрининг рака молочной железы: проблемы и решения. – М.: ГЭОТАР-Медиа, 2011. 176 с.
4. В.Ф. Семиглазов¹, В.М. Мерабишвили¹, В.В. Семиглазов¹, А.В. Комяхов¹, Е.В. Демин¹, А.В. Атрощенко², М.В. Харитонов. Вопросы онкологии, 2017. Том 63, № 3
5. Brown, H. E., & Robinson, J. M. (2017). Women's health and the effects of socioeconomic status: A comprehensive review. *Journal of Social Health*, 10(2), 87-95.

INGLIZ VA O'ZBEK ERTAKLARIDA "ISTAK" KATEGORIYASINING TAVSIFI VA TALQINI

Haydarov Anvar Askarovich

*Professor of the Department of English Linguistics of Bukhara State
University*

Tosheva Farangiz Bobomurodovna

2nd year student of Master's degree

Istak tushunchasi ertaklarning hikoya tuzilishida markaziy o'rinni egallaydi, qahramonlarning harakatlari va qarorlarini harakatlantiruvchi kuch bo'lib xizmat qiladi. Ko'pgina madaniyatlarda ertaklar jamiyatning umumiy orzulari, qo'rquvlari va axloqiy qadriyatlarini aks ettiradi, qahramonlarning xohish-istaklari ko'pincha muvaffaqiyat, baxt va amalga oshirishning madaniy ideallarini o'z ichiga oladi. Sevgi, boylik, hokimiyat yoki erkinlikka intilish bo'ladimi, bu istaklar nafaqat shaxsiy, balki ertaklar aytilgan madaniy kontekst bilan ham chuqur bog'langan.

Ingliz ertaklarida istak ko'pincha individualistik intilish sifatida namoyon bo'ladi, bunda qahramon shaxsiy tashabbus va chidamlilik orqali o'z taqdirini o'zgartirishga intiladi. "Cindrella" va "Jack and Beanstalk" kabi ertaklar istaklar shaxsiy ambitsiyalar va yuqoriga harakatlanishga ishonish atrofida qanday tuzilganligini ko'rsatadi. Ushbu rivoyatlarda qo'llaniladigan modallik, xususan, "will", "shall" va "must" kabi modal fe'llar o'z taqdirini o'zi belgilashga va individual vakolat kuchiga madaniy urg'uni aks ettiradi. Bu hikoyalar ko'pincha bosh qahramonning matonatini taqdirlab, insonning xohish-istaklariga mehnat va axloqiy poklik orqali erishish mumkinligi haqidagi g'oyani mustahkamlaydi.

Aksincha, o'zbek ertaklarida istak ko'pincha jamoaviy tuzum doirasida tasvirlanadi, bunda shaxsiy intilishlar oila va jamiyat farovonligi bilan chambarchas bog'liqdir. "Oltin baliq", "Alpomish" kabi ertaklardagi istak ifodasi ijtimoiy majburiyatlarni, jamoa mas'uliyatini ta'kidlaydi. Bu rivoyatlarda uchraydigan "kerak" (need) va "lozim" (should) kabi modal iboralar ijtimoiy totuvlikni saqlash va boshqalar oldidagi burchlarini bajarishga qaratilgan madaniy yo'nalishni aks ettiradi. Ushbu ertaklar ko'pincha shaxsiy istaklarni jamoaning farovonligi bilan uyg'unlashtirish muhimligini ta'kidlaydi, bu esa haqiqiy ro'yobga chiqish alohida holatda emas, balki jamiyat bilan uyg'unlikda amalga oshirilishini ko'rsatadi.

Ingliz va o'zbek ertaklarida istak qanday ifodalanganligini tekshirish ushbu hikoyalarni shakllantirgan madaniy qadriyatlar va ijtimoiy me'yorlar

haqida qimmatli fikrlarni beradi. Istaklarni ifodalash uchun foydalaniladigan modallikni tahlil qilib, ushbu bob ushbu iboralarning chuqurroq madaniy oqibatlarini o'rganadi va turli jamiyatlar inson istaklarini qanday idrok etishi va birinchi o'ringa qo'yishi haqida qiyosiy nuqtai nazarni taklif qiladi. Ushbu ob'ektiv orqali biz tilning madaniy ifoda vositasi sifatida qanday ishlashini va ertaklar madaniyatni belgilaydigan ijtimoiy g'oyalar va qadriyatlarining aksi bo'lib xizmat qilishini yaxshiroq tushunishimiz mumkin.

Ingliz ertaklarida istak ifodasi ko'pincha syujet uchun hal qiluvchi katalizator bo'lib xizmat qiladi, qahramonlarning intilishlari va ular o'zida mujassam etgan madaniy qadriyatlarni aks ettiradi. Modallik, xususan modal fe'l va iboralardan foydalanish bu istaklarni yetkazishda, qahramonlarning maqsadlari, orzulari va ularga erishish yo'lidagi harakatlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu bo'limda modallik ikki mashhur ingliz ertaklarida: "Cindrella " va "Jack and Beanstalk"da istakni ifodalash uchun qanday ishlatilishini o'rganadi.

- "Cindrella"

"Cindrella"(Zolushka) ertagining eng muhim qismi unda bosh qahramonning xohish-istaklari hikoyada markaziy o'rin tutadi. Zolushkaning yaxshiroq hayotga intilishi, o'gay oilasining shafqatsizligidan ozod bo'lishi va qirollik balida qatnashish haqidagi orzulari uning ichki istaklari va harakatlarida ifodalanadi.

Istakni ifodalash uslubi:

- Zolushkaning istaklari imkoniyat va umidni bildiruvchi modal fe'llar orqali ifodalanadi. "I wish", "If only I could" kabi iboralar uning boshqa hayotga bo'lgan chuqur xohishini ochib beradi. "Would" modal fe'li ko'pincha bilvosita o'z xohish-istaklarini ifodalash uchun ishlatiladi, chunki "I would love to go to the ball" (Qaniydi balga borsam edi)gaplarida uning umidi ham, hozirgi sharoitdagi kuchsizligi ham aks etadi.

Madaniy talqin:

• "Cindrella"da istak ifodasi umid, o'zgarish va yaxshi kelajakka ishonchga berilgan madaniy ahamiyatni tasvirlaydi. Zolushkaning modallikdan foydalanishi nafaqat uning shaxsiy xohish-istaklarini, balki kengroq madaniy xabarni ham anglatadi: orzular qanchalik imkonsiz bo'lmasin, intilishga arziydi va yaxshilik oxir-oqibat taqdirlanadi.

• "Would" va "could" kabi modallarning qayta-qayta qo'llanishi potentsial o'zgarishlar mavzusini ta'kidlaydi. Zolushkaning istaklari shunchaki istaklar emas, balki to'g'ri sharoitlarda (masalan, sehrli farishtaning aralashuvi) amalga oshirilishi mumkin bo'lgan imkoniyatlardir.

- "Jack and Beanstalk"

“Jack and Beanstalk”(Jek va loviya poyasi)ertagida Jekning istaklari yanada ochiqroq va harakatga asoslangan bo'lib, o'z maqsadlariga erishishda faolroq yondashishni aks ettiradi. Jekning boylik va sarguzashtga bo'lgan istagi hikoyani boshqaradi va uning istak ifodalarida qo'llanilgan modallik qat'iyat va jasoratni ifodalaydi.

Istakni ifodalash uslubi:

Jekning istaklari "will" va "shall" kabi qat'iy modallar orqali ifodalanadi, bu nafaqat istak yoki orzu, balki harakat qilish uchun kuchli niyatni ko'rsatadi. Misol uchun, "I will sell the cow(Men sigirni sotaman)" Jekning sayohatining boshlanishini anglatadi, bu uning o'zi va onasining taqdirini o'zgartirishga qat'iy qarorini aks ettiradi. Misol uchun, "I will climb the beanstalk(Men loviya poyasiga chiqaman)", deb e'lon qiladi Jek, "will" modal fe'lidan foydalanib, hatto xavf ostida bo'lsa ham o'z qat'iyatini va harakatlarining aniqligini ifodalaydi.

Madaniy talqin:

• “Jack and Beanstalk”dagi modallik tashabbuskorlik, jasorat va dadil harakatlar orqali muvaffaqiyatga intilishning madaniy qadriyatlarini aks ettiradi. Jekning "will" va "must" kabi kuchli modallardan foydalanishi tavakkalchilik va o'ziga ishonishni ifodalaydi. Istaklari o'z sharoitlari chegarasida joylashgan Zolushkadan farqli o'laroq, Jekning istaklari uni shaxsiy agentlikning madaniy idealini o'zida mujassam etgan holda harakatga undaydi.

• Bu ertak muvaffaqiyatga qat'iyat va jasorat orqali erishish mumkinligi haqidagi tushunchani mustahkamlaydi va Jekning xohish-istaklarini ifodalash uchun ishlatiladigan til bu xabarga mos keladi va individual tanlov va harakatning kuchini ta'kidlaydi.

Ushbu ingliz ertaklaridagi modallikni tahlil qilish kengroq madaniy naqshni ochib beradi: istak ko'pincha individualizm, o'z taqdirini o'zi belgilash va shaxsiy o'zgarish imkoniyatiga ishonchni aks ettiruvchi usullarda ifodalanadi. Qahramonlarning istaklari passiv istaklar emas, balki faol intilishlar bo'lib, ular syujetni oldinga olib boradi, ko'pincha ularning sharoitlarida sezilarli o'zgarishlarga olib keladi.

O'zbek ertaklarida istak ko'pincha o'zbek madaniyatining kollektivistik tabiatini aks ettiruvchi jamoaviy qadriyatlar, oilaviy majburiyatlar va jamiyat umidlari atrofida joylashgan. Shaxsiy ambitsiya va muvaffaqiyat ko'pincha harakatlantiruvchi kuch bo'lgan ingliz ertaklarida ko'riladigan individual istaklardan farqli o'laroq, o'zbek ertaklarida ijtimoiy totuvlik, an'analarga hurmat va jamiyat ichidagi o'z burchlarini bajarish bilan chuqur bog'langan istaklar tasvirlangan. Ushbu ertaklarda modallik qahramonlarning xohish-istaklarini ifodalashda hal qiluvchi rol o'ynaydi, ko'pincha ularni madaniy

jihatdan kutilgan yoki katta manfaatlar uchun zarur bo'lgan kontekstda tuzadi. O'zbek ertaklarida modal fe'l va iboralarning qo'llanishi nafaqat shaxsiy sog'inchni bildiradi, balki ijtimoiy rishtalarni saqlash, axloqiy va axloqiy me'yorlarni saqlashga kengroq madaniy urg'u berilganligini ham ko'rsatadi. Bu bo'limda istak o'zbek ertaklarida modallik orqali qanday ifodalanishi, bu madaniy noz-ne'matlarni aniq misollar yordamida ko'rsatish yoritilgan.

- "Zumrad va Qimmat"

“Zumrad va Qimmat” o'zbek ertagi bo'lib, istak mavzusini oilaviy sadoqat va jamiyat umidlari doirasida qamrab olgan. Ertak ikki opa-singil Zumrad va Qimmatning bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan taqdirlari atrofida, ularning xohish-istaklari va xatti-harakatlari ularning axloqiy xarakteri va ijtimoiy rollari bilan shakllanadi.

Istakni ifodalash uslubi:

- Zumradning xohishi: Zumradning istaklari oddiy va uning oilasiga bo'lgan sadoqatidan kelib chiqadi. Jumladan, u onasini asrash istagini bildirganda, “Onamni parvarish qilishim kerak”(I need to take care of my mother) iborasini ishlatadi, bu yerda “kerak” modal fe'li majburiyat ma'nosini bildiradi. Uning istaklari har doim shaxsiy manfaatlar uchun emas, balki boshqalarning farovonligi uchun zarur bo'lgan narsalar bilan belgilanadi.

- Qimmatning xohishi: aksincha, Qimmatning istaklari haq va xudbinlik hissi bilan ifodalanadi. U shunga o'xshash modallardan foydalanadi, lekin uning ochko'zligini ochib beradigan tarzda. Masalan, “Men oltin taqinchoqlarni olishim kerak” (I need to have gold jewelry) uning moddiy boylikka e'tibor qaratganini ko'rsatadi. Bu yerda “kerak”ning qo'llanishi Zumradning ko'proq altruistik istaklari bilan keskin qarama-qarshi bo'lgan o'ziga xos istakni bildiradi.

Madaniy talqin:

Zumrad va Qimmat o'rtasidagi modallikning qarama-qarshi qo'llanishi fidoyilik va burch va xudbinlik va ochko'zlikning madaniy qadriyatlarini ajratib ko'rsatadi. Zumradning modal iboralarni qo'llashi o'zbek madaniy idealini oila va jamoani shaxsiy manfaatdan ustun qo'yishni aks ettirsa, Qimmatning shu kabi modallar bilan chegaralangan istaklari ijtimoiy totuvlikni buzgani uchun axloqiy jihatdan noto'g'ri ko'rsatilgan. Bu ertak jamoaviy qadriyatlarga mos keladigan istaklar qanday taqdirlanishini, o'zini o'zi o'ylaydiganlar esa salbiy oqibatlariga olib kelishini va boshqalar oldidagi burchlarini bajarish muhimligini kuchaytiradi.

REFERENCE:

1. Askarovich, H. A. (2021). EXPRESSION OF CONNOTATIVE MEANING IN GRAPHIC MEANS. *International Engineering Journal For Research & Development*, 6 (TITFL), 91–94.
2. Haydarov, A. A. (2019). METHODOLOGICAL FEATURES OF IMITATION WORDS. *Theoretical & Applied Science*, (10), 688-690. https://www.elibrary.ru/ip_restricted.asp?rpage=https%3A%2F%2Fwww%2Eelibrary%2Eru%2Fitem%2Easp%3Fid%3D41328966.
3. Askarovich, H. A. (2021). EXPRESSION OF CONNOTATIVE MEANING IN GRAPHIC MEANS. *International Engineering Journal For Research & Development*, 6, 91-94.
4. Haydarov, A. (2020). Methodological features of graphic tools. *Middle European Scientific Bulletin*, 5.
5. Askarovich, H. A. (2022). SOME COMMENTS ON THE STYLISTIC REPETITION. *JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*, 8 (1), 87–91.
6. Haydarov, A. (2019). Madaniyat va san'at sohasini boshqarish asoslari. O'quv qo'llanma. Toshkent. -" Kamalak" nashriyoti, 192.
7. Askarovich, H. A. (2023). THE PROBLEM OF THE STUDY OF ANTHROPONYMS. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(3), 868-870.
8. Haydarov, A. A. (2023). KOMBINATOR VA POZITSION FONETIK O'ZGARISHLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA). *SUSTAINABILITY OF EDUCATION, SOCIO-ECONOMIC SCIENCE THEORY*, 1(6), 172-175.
9. Navruzova, N., & Haydarov, A. (2021). CONNOTATIVE MEANINGS RELATED TO SOUND CHANGES. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 8(8).
http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/4462.
10. Askarovich, H. A. (2021). Alliteration and Assonance in Artistic Image-As a Stylistic Figure. In *INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY RESEARCH AND INNOVATIVE TECHNOLOGIES* (Vol. 2, pp. 114-119).
11. Haydarov, A. A., & Mansurova, D. (2023). THE ROLE OF INTONATION IN SPEECH AND ARTISTIC SPEECH. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(1), 673-676.

12. Askarovich, H. A. (2023). THE EXPRESSION OF THE INTENSITY OF WORDS AT LANGUAGE LEVELS. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(1), 638-642.

13. A. A. Haydarov, & M. Yunusova. (2022). THE PHENOMENON OF POLYSEMY. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(12), 2044–2048.

Retrieved from <https://www.giirj.com/index.php/giirj/article/view/4251>

14. A. A. Haydarov, & Sh. Sattorova. (2024). Comments on Phonographical Stylistic Devices. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 2(1), 424–429. Retrieved from <https://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/2822>.

ПРЕИМУЩЕСТВА И НЕДОСТАТКИ СМЕСОВЫХ ОДЕЖНЫХ ТКАНЕЙ

доцент Ш.Э.Туланов

Ташкентский институт текстильной и легкой промышленности

ID <https://orcid.org/0000-0001-7367-1970>, SC 58068116100

лаборант О.В.Прозорова

Ташкентский институт текстильной и легкой промышленности

Студент группы 8-21 М.Рихсибаева

Ташкентский институт текстильной и легкой промышленности

Студент группы 8-22 И.Рихсибаев

Ташкентский институт текстильной и легкой промышленности

Студент группы 8-21 М.Тухтамуратова

Ташкентский институт текстильной и легкой промышленности

Аннотация: при выборе одежных тканей нужно обратить внимание на гигиенические и механические свойствам тканей, которые являются показателями безопасности. В статье приводятся результаты исследований, влияния волокнистого состава тканей на их показатели, так как ткани должны создавать нормальные условия для жизнедеятельности, быть без вредными и создавать максимальные удобства при носке.

Annotatsiya: kiyim uchun mato tanlashda xavfsizlik matolarning ko'rsatkichlari hisoblangan gigienik va mexanik xususiyatlariga e'tibor berish kerak. Maqolada matolarning tolali tarkibini ularning hususiyatlariga ta'siri bo'yicha tadqiqotlar natijalari keltirilgan, chunki matolar hayot uchun qulay sharoitlarni yaratishi, zararsiz bo'lishi va maksimal kiyish qulayligini yaratishi kerak.

Abstract: when choosing clothing fabrics, you need to pay attention to the hygienic and mechanical properties of the fabrics, which are safety indicators. The article presents the results of research on the influence of the fibrous composition of fabrics on their performance, since fabrics must create normal conditions for life, be harmless and create maximum wearing comfort.

Ключевые слова: смесовая ткань, воздухопроницаемость, гигроскопичность, поверхностная плотность, разрывная нагрузка, стойкость к истиранию.

ВВЕДЕНИЕ

Какие требования предъявляет современный потребитель к одежде? Прежде всего, она должна быть комфортной для работы, сохранять свой

размер, цвет, выдерживать много стирок или химчисток. Безусловно, уход за одеждой должен быть прост и не занимать много времени, а также важно соответствие рабочего костюма корпоративным цветам, принятым в компании.

Чтобы реализовать пожелания потребителей, производители выпускают смесовые ткани, вырабатываемые из нескольких видов волокон или нитей, благодаря чему, можно получить в одной ткани набор желаемых свойств, создать уникальное сочетание преимуществ [1-4].

В современной текстильной промышленности широкое распространение получили смесовые ткани, состоящие из натуральных и синтетических волокон, натуральные волокна отвечают за гигиеничность тканей, а синтетические волокна значительно повышают его эксплуатационные качества. В результате получается долговечный, прочный, комфортный в носке материал [5-9].

Соотношение различных видов при смешивании может варьироваться. Во многих случаях оптимальным считаются следующие варианты:

- 70% натуральное и 30% синтетическое
- 40% натуральное и 60% синтетическое

30% - это пороговая величина, позволяющая добиться ощутимого успеха. Такое количество полиэфира делает ткань несминаемой, не влияя на ее комфортность. При добавлении 30% хлопка в синтетику устраняются неприятные тактильные ощущения, материя становится воздухопроницаемой (рисунок 1) [10-16].



Рис. 1. Ассортимент смесовых тканей.

МЕТОДЫ ИСПЫТАНИЯ

Перед проведением испытательных работ, образцы выдерживались в нормальных климатических условиях согласно ГОСТ ИСО 139-2014.

Для проведения эксперимента выбрано 5 образцов различного волокнистого состава. Все испытание провели в приборах Японского производства, такие как GX-400 - весы, AG-1 – разрывная машина, M235/3 – определитель стойкости тканей к истиранию по методу Мартин Дейла, AP-360SM – определитель воздухопроницаемости и RS-101D – определитель электризуемости тканей. Условия работы при испытании - температура в помещении – 20 ± 2 °C, относительная влажность воздуха – 65 ± 4 %.

Все испытания проводились по методам испытании согласно ГОСТ 3811-72, ИСО 3932-76, ГОСТ 3813-72, ИСО 5081-77, ГОСТ ИСО 12945-2014, ГОСТ ИСО 12947-2014, ГОСТ 12088-77, ГОСТ ИСО 9237-2013, GB/T 12703.5-2010, JIS L1094-2014, ГОСТ 3816-81, ГОСТ 21790-2005 и ГОСТ 29223-91 [17-21].

РЕЗУЛЬТАТЫ

Для исследования зависимости гигиенических и физико-механических свойств от волокнистого состава, у отобранных образцов при помощи современного оборудования Учебно – испытательной лаборатории «Centexuz» при ТИТЛП (Ташкентский Институт Текстильной и Легкой Промышленности) были определены качественные характеристики тканей. Сравнительная характеристика результатов испытаний образцов тканей различного волокнистого состава предоставлена в таблице 1.

Таблица 1.

Гигиенические и физико-механические показатели тканей

№	Наименование показателей	Единица измерений	Волокнистый состав тканей				
			75	35	60	50	20
			% хлопков	% хлопка	% хлопка	% хлопка	% хлопков
			25	65	40	50	80
			% полиэстера	% полиэстера	% полиэстера	% полиэстера	% полиэстера
			Go rizont	Op tima	Leg ion	Ga mma	Pa triot
			1	2	3	4	5
	Поверхностная плотность	g/m ²	25,2	260,0	252,5	255,5	24,5
	Разрывная нагрузка полоски ткани 50 x 200 mm	N	78	906	731	732	97
	По основе		8	601	498	456	8
	По утку		2				4
	Изменение линейных размеров после	%	3,0	1,5	-2,0	-2,5	1,0
			-	-	-1,5	-1,5	0

стирки			1,5	1,0			
По основе							
По утку							
Стойкость к истиранию	цикл	л	20 000	225 00	215 00	215 00	25 000
Воздухопроницаемость	sm ³ /sm ² ×сек	к	6, 84	5,8 0	6,7 1	7,5 8	4, 08
Гигроскопичность	%		8, 61	5,0 3	5,7 7	5,2 9	3, 25
Электризуемость	V		56 6	891	613	599	91 2
Переплетение			са ржевое	сар жевое	пол отняное	пол отняное	ри п-стоп

Поверхностная плотность ткани, вес 1 м² ткани измеряется в g/m². Масса влияет на прочность, износостойкость.

Прочность характеризуется разрывной нагрузкой N - наибольшим усилием, которое выдерживает полоска ткани к моменту разрыва. Влияет на долговечность изделия и зависит от волокнистого состава, плотности, линейной плотности нитей, отделки. Наибольшей прочностью обладают образцы с большим процентом синтетических волокон (образец № 2 и образец № 5).

Стойкость к истиранию характеризует износостойкость ткани, ее способность противостоять истирающим воздействиям. Оценивается по числу циклов (оборотов) истирания до момента разрушения ткани. Этот показатель может зависеть от многих факторов – состава ткани, толщины, переплетения. Характер и интенсивность износа зависят и от условий эксплуатации изделия, характера деятельности, индивидуальных особенностей человека, условий внешней среды. Из эксперимента видно, что в образцах, где присутствует синтетическое волокно, этот показатель выше (образец № 2 и образец № 5).

Гигроскопичность характеризует способность поглощать водяные пары. Оценивают в % по увеличению массы пробы при выдерживании ее при относительной влажности воздуха, близкой к 100 %, относительно сухой пробы. Гигроскопичность зависит, в основном, от сырьевого состава. Ткани из хлопковых волокон имеют более высокую гигроскопичность, чем из химических волокон. Самая высокая гигроскопичность у образцов, где больше натурального хлопка (образец №1).

Воздухопроницаемость характеризует способность ткани пропускать через себя воздух. Оценивают по количеству воздуха, прошедшему через 1 м² ткани в течении 1 секунды при постоянном перепаде давления по обе стороны образца. Зависит от состава ткани, строения, пористости и толщины.

Усадка - это сокращение размеров ткани при замачивании, стирке или влажно-тепловой обработке. Это негативное свойство ткани, так как оно приводит к существенным потерям в производстве и ухудшает качество готовых швейных изделий. Величина усадки тканей зависит от многих факторов, и в первую очередь от вида волокон, структуры нитей и ткани.

ВЫВОДЫ

Материалы со смешанным составом стали востребованными среди потребителей благодаря своим многочисленным достоинствам. Они:

- Характеризуются долговечностью. Срок эксплуатации некоторых разновидностей достигает 5 лет. Для сравнения – у хлопка эти показатели не превышают 1 ÷ 1,5 лет.

- Имеют высокие эксплуатационные свойства. Устойчивы к влаге, пыли, различным температурам.

- Обеспечивают комфортность использования. Обладают гигроскопичностью, воздухопроницаемостью, избавляя от развития патогенной микрофлоры.

- Отличаются простотой в уходе. Не линяют, не мнутся, не садятся.

- Привлекают доступной стоимостью. Стоит смесовый материал гораздо дешевле натурального.

При оптимальном сочетании натуральных и искусственных составляющих смесовые ткани практически лишены недостатков. При работе с некоторыми материалами могут возникнуть трудности с раскроем, что объясняется особой структурой волокон. Недочеты наблюдаются в таких случаях, когда в составе высок процент синтетики. Такие разновидности электризуются, снижается их гигроскопичность. Они могут создавать эффект парника и не поддерживать естественную температуру тела. При этом ухудшаются и тактильные характеристики: материя становится жесткой на ощупь, может натирать кожу, вызывать аллергию.

Смесовые ткани прочно вошли в современную жизнь. Встретить их можно в различных сферах деятельности. В первую очередь из них производят одежду для работников различных отраслей, где именно зависит от волокнистого состава:

- Ткани с высоким содержанием хлопка оценили работники газовой промышленности и авиации.

- Варианты с преобладанием синтетических нитей (особенно полиэфира) нашли свое место среди строителей, металлургов, работников медицинской сферы.
- Комбинированный материал, пропитанный огнеупорными составами, стала незаменимой для рабочих энергетического производства.
- Смесовая ткань с различными пропитками и покрытиями используется для пошива верхней одежды представителям силовых структур, МЧС, ДПС, то есть тем людям, которые много времени проводят на улице.

Также сочетание искусственных и натуральных нитей позволяет выпускать удобную, надежную экипировку для спортсменов, туристов, рыболовов, охотников. Смесовые полотна используются и для пошива повседневных нарядов: курток, плащей, детских комбинезонов, юбок, платьев.

В погоне за удешевлением своей продукции недобросовестные производители добавляют совсем небольшой процент натуральных волокон или заменяют искусственными волокнами. Такой материал имеет эстетичный внешний вид, долго не теряет форму, но это негативно сказывается на гигиенических показателях. Поэтому при покупке тканей или готовых изделий всегда нужно изучать этикетку, где указан волокнистый состав в процентном соотношении компонентов.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ:

1. Tulanov S., Ahmedov J., Prozorova O. Causes and methods for determining the pilling ability of knitted fabrics depending on the fibrous composition //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing, 2024. – Т. 2969. – №. 1.
2. Туланов Ш. и др. Влияние волокнистого состава на качественные показатели пальтовых тканей //Models and methods in modern science. – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 136-142.
3. Султанов К. С., Исмаилова С. И., Туланов Ш. Э. Экспериментальные закономерности деформирования хлопковой пряжи при растяжении //Известия вузов. Технология текстильной промышленности. – 2016. – Т. 4. – №. 364. – С. 63-67.
4. Султанов К. С., Исмаилова С. И., Туланов Ш. Э. Нелинейная упруго-вязкопластическая модель деформирования хлопковой пряжи при растяжении //Известия вузов. Технология текстильной промышленности. – 2016. – Т. 5. – №. 365. – С. 109-115.

5. Tulanov S. E. et al. Composite yarn of the new structure for the functional fabrics. Scientific and Technical Journal of NAMIET. Vol. 7, Issue 1, 2022 [Электронный ресурс].
6. Sultanov K. et al. Experimental determination of cotton yarn strength at different speeds of movement obtained by various technological methods //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2021. – Т. 304. – С. 03026.
7. Baymuratov B. et al. Strain characteristics of cotton yarns depending on the strain rate and methods of their manufacture //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2021. – Т. 304. – С. 03027.
8. Fahritdinovna, V. Z., Erkaevich, T. S., Viktorovna, P. O., & Kizi, J. Z. R. (2022). Comparative analysis of the qualitative characteristics of national fabrics.
9. Туланов Ш. Э., Эркинов А., Бахромова А. ВЫБОР ТКАНИ ДЛЯ ЛЕТНЕЙ ПОЛЕВОЙ ФОРМЫ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ //QISHLOQ XO'JALIGI VA GEOGRAFIYA FANLARI ILMIY JURNALI. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 5-10.
10. Туланов Ш. Э., Прозорова О. В., Юнусова З. М. ВЛИЯНИЕ ВОЛОКНИСТОГО СОСТАВА НА ПОКАЗАТЕЛИ ЛЬНЯНЫХ ТКАНЕЙ //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2024. – Т. 2. – №. 17. – С. 550-554.
11. Туланов Ш. и др. ОСОБЕННОСТИ ВЫБОРА КОСТЮМНЫХ ТКАНЕЙ ДЛЯ СОТРУДНИКОВ ГОСТИНИЦ //WORLD OF SCIENCE. – 2024. – Т. 7. – №. 9. – С. 11-15.
12. Туланов Ш., Прозорова О., Юнусова З. ИЗУЧЕНИЕ СВОЙСТВ НАЦИОНАЛЬНОЙ УЗБЕКСКОЙ ТКАНИ “БЕКАСАМ” РАЗНОГО ВОЛОКНИСТОГО СОСТАВА //Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 4. – С. 73-76.
13. Туланов Ш. и др. ОБЗОР НАЦИОНАЛЬНЫХ УЗБЕКСКИХ ТКАНЕЙ ДЛЯ ПОШИВА “ЧАПАНА” //AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE. – 2024. – Т. 2. – №. 2. – С. 49-57.
14. Туланов Ш. Э. ВЛИЯНИЕ ПЕРЕПЛЕТЕНИЙ НА КАЧЕСТВЕННЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ТРИКОТАЖНЫХ ПОЛОТЕН //Central Asian Academic Journal of Scientific Research. – 2022. – Т. 2. – №. 6. – С. 413-421.
15. Fahritdinovna, V. Z., Erkaevich, T. S., Viktorovna, P. O., & Kizi, J. Z. R. (2022). Comparative analysis of the qualitative characteristics of national fabrics.
16. Туланов Ш. Э., Прозорова О. В., Хайдаров У. П. СВОЙСТВА ДЖИНСОВЫХ ТКАНЕЙ В ЗАВИСИМОСТИ ОТ ВОЛОКНИСТОГО

СОСТАВА ТКАНИ //Analysis of International Sciences. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 41-46.

17. Под ред. проф. А.Н. Неверова **“Товароведение и экспертиза промышленных товаров”**: Учебник /. - М.: МЦФЭР, 2006. - 848 с.

18. Бузов, Б.А. Лабораторный практикум по материаловедению швейного производства : учеб. пособие для вузов/ Б. А. Бузов, Н. Д. Алыменкова, Д.Г. Петропаловский и др. М.: Легпромбытиздат, 2008. - 432 с.

19. Букина Ю.А., Сергеева Е.А. “Методы контроля качества текстильных материалов. Определение физико-механических характеристик и поверхностных свойств.” Вестник Казанского технологического университета. Т.15 №11, -2012г., с 49-55.

20. Хабалашвили Н.М. Исследование электростатических свойств одежных текстильных материалов применительно к условиям эксплуатации. Диссертация канд.тех.наук. 162 стр.

21. Фомин Б.М. Потребности текстильной промышленности в химическом сырье. Текстильная промышленность №3.2001г.

CULTURAL DIFFERENCES BETWEEN CHINA AND WESTERN COUNTRIES

Sultanova Jasmina Nurmuxammad qizi

Student of Samarkand State Institute of Foreign Languages

Annotation: *The article analyzes key cultural differences between China and Western countries, including values, communication and business ethics. The influence of Confucian traditions, collectivism and hierarchy in China is examined in comparison with Western individualism. Particular attention is paid to intercultural communication and ways to overcome differences.*

Key words: *China, West, cultural differences, Confucianism, collectivism, individualism, communication, business ethics, intercultural communication, social norms. Cultural Differences Between China and Western Countries*

INTRODUCTION

Culture plays a key role in shaping a society's views, behaviors, and social norms. China and Western countries represent two distinct cultural worlds, each based on unique philosophical traditions and historical development. These differences are particularly evident in values, business ethics, communication styles, and social norms. Understanding these aspects is crucial for international cooperation and effective intercultural communication.

CORE VALUES

Chinese culture is traditionally based on collectivism, emphasizing the importance of the group, family, and society as a whole. People strive to maintain harmony, avoid confrontation, and act in the interests of the collective. In contrast, Western countries are dominated by individualism, where personal achievements, freedom of choice, and independence take priority.

Hierarchy plays a significant role in both social and professional life in China. Relationships are built on respect for elders and superiors, and decision-making often depends on one's position in the societal structure. Western cultures, on the other hand, embrace the idea of equality, which manifests in more democratic approaches to management and greater social mobility.

Communication Differences

Chinese culture is considered high-context, where non-verbal cues, tone of speech, and situational context carry great significance. People tend to express their thoughts indirectly, avoiding direct refusals and harsh criticism. In

contrast, Western cultures are low-context, meaning that messages are conveyed explicitly, without hints, and honesty and directness are valued.

The concept of "saving face" (面子, miànzi) is crucial in Chinese society. People strive to avoid situations that could embarrass others or damage their reputation. In Western cultures, less emphasis is placed on social status, and conflicts are often seen as a normal part of communication.

BUSINESS CULTURE

In China, negotiations tend to be long-term, with a strong focus on building trust and relationships (关系, guānxi). The Western approach is more results-driven, emphasizing efficiency and adherence to contractual obligations.

In Chinese culture, work is seen as a collective effort, and loyalty to a company is considered a duty to the group. In Western countries, the concept of work-life balance is widely embraced, and employees often change jobs in pursuit of better opportunities.

CONCLUSION

The differences between Chinese and Western cultures span a broad range of aspects, from personal values to professional standards. To foster successful interactions, it is essential to recognize these differences and adapt communication and business practices accordingly. A deep understanding of cultural diversity contributes to more effective and harmonious international relationships.

LIST OF REFERENCES:

1. Hofstede, G. *Cultures and Organizations: Software of the Mind*. – St. Petersburg: Piter, 2019.
2. Trompenaars, F., Hampden-Turner, C. *Riding the Waves of Culture: Understanding Diversity in Global Business*. – Moscow: Unity, 2018.
3. Hall, E. *The Silent Language*. – Moscow: Progress, 1990.
4. Zhang, Y. *Chinese Culture and Intercultural Communication*. – Beijing: Foreign Language Teaching and Research Press, 2015.
5. Needham, J. *Science and Civilization in China*. – Moscow: Nauka, 1988.
6. Fei Xiaotong. *The Chinese and Their Culture*. – Beijing: The Commercial Press, 2013.
7. Jin, L. Confucian Values in Modern Chinese Society. // *Journal of Oriental Studies*, 2020, No. 3, pp. 45–60.
8. Bennett, M. *Fundamentals of Intercultural Communication*. – St. Petersburg: Piter, 2021.

EKOLOGIYA, OZIQLANISH VA INSON SALOMATLIGI

Camu o'qituvchisi: Parpiyeva Odinaxon

Davolash 1423 guruh talabasi

Erkinova Gulnoza

Anotatsiya: Atrof-muhitning ifloslanishi inson salomatligiga qanday ta'sir qilishiga, oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va ekologik omillarning organizmga ta'siri haqidagi ma'lumotlarga keng o'rin berilgan. Shuningdek, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ekologik toza mahsulotlarni iste'mol qilish va kasalliklarning oldini olish bo'yicha tavsiyalar berilgan. Kitob talabalarga, ekologiya va tibbiyot sohasidagi mutaxassislariga, shuningdek, sog'lom hayot tarziga qiziqqan barcha kitobxonlarga mo'ljallangan.

Kalit so'zlar: *Ekologiya, inson salomatligi, oziqlanish, atrof-muhit, havoning ifloslanishi, organik mahsulotlar, ekologik muammo, sog'lom turmush tarzi, oziq-ovqat xavfsizligi, toksik moddalar, barqaror qishloq xo'jaligi, pestitsid, qandli diabet.*

KIRISH

Ekologik muhit inson salomatligiga bevosita ta'sir qiladi. Havoning ifloslanishi, suv resurslarining sifatining pasayishi va tuproqdagi kimyoviy moddalar ko'payishi inson organizmiga zarar yetkazadi. Masalan, havodagi zararli moddalar nafas yo'llari kasalliklarini keltirib chiqarishi, zaharli kimyoviy moddalar esa immunitet tizimini zaiflashtirishi mumkin.

Oziqlanish va salomatlik

To'g'ri ovqatlanish inson salomatligi uchun asosiy omillardan biridir. Vitaminlar, minerallar va oqsillarga boy bo'lgan tabiiy mahsulotlarni iste'mol qilish organizmni sog'lom saqlaydi. Aksincha, tez tayyorlanadigan ovqatlar, sun'iy qo'shimchalar va konservantlar ko'p bo'lgan mahsulotlar yurak-qon tomir kasalliklari, semizlik va qandli diabet kabi kasalliklarga sabab bo'lishi mumkin.

Ekologiya va oziqlanishning o'zaro ta'siri

Ekologik muhit oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligiga ham bevosita ta'sir qiladi. Masalan, pestitsidlar bilan ishlov berilgan sabzavot va mevalar, og'ir metallar bilan ifloslangan suv mahsulotlari odamlar organizmiga kirib, uzoq muddatli salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun ekologik toza mahsulotlarni iste'mol qilish, organik dehqonchilik va barqaror qishloq xo'jaligiga e'tibor qaratish muhimdir.

Ekologiya, salomatlik, tabiat, chang, zarar. Inson hech qachon tabiatsiz yashay olmaydi, chunki u tabiatning ajralmas qismi hisoblanadi. Biz yashab turgan va bizni o'rab turgan olam xuddi onamiz kabi mehribon va jonkuyar. Quyoshning har zarrasida, tuproqning har jismida tabiatning bizga bo'lgan onadek mehribon taftini his qilamiz. O'zining har bir jabhasida inson uchun zarur bo'lgan minglab unsurlarni mujassam etgan. Ana shunday go'zal tabiatimiz bugungi kunga kelib qay ahvolga tushmoqda? Bunga kimlar sababchi? Buni qanday oldini olish mumkin? Degan savollar bugungi kunning dolzarb mavzusiga aylanmoqda. Ming afsuski inson tabiatga misli ko'rilmagan miqdorda tasir ko'rsatadi. Inson aql-zakovati orqali, mehnat faoliyati tufayli ta'sir qilishini hech bir narsa bilan taqqoslab bo'lmaydi. Aniqroq aytadigan bo'lsak mavjudotlar tabiatdan qanday bo'lsa, shunday foydalanib, unga sezilarsiz tasirini o'tkazadi. Insoniyat uni o'rab turgan barcha shart-sharoitlarga moslasha oladi, moslasha olmas, uni o'zi istaklariga moslashtiradi, natijada tabiat muvozanati buziladi, buzilgan muvozanat esa katta ta'lofatlarga olib keladi. Tirik mavjudotlarni o'rab turgan ekologik muxit, asosan, insoniyat tomonidan salbiy tomonga o'zgartirib yuborildi, buning asosiy sababi zavod-fabrikalar, transportlar va ulardan chiqayotgan chiqindilar. Bu o'zgarishlar atrof-muhitni shu darajada o'zgartirdiki, barcha tirik mavjudotlar qatori inson salomatligiga ham o'z tasirini o'tkazdi. XXI asr insoniyat faoliyatining har bir sohasida, ayniqsa, tibbiyotda buyuk kashfiyotlar qilib, milliardlab mablag'larsarflanishiga qaramay, insonlar arganizmiga kasalliklar xavf solishi va hoyotda bevaqt ko'z yumushlar ko'p uchraydi. Biz atrof-muhitga va inson salomatligiga jiddiy zarar yetkazadigan atrof-muhitga ta'sirini tavsiflash bilan boshlaymiz. Bu yerda biz nafaqat o'simliklar va hayvonlarga yetkazilgan zarar haqida gapiramiz, balki bu ta'sirlar odamlarga ham ta'sir qiladi. Odatda, qabul qilinadigan qarorlar atrof muhitga salbiy ta'sirlarni kamaytirish, tabiiy muhitni himoya qilishdan ko'ra, inson salomatligini himoya qilish uchun ko'proq ahamiyatga ega. Ushbu ta'sirlarning asosiy oqibatlarini umuman sayyoramizning ifloslanishidir. Biz suv, tuproq, havoning ifloslanishini, ekotizimlarning yo'q qilinishini, yashash joylarining parchalanishini va boshqalarni ko'rishimiz chiqindilar bilan ifloslanadi.

Inson tabiiy sharoit va boyliklardan ko'p maqsadlarda foydalanadi. Bu esa ayni paytda, tabiatni tegishlicha muhofaza qilishni ham taqozo etadi. Bular: xo'jalik, sog'liqni saqlash va gigiyena, nafosat (estetik), turizm, ilmiy hamda tarbiyaviy maqsadga muvofiq foydalanish. Maqsadga muvofiq foydalanish deganda, tabiat boyliklaridan mamlakat yoki butun insoniyat manfaati yo'lida foydalanish tushuniladi. Bunda hozirgi va kelajak avlodning manfaatlarini

ko'zlab faoliyat yuritish nazarda tutiladi. O'z taraqqiyotini oldindan uzoq muddatga ilmiy asosda rejalashtira oladigan va tabiiy muvozanatni o'zgartirmasdan foydalana oladigan jamiyatgina taraqqiyotga erishadi

Xulosa: Ekologiya, oziqlanish va inson salomatligi o'zaro chambarchas bog'liq. Atrof-muhitni asrash, sog'lom turmush tarzini olib borish va tabiiy mahsulotlarni iste'mol qilish orqali biz kelajak avlod salomatligini ham himoya qilamiz

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mazkur ma'lumotlar G'. S. Iskandarova va boshqalar. "Ekologiya va inson salomatligi" (2020) kitobidan .

2. EKOLOGIYA BUZILISHINING INSON SALOMATLIGIGA TA'SIRI Umarov Faxriddin Baxriddin o'g'li Maqoladan

3. Karimov I.A., O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barkarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari, T., 1997; Akramov

4. M., Rafikov A.A., Proshloye, nastoyasheye i budusheye Aralskogo morya, T.,

5. 1990; Nig'matov A.N., O'zbekiston Respublikasining ekologik huquqi, T

6. 2004; Rafikov A.A., Geoekologik muammolar, T.,

7. 1997; To'xtayev L., Hamidov A., Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish, T.

8. 1994; G'ulomov P.N., Inson va tabiat, T., 1999.

FAQIRIY IJODIDA OGAHIYGA IZDOSHLIK TALQINI

Mehribon Qo'shnazarova

UrDU akademik litseyi o'qituvchisi

Akbar Otaboyev

UrDU tayanch doktoranti

Xorazm adabiy muhiti vakillaridan biri Abdurazzoq Abdujabbor o'g'li Faqiriy 1880-yilda Xiva yaqinidagi Bo'zxona qishlog'ida kambag'al dehqon oilasida tavallud topgan. Otasi Abdujabbor o'sha davrning yetarlicha ma'lumotga ega ilg'or ziyolilaridan bo'lib, adabiyot va san'atga ixlosi baland inson bo'lgan. Albatta, yosh Abdurazzoqning she'riyatga, xattotlik ilmi va ganchkorlik san'atiga qiziqishida, keyinchalik Xiva shahridagi madrasalardan birida savod chiqarishida otasining xizmatlari benihoya kattadir.

Faqiriy mumtoz adabiyot bilan yaqindan tanishish orqali, hazrat Alisher Navoiy va u zotning ustozlari Abdurahmon Jomiy ijodiga ayricha ixlos bilan qaray boshlaydi. Ularning "Xamsa"sidan o'rin olgan Layli va Majnun, Farhod hamda Shirin obrazlari keyinchalik ham Faqiriyning she'rlarida talmeh san'atiga asos bo'ldi ("*Misli Majnunman, ayo Layli nishon, arzim eshit*" yoki "*Sen erding, ey dilbari Shirin, chu men Farhodi dunyoni...*" kabi). Shu o'rinda bir narsaga e'tibor qaratish lozim.

Faqiriy lirikasida uning tabarruk salafalaridan biri, o'zbek adabiyotining Navoiydan keyingi eng yetuk vakili Muhammad Rizo Ogahiy ijodiga hamohanglik yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu ikki ijodkor ham Navoiyni o'ziga pir darajasida tutishgan, ijodiga alohida ehtirom bilan qarashgan. Bir paytlar Ogahiy "Sango" radifli g'azalida:

Ogahiykim, topqay erdi sozi nazmingdin navo,

Bahra gar yo'qtur Navoiyning navosidin sango⁹, -

degan bo'lsa, Faqiriy ham unga mutanosib ravishda "Betaklif mehmon" musaddasini shunday boshlagan edi:

Ey ko'ngul, nazm ichra yorumand Navoiydur senga,

Yaxshilarni so'zidin naql et, davoyidur senga¹⁰...

Faqiriy hayoti muhtojlikda o'tgan. Adolatparvarlik g'oyalari ta'sirida ulg'aygan ijodkorning she'rlaridagi tanqidiy ruhning yuqoriligi, havjij pafosning ustuvorligi, albatta, hammaga ham yoqavermagan. Natijada shoir o'z ta'biri bilan aytganda, "*tinmayin yurt kezgan daydi sak'larning, ya'ni*

⁹ Ogahiy. Asarlar, 6 jildlik (1-jild). G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1971. – B.69

¹⁰ Abdurazzoq Faqiriy. She'rlar (f.f.n V.Mirzayev nashrga tayyorlagan). G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1972. – B.80

sipohiyalar-u a'yonlarning tazyiqi ostida yashashga majbur bo'lgan. Shuning uchun ham shoir bu dunyoning aysh-u ishrati, to'kin-sochinligi-yu bevafo dilrabolaridan ko'ngil uzib, mudom Haq yodi bilan toat-ibodatda yashadi:

Gar Faqir ersang bu savdodin senga yo'q zarra sud,

*Haq bila bo'lg'il kiming bor ko'pka xosdor o'zgaga*¹¹.

Hatto ro'zg'or tebratishga ham kuchi yetmagan shoir qalandarxonada hayot kechirishga majbur bo'ladi. Bu haqda ijodkorning o'zi ta'kidlaydi: "... baxt iqbolim pastlig'ig'a darig'lar chekib, chora topolmay, gohlar o'tga tushgan qil masalliq to'lg'onib va gohlar haqorat va mazammat xokig'a bulg'anib xor-zor, afgor-u bemor, balki devonavor majnunshior bo'lib, bu muddatg'acha man faqir ul haqir qalandarxonaning bir kunjida xokisor bo'lub yotg'udek ranj-u alamlarg'a, zulm-u sitamlarg'a duchor bo'ldim"¹². Shoir shuning uchun bo'lsa kerak, shoir she'rlarida "Faqiriy" taxallusini qo'llagan. Faqiriyning "Qissam uzunroq" masnaviysida "kichiklikdan boshiga kulfat tushgan"ligi, "hech zamon beranj-u bemehnat bo'la olmagan"i, "hech ishda murodi hosil bo'lmay",

" ko'nglida har kun har turli qayg'u" bo'lganligini yozgan. Shunga o'xshash masnaviy Ogahiyda ham uchraydi. Ikkala masnaviyning ham dastlabki baytlari aynan bir xil, qolgan misralarda shakl o'zgaradi-yu, ammo mazmuniy bir xillik davom etadi:

Kichiklikdin tushib boshimg'a kulfat,

Zamone bo'lmadim beranj-u mehnat.

... Ishim bekaslik ichra bo'ldi mushkul,

*Murodim bo'lmadi hech ishda hosi*¹³.

Hazaji musaddasi mahzuf (yoki maqsur) vaznida bitilgan ikkala masnaviyda ham lirik qahramonning "ko'nglida yuz nav qayg'u", "yorug' olam ko'zga qorong'u" bo'lganligi aytila turib, oxirgi misralarda Ogahiy "g'amingning ondin fuzunroq", "sharhining nihoyatidin uzunroq" bo'lganligini ta'kidlasa, Faqiriy ushbu fikrni talmeh san'ati yordamida mubolag'ali shaklda bo'rttirib ohoriy tasvirlaydi:

Desam boshdin-oyoq qissam uzunroq,

*Ki sharhi "Shohnoma" din fuzunroq*¹⁴.

Faqiriyning ijodiy jarayonga, she'riyatga munosabatida ham Ogahiyga izdoshlik, maslak-qarashlardagi hamohanglik sezilib turadi. Ogahiy bir masnaviysida "she'r yaxshilar shiori", "jahonda to qiyomat yodgori" ekanligini, "kishiga she'ridan boshqa yaxshi farzand", "boqi farzandi dilband" yo'qligini

¹¹ O'sha manba. – B.46

¹² Karimova Farida. Xorazm adabiy muhitida debochanavislik. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnalidan. 2004. № 3. – B.39

¹³ Ogahiy. Asarlar, 6 jildlik (1-jild). G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1971. – B. 37

¹⁴ Abdurazzoq Faqiriy. She'rlar. G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1972. – B. 15

e'tirof etadi. Aynan, Faqiriy ham "Shoir ranjida xotir" masnaviysini mana shu misralar bilan boshlaydi va Ogahiyning fikrlarini davom ettiradi:

Bo'libdur she'r yaxshilar shiori,

Jahonda to qiyomat yodgori.

Kishiga she'ridin yo'q yaxshi farzand,

Ki, doim boqi ul farzandi dilband¹⁵.

Shoir e'tirof etganidek, "ishi doim firib-u hiyla, makkor" bo'lgan "vafosiz dunyoyi purzor"da inson ko'p mashaqqatlar chekishi, qismat uning boshiga turfa sinovlarni solishi, kimlardir yorsiz toq o'tdim deya nolisa-yu, kimlardir pok juftidan bezor yashashi, nechalar tirnoqqa zor yursa-yu, nechalar o'g'il-qizidan ozor ko'rib, peshonasidan nolib o'tishi mumkin. Biroq shoir uchun uning og'riqli qalbiga malham, vujudidagi ishq taftining aksi jilvalangan jo'shqin jilg'alar ham uning she'rlaridir.

Faqiriyning "Sallamno" radifli g'azalini mutolaa qilar ekansiz, shoir bu she'rni bevosita Ogahiydan ilhomlanib yaratganligini darrov ilg'aysiz. Bunday radifli g'azal Ogahiyda ham uchraydi. Har ikkala g'azal aruzning hazaji musammani solim vaznida yozilgan. Masalan, Ogahiy yozadi:

Jahon bozorida sindurdi yoqut-u guhar qadrin,

Durafshon nuqta birla la'li xandoningg'a sallamno¹⁶.

Bir paytlar Amiriy (Amir Umarxon) yoridan "takallumg'a lab uyurib" "qand qiymatin" bozorda sindirishini so'ragani kabi Ogahiy ham "jahon bozorida" "yoqut-u guhar qadrin" sindirgan ma'shuqaning la'ldek lablariga sallamno aytadi. Faqiriy mana shunday betakror jozibadan benihoya ta'sirlanadi va o'zi ham shunday g'azal yaratadi. U "g'aribona kulbasini munavvar aylagan yorning diydoriga", oshig'ini "qalandar qilgan ruxsoriga" hayrat nigohi bilan qaraydi. Faqiriy g'azal maqta'sida o'z taxallusining asl ma'nosiga ishora qilib, itfoq san'ati asosida o'z-o'zini "bevafoardan tamagin bo'lmaslik"ka davat etadi, chunki ular "necha vasfin qilsa ham, ash'origa bir og'iz bo'lsa ham, sallamno" aytmaliklariga ishonadi:

Faqir ersang tamagin bo'lma hargiz bevafolardin,

Necha vasfin desang ham aytmash ash'oringga sallamno¹⁷.

Faqiriy va Ogahiy lirikasida oshiq, ma'shuqa obrazlari qatorida "jononidan ayrilmoqning boisi" (Faqiriy) hamda "bazmi visolga mone" (Ogahiy) bo'lgan **ag'yor, raqib, g'anim** timsollari ham bevosita ishtirok etadi. Masalan, Ogahiyning "Raqib" radifli g'azali shunday matla' bilan boshlanadi:

Mone bazmi visol o'ldi mango shum raqib,

¹⁵ O'sha manba. – B.18

¹⁶ Ogahiy. Asarlar, 6 jildlik (1-jild). G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1971. – B.90

¹⁷ Abdurazzoq Faqiriy. She'rlar. G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1972. – B.45

*Bo'lsun oshufta-yu avvora-yu ma'dum raqib*¹⁸.

Faqiriy ham “raqib”ga, ya’ni tasavvuf talimotiga ko’ra insonni hoy-u havasga chorlaydigan “ichimizda asti pinhon bo’lmaydigan dev” (Najmiddin Kubro) bo’lmish nafsga, o’zining oshkora nafratini, e’tirozini bildirib o’tadi:

Chu jononidin ayrilg’onni ko’rdim,

*Aning ham boisi ag’yor ekandur*¹⁹.

Har ikkala ijodkor she’riyatidagi obrazlar tizimi haqida gap borar ekan, qadimdan mumtoz adabiyotimizda hayoti va sifatleri talmeh san’atiga asos bo’lib kelayotgan Yusuf timsolini e’tibordan chetda qoldirolmaymiz. Yusuf (a.s.) o’zining go’zalligi hamda bir qator xususiyatlari bilan folklor asarlarida ham, yozma adabiyot namunalarida ham yashab kelmoqda. Yusuf payg’ambar haqidagi rivoyatlar Qur’oni karimda ham keltirilgan. “*Yusuf payg’ambarga Oллоh tomonidan ko’rk, qiliq, kechirmaklik, yalovochlik, tush ta’biri, kuni so’z, o’z, avoqibat, umur, ta’vili suhuf kabilar karomat qilingan edi*²⁰”. Yusuf timsoli she’riyatda ideal husn egasi bo’lish, ma’shuqa bilan qiyoslash orqali ba’zan uning go’zalligini mubolag’ali tasvirlash, o’zaro tenglashtirish maqsadlarida qo’llangan. Ogahiy yozadi:

Yo’qsa maqsad Yusufi ravshan jamoli mehrining,

*Partavi birla munavvar chohi Bobildur mango*²¹.

Bu yerda “Yusuf va Zulayho” afsonasiga ko’ra Yusuf jamolining nuri Bobil chohida ravshanlik taratganligiga ishora qilinmoqda. Faqiriy lirikasida ham Yusuf qismati va otasi Ya’qubning ayriliqdagi hayoti haqidagi rivoyatga urg’u berilib, talmeh san’atining go’zal namunasi yaratilgan:

Ne bo’lg’ay, men Faqir, benavodin uzmasang ko’ngling,

*Manam vobastaman, Ya’qub nechukkim mohi Kan’ondur*²².

Mumtoz adabiyot namoyandalari haqida qalam tebratganda, avvalo, ularni tasavvufiy she’riyat, tasavvufiy istilohlar va tasavvufiy obrazlar yarata olgan, ijodlarida diniy-axloqiy, tarbiyaviy-estetik qarashlar yetakchilik qiladigan gumanistik siymolar sifatida baholashimiz o’rinli bo’ladi. Shu jumladan, Abdurazzoq Faqiriy ham Navoiy, Jomiylardan tortib Munis, Ogahiygacha davom etayotgan tasavvuf adabiyotining ko’zga ko’ringan namoyandalaridan edi. Bu jihatdan ham uning ijodida Ogahiyga izdoshlik mavjud. Jumladan, Ogahiy

o’zining “Keldilar” radifli g’azalida “kulbasi ichra karam aylab kelgan jononlar”, “har birisi jonidin afzal mehmonlar” haqida fikr yuritadi:

¹⁸ Ogahiy. Asarlar, 6 jildlik (1-jild). G’.G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1971. – B.114

¹⁹ Abdurazzoq Faqiriy. She’rlar. G’.G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1972. – B.51

²⁰ N.B.Rabg’uziy. Qissayi Rabg’uziy. I kitob, T. 1990, – B.101

²¹ Ogahiy. Asarlar, 6 jildlik (1-jild). G’.G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1971. – B.82

²² Abdurazzoq Faqiriy. She’rlar. G’.G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1972. – B.52

Kelturub to'la sog'ar, manga ham dedilar: "Ich!"

Man dedim ibo aylabkim: "Mani qo'yung jonlar".

Dedilar ibo qilmay: "Bodani sumurgilkim,

Qulg'a ish qabul etmak ne buyursa sultonlar"²³.

Yuqoridagi baytlarda "sog'ar" va "boda" istilohlari qo'llangan. Mumtoz she'riyatda uchraydigan "boda", "chog'ir", "sog'ar", "sharob", "may" tushunchalari, aslida murid qalbida jo'sh urayotgan Yaratganga bo'lgan betimsol ishqni anglatadi. Zero, "jononlar" ham Ogahiyning "kulbasi"ga tashrif buyurib, qalbiga Haq ishqini solib qo'yadilar. Bu esa, o'z navbatida, Ogahiyning Mansuri Hallojdek tariqatda komillikka erishgani, Haq visoliga yetishganini bildirishi tabiiy. Binobarin, shoir Faqiriy lirikasida ham mana shunday "Keldilar" radifli g'azal namunasini uchratishimiz mumkin. Faqiriy yozadi:

Shukrkim, izlab meni kulbamga jonon, keldilar,

G'oyibona aylar edim orzu-armon, keldilar²⁴.

Radifdagi "keldilar" so'zi shaklan III shaxs ko'plikda qo'llanib, mazmunan III shaxs birlikka ishora qilmoqda. Bu esa yorga bo'lgan cheksiz hurmat-ehtimomning shakliy ifodasidir. Faqiriyning "Bir pari" radifli g'azali ham yuqoridagi g'azaliga mazmunan yaqin turadi. Bu g'azalda lirik qahramonning beixtiyor "tush ko'rgani", tushida "bir pari" uni yo'qlab kulbasiga kelgani, "oshiqlarning sardafdari", "kamtari" shoirning mahzun ko'nglini shod etgani tasvirlangan. G'azal kompozitsion (tuzilish) jihatidan voqeaband g'azallar sirasiga kiradi, chunki u aniq bir sujet asosiga qurilgan. G'azalda o'qiymiz:

Aydi: "Ey mahzun, seni shod etkali keldim bu kun,

Ol bu sog'arni, no'sh et, g'am uyini abtari".

No'sh qildim sog'arin, dedimki: "Emdi ne kerak?"

Bog'i umring ko'rmasin, bodi xazonin sarsari²⁵.

Bu yerda "sog'ar" deganda, yuqorida ta'kidlanganidek, soqiy (aslida pirmurshid)ning so'fi (murid) qalbiga Alloh ishqini joylab qo'yishi nazarda tutiladi. E'tibor bersak, she'rda "bodi xazon" tushunchasi ham ishtirok etgan. "Bodi xazon" – "xazon shamoli" ma'nosini bildirib, bahor (yigitlik) ortidan keladigan kuz (qarilik, umr poyoni) shamoli bevosita bu dunyoning foniyliigi, umrning o'tkinchiligiga ishora qilmoqda. Hazrat Navoiy yozgan edi:

Xazon sipohig'a, ey bog'bon, emas mone,

Bu bog' tomida gar ignadin tikan qilg'i²⁶.

²³ Ogahiy. Asarlar, 6 jildlik (1-jild). G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1971. – B.183

²⁴ Abdurazzoq Faqiriy. She'rlar. G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1972. – B.53

²⁵ O'sha manba. – B.61

²⁶ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami (20 tomlik), Xazoyin ul-maoniy, G'aroyib us-sig'ar. "Fan" nashriyoti. T. 1988. – B.297

Ya'niki, bog'bon o'z bog'ining atrofini ignadan qilingan chetan bilan o'rab olsa ham, kuz keldimi, baribir barglar sarg'ayib to'kiladi – inson qanchalik urinmasin uning ham umri qachondir nihoyasiga yetadi. Bu esa Faqiriy ham, Ogahiy ham hazrat Navoiy ijodidan birdek “oziqlangan”ini ko'rsatadi.

Har bir adib ijodida ilm-u ma'rifat g'oyalari yetakchi mavqe tutgani kabi Ogahiy va Faqiriyning ham yosh avlodni bilim olishga, ma'naviyatini yuksaltirishga, yangi maktablar barpo etib, xalqni madaniyatli qilish uchun bel bog'lashga tashviq qilib yozgan ash'orlari anchagina. Vaholanki, ilmning hayotimizdagi o'rni benihoya katta. Bu borada Abdulla Avloniy shunday deydi: *“Ilmning foydasi u qadar ko'pdurki, ta'rif qilg'on birla ado qilmak mumkin emasdur. Bizlarni jaholat qarong'uligidan qutqarur. Madaniyat, insoniyat, ma'rifat dunyosiga chiqarur, yomon fellardan, buzug' ishlardan qaytarur, yaxshi xulq va adab sohibi qilur, Alloh taologa muhabbat va e'tiqodimizni ortdirur, janobi Haqning azamat-u qudratini bildirur. Alhosisl, butun hayotimiz, salomatimiz, saodatimiz, sarvatimiz, maishatimiz, himmatimiz, g'ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilmga bog'liqdur”*. Payg'ambarimiz: *«Ilmga amal qilguvchilardan bo'lingiz, naql va rivoyat qilguvchilardan bo'lmangiz», - demishlar*²⁷.

Ogahiy hazratlari “Ilm bo'lmish yod ango” g'azalida shunday bayt keltiradi:

*Ilm andoq ganji nofi'dur bani odamg'akim,
Kimda ul bo'lsa, iki olam bo'lur obod ango*²⁸.

Insonning “ikki olamini obod qiladigan” ilm hosil qilish uchun xalqni savodli qilish talabi bilan o'sha davrda, ya'ni XIX asr oxiri XX asr boshlarida, jadidchilik harakati maydonga keldi. Faqiriy ham shu harakatning peshqadamlaridan biri edi. Ularning fikricha, savod chiqarishning dastlabki yo'li to'xtovsiz rivojlanib borayotgan dunyo ilm-fanini qamrab olgan jadid maktablarini tashkil qilish edi. Faqiriy ham “Yangi maktablar” she'rida shunday qarashlarni badiiy jihatdan go'zal satrlarda ifodalab beradi:

*Bilingkim, toza davron jarchisidur yangi maktablar,
Jaholat qasrini ham buzg'usidur yangi maktablar*²⁹.

Ogahiy ijodida ham, Faqiriy ijodida ham yosh avlodni ma'rifatli qilish, xalqning savodxon bo'lishini ko'rish orzusi, pand-nasihatchilik alohida e'tibor qaratish asosiy o'rin tutadi. Ular o'sha davrdayoq millat taqdiri, uning istiqbolini belgilovchi omillardan biri xalqning turli xil ilm-hunarlarini

²⁷ Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. T. 2004. – B.19

²⁸ Ogahiy. Asarlar, 6 jildlik (1-jild). G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1971. – B.71

²⁹ Abdurazzoq Faqiriy. She'rlar. G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1972. Bet – 14

o'zlashtirishidan iborat ekanligini teran anglashdi. Abdurazzoq Faqiriy har qanday maslak-qarashida ham Ogahiy hazratlarini o'ziga pir darajasida tutganligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Bu holatni, albatta, ijodiy hamkorlik sifatida baholashimiz mumkin. Ikkala jodkorning ham maslak-qarashlarini, badiiy didi va ijodiy yo'lini taqqoslab uyg'unlashtirish bugungi kun adabiyotimiz uchun ahamiyati beqiyos masalalardan biri hisoblanadi.

BUXORO VILOYATIDAGI TUMAN NOMLARINING KELIB CHIQISH TARIXI.

Guliston davlat pedagogika instituti

Tarix yo'nalishi I bosqich

talabasi Homidova Maftuna

Annotatsiya. *Maqola Buxoro tarixiga oid bo'lgan manba va adabiyotlardan foydalangan holda, Buxoro viloyatidagi tumanlar nomlarining kelib chiqishi haqida, tarixda ular qanday atalgani to'g'risida muhim ma'lumotlar beradi.*

Kalit so'zlar: *G'ijduvon, Romiton, Shofirkon, milliy udum, urf-odat, an'ana, qadriyat.*

Аннотация. *В статье с использованием источников и литературы, связанных с историей Бухары, приводятся важные сведения о происхождении названий районов Бухарской области и о том, как они назывались в истории.*

Ключевые слова: *Гиждуван, Рамитан, Шафиркан, национальный обычай, традиция, ценность.*

Abstract. *The article, using sources and literature related to the history of Bukhara, provides important information about the origin of the names of districts in the Bukhara region, how they were called in history.*

Keywords: *Gijduvon, Romiton, Shafirkon, national custom, custom, tradition, value.*

Tarixiy rivojlanish qonuniyati bo'yicha joy nomlari tarix va vaqt o'rtasida kuzatuvchi, voqea hodisalar ishtirokchisi hisoblanadi.

Ushbu maqolada tuman nomlari o'rganilar ekan, bundan maqsad milliy o'zligimizni anglashga, milliy udum, urf-odat, an'ana va qadriyatlarimizga takror ahamiyat berishga hissa qo'shadigan vositalardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolani tahlil va natijalariga keladigan bo'lsak, Buxoroning qadimgi 3 ta tumani ya'ni G'ijduvon, Romiton va Shofirkon tumanlari tarixi va nomlari hamda kelib chiqish tarixi haqida ma'lumot beradi.

Eng avvalo G'ijduvon tumani haqida gaplashsak. G'ijduvon X asrdan boshlab arab va mahalliy manbalarda tilga olinadi. G'ijduvon shahri asrlar davomida bir necha marta talanib vayronaga aylandi. G'ijduvon nomining kelib chiqishi haqida turli xil fikrlar mavjud. X-XI asrlarda turli sayyoh olimlar G'ijduvon nomini turlicha bayon etishgan. Arab sayyoh olimi Shamsiddin al-

Muqaddosiy “Iqlimlarni bilishning eng yaxshi taqsimlash yo‘li” nomli asarida G‘ijduvonni “G‘ijduvor” yoki “G‘ujdavon” deb atagan. G‘ijduvonning “G‘ujdavon” so‘zidan olinganligi hamda uning ma‘nosi “dovonlari g‘uj” ya‘ni dovonlari ko‘o bo‘lgan joy degan ma‘nosini anglatishi haqida ma‘lumotlar saqlanib qolgan.

M.Baqoyevning “G‘ijduvonnoma” asarida, G‘ijduvon nomi bilan bog‘liq rivoyat uchraydi. Bu rivoyat Mug‘ollon qishloqlik Qilichbobo Siddiqov tomonidan aytib berilgan. Aytishlaricha, bir sharqlik donishmand Buxorolik olimlarni mubozarada lol qoldirish uchun bu yerga kelgan ekan. Yo‘li G‘ijduvon tomonga tushibdi. Bir xonadonda tunash maqsadida qolibdi. Mehmon uyga kirib hayron qolibdi. Ravoqi javonlarda xilma-xil kitoblar terib tashlangan ekan. Boshqa kuni u bir mahsidoz hunarmandning uyida tunabdi. Uchinchi kechani temirchi usta-chilangar uyida o‘tkazibdi va bu xonadonlarda ham ko‘plab kitoblarni ko‘rib lol qolibdi. Oxirgi kechada o‘zining maqsadini oshkor qilibdi. “Men kun chiqish tomondanman ko‘p o‘qigan, ko‘p joyni ko‘rgan sayyohman va tarixchiman. Bu chekka joyda odamlar kitoblarni e‘zozlab, gapda chechan-u dono bo‘lgach, Buxoroga borishga menga yo‘l bo‘lsin. Bu g‘ij-g‘ij kitob to‘la javon egalari biln muloqot qilishdan qo‘rqurmen” deya orqasiga qaytib ketibdi. Shu shu bu hudud “G‘ijdevon” (g‘ij-g‘ij kitob to‘la javon) ma‘nosini anglatar emish. So‘g‘d tilida “G‘ej” so‘zi qamish ma‘nosini anglatar ekan. Chunki Zarafshon hududiga tutash hududlarda qamishzorlar bo‘lgan emish.

O‘sha davr olimlari bu hududni tabiati bilan bog‘lab G‘ej dovon ya‘ni qamishzor dovon deb ham atar ekanlar. Shuning uchun G‘ijduvon qo‘rg‘oni tarixi ko‘p yilga borib taqaladi.

Romiton tumani ham o‘z navbatida Buxorodagi eng qadimgi tuman hisoblanadi. Bu tuman nomining kelib chiqishi haqida ko‘plab ma‘lumotlar tarixda mavjud. Bu katta bir ko‘xandizga ega va mustahkam bir qishloq bo‘lib, Buxorodan ancha qadimiyroqdir. Ba‘zi bir kitoblarda bu qishloqni Buxoro deb ham ataganlar. Bu qishloqda qadim vaqtlarda podshohlarning turar joylari bo‘lgan. Buxoro shahri bino bo‘lgandan keyin podshohlar faqat qish vaqtlarda qishlash uchun keladigan bo‘lgan. Marhum Abu Muslim kelganda shu qishloqda turgan. Afrosiyob bino qilgan. Afrosiyob har vaqt kelganda shu yerda tunab qolgan. Forsiylarning aytishicha Afrosiyob 2 ming yil yashagan. U jodugar bo‘lib Nux podshohning bolalaridir.

Romiton so‘zi qadimgi forscha Ro-suv oqimi va mitan-yer yoki hudud so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, bu joy sug‘orma dehqonchilik rivojlangan hudud ekanligini anglatadi. Yana bu haqida ma‘lumotlar Abu Bakr Muhamman ibn Jafar an Narshaxiyning “Buxoro tarixi” kitobida Romiton

atamasining kelib chiqishi bilan bog'liq ma'lumotlarni beradi. Afrosiyobning bir qizi bo'lib, uning doim boshi og'rib yurar edi. Romitonga kelib turib qolgach unga bu yerning havosi muofiq kelib darddan xalos bo'ladi va maskanni "Oromiton" yoki "Tan oromi" nomi bilan ataydi. Bu hudud shu bilan Romiton nomi bilan mashhur bo'lgan. I.Magidovich Buxoro vohasida qadimdan Rometi degan kichkina urug' bo'lganini aytadi va Romiton o'sha urug' nomidan kelib chiqqan bo'lishi mumkin degan fikrni ilgari suradi.

Buxoroning qadimiy tumanlaridan yana biri bu Shofirkon hisoblanadi. Shofirkon so'zining kelib chiqishi Vardonze qo'rg'onining paydo bo'lishi bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Bu haqida X asrda yashab o'tgan mashhur tarixchi olim Abu Bakr Muhammad ibn Jafar an Narshaxiyning "Buxoro tarixi" kitobida shunday zikr etilgan. Sosoniylar sulolasidan bo'lgan Kisroning farzandlaridan biri o'z otasidan xafa bo'lib bu viloyatga kelgan. Uning nomi Shopur edi. "Pur" Eron tilida o'g'il demakdir. U Buxoroga kelganida Buxoroxudod uni yaxshi kutib oladi. Chunki 563-567-yillarda turk xoqoni Istemi Eron hukmdorlari bilan ittifoq tuzib Eftalilarga zarba beradi va ularni bo'yunsindiradi. Ana shu tomondan bu davrda Buxoro Eronga tobe edi. Shopur ov qilishni xush ko'rar edi. Bir kuni ovga chiqib u Shopurkon tomonga borib qoladi. Bu yerlar o'sha paytlarda yaylov bo'lib odamlar yashamas edi. Shunday qilib bu yerlar unga yoqib qoladi va Buxoroxudoddan bu yerlarni menga ber deb iltimos qiladi. Buxoroxudod rozi bo'ladi. Shopur ko'p yillar davomida bu yerni obod qiladi va bu yerdan bir shahar barpo etadi. Bu qo'rg'onni Shopurkon deb ataydi. Shu bilan Shofirkon nomi kelib chiqadi. Buxoro qadim qadimdan ilm ma'rifat maskani bo'lib xizmat qilgan. Buxoroning qadimgi ruhdagi tumanlarining vujudga kelish tarixi ko'p jihatdan uning juda ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi.

XULOSA

O'zbekistondagi hududlar tarixi qadimiy ekanligini hammamiz yaxshi bilamiz. Lekin bu maqola orqali aynan Buxoro viloyati ulardanda qadimiy ekanligiga, qaysidir ma'noda ularning "otasi" ekanligini xulosa qilsak bo'ladi. Dunyoda 7 ta sharif maqomini olgan shaharlar bo'lsa, aynan ulardan bittasi bu Buxoro shahri hisoblanadi. Bu esa Buxoroning ilm-fan va ma'rifatparvar hudud ekanligini ko'rsatadi. O'z navbatida bu maqola orqali ham huddi shu fikrni xulosa qilsak bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Muhammad hoji Boqoyev "G'ijduvonnoma"- Toshkent Yangi asr avlodi. 2000. 19-22-b.
2. Xofiz tanish Buxoroning "Abdullanoma". Fors tilidan S.Mirzayev tarjimasi 416-b.
3. Karim Bovomurod "Shofirkon tumani tarixi"
4. Dilnoza Jamalova "Romiton tumani tarixi"
5. Avzalshox Xamrayev "G'ijduvon tumani haqida ma'lumotnoma" ("Buxoro" endsklepidiasi)

ВЛИЯНИЕ СМИ НА ФОРМИРОВАНИЕ МОРАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ И ПРАВСТВЕННЫХ ОРИЕНТИРОВ У МОЛОДЕЖИ ЧЕРЕЗ ПОПУЛЯРИЗАЦИЮ СПОРТА.

Султанов Бахтиёр Бахтиёрович

Научный сотрудник Наманганского государственного университета

sultanov_fitness@mail.ru

Аннотация: В статье рассматривается влияние средств массовой информации на формирование моральных ценностей и нравственных ориентиров у молодых людей через популяризацию спорта. Особое внимание уделяется роли цифровых медиа в создании и распространении контента, вдохновляющего на занятиях спортом и поддерживающего негативное отношение к вредным привычкам. Участие в спортивных мероприятиях и регулярные занятия физической культурой способствуют развитию у молодежи этические качества, таких как самодисциплина, командный дух, уважение к сопернику и честность.

Ключевые слова: СМИ, моральные ценности, профессиональный долг, честь, достоинство, нравственные ориентиры, идеалы, командный дух, сотрудничество, долг, патриотизм, ответственность, гедонизм

SPORTNI OMMALASHTIRISH ORQALI YOSHLAR O'RTASIDA MA'NAVYIY-AXLOQIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHGA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING TA'SIRI.

Sultanov Baxtiyor Baxtiyorovich

Namangan davlat universiteti ilmiy xodimi

sultanov_fitness@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada sportni ommalashtirish orqali yoshlar o'rtasida ma'naviy-axloqiy me'yorlar va ko'rsatmalar shakllanishiga ommaviy axborot vositalarining ta'siri ko'rib chiqiladi. Raqamli ommaviy axborot vositalarining jismoniy mashqlarni ilhomlantiruvchi va yomon odatlarga salbiy munosabatni qo'llab-quvvatlovchi kontentni yaratish va tarqatishdagi rolga alohida e'tibor qaratilmoqda. Sport tadbirlarida qatnashish va muntazam jismoniy faollik yoshlarda o'z-o'zini tarbiyalash, jamoaviylik, raqiblarga hurmat va halollik kabi axloqiy fazilatlarini shakllantirishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: *Ommaviy axborot vositalari, axloqiy qadriyatlar, kasbiy burch, or-nomus, qadr-qimmat, axloqiy ko'rsatmalar, ideallar, jamoaviy ruh, hamkorlik, burch, vatanparvarlik, mas'uliyat, gedonizm*

В современном мире средства массовой информации (СМИ) играют ключевую роль в формировании общественного мнения и культурных ценностей. С развитием цифровых технологий и интернет-платформ их влияние на различные аспекты жизни человека значительно возросло. Особое значение имеет влияние СМИ на молодежь, так как именно в этот период формируются моральные ценности и нравственные ориентиры, которые будут определять поведение и мировоззрение человека в дальнейшем.

В последние годы в Узбекистане реализуется целый ряд государственных программ, направленных на укрепление физического здоровья и создание условий для занятия спортом среди молодежи. Президент Республики Узбекистан Ш.М. Мирзиёев уделяет большое внимание воспитанию молодежи в духе патриотизма и приверженности здоровому образу жизни. «Сегодня каждый из нас должен быть истинным патриотом Родины и в этом духе воспитывать молодежь» [1].

Участие в спортивных мероприятиях и регулярные занятия физической культурой способствуют развитию у молодежи множества положительных качеств, таких как самодисциплина, командный дух, уважение к сопернику и честность. СМИ, освещают спортивные достижения и пропагандируют физическую активность, помогают укрепить моральные ценности подрастающего поколения.

Спортсмены достигают успеха благодаря упорным тренировкам и самоотдаче, вдохновляют молодежь на развитие самодисциплины и устойчивости перед трудностями. Эти примеры показывают, что целеустремленность и трудолюбие приводят к значительным достижениям и признанию. Журналисты при встрече с национальными героями, патриотами в сфере спортивной деятельности освещают вопросы воспитания молодежи в духе патриотизма, важности темы о надеждах и устремлениях молодого поколения. В этом направлении актуальной задачей является создание образа героя нашего времени [2; С.168].

Физическая культура и спорт играют важную роль в жизни каждого человека, способствуя не только физическому, но и нравственному развитию. Регулярные занятия спортом помогают укрепить здоровье, развить самодисциплину, командный дух, честность и справедливость. Пропаганда спорта через СМИ способна существенно повлиять на

формирование этих качеств у молодежи, создавая позитивные примеры для подражания и мотивируя на ведение здорового образа жизни.

Особое внимание уделяется популяризации спорта и физической культуры, а также внедрению современных образовательных программ, направленных на профилактику вредных привычек с юных лет. Такие программы, как «Здоровая молодежь – будущее страны», играют ключевую роль в реализации данных задач [3].

СМИ обладают мощным потенциалом для продвижения физической культуры и спорта среди молодежи. Различные платформы, такие как телевидение, радио, печатные издания и цифровые медиа, активно используют свои ресурсы для популяризации здорового образа жизни и спортивных достижений. Публикации, репортажи, интервью и видеоматериалы о спортсменах и спортивных мероприятиях способствуют формированию у молодежи интереса к спорту и активному образу жизни.

Телевидение и радио играют важную роль в популяризации спорта благодаря широкому охвату аудитории. Спортивные программы, репортажи с соревнований, интервью с известными спортсменами и тренерами помогают молодежи познакомиться с различными видами спорта, понять их пользу и вдохновиться на занятия. Примеры успешных спортивных программ включают передачи, такие как «Герои спорта Узбекистана» и «Золотые победы», которые рассказывают о достижениях узбекских спортсменов на международной арене.

Конечно, молодежь хорошо знает «бренд» современника – образ нынешнего героя. Каждый день в газетах, на телевидении, радио публикуются материалы, выпускаются сюжеты о спортивной деятельности той или иной личности. Спортсмены вносят свой вклад, проявляя самоотверженный труд, а журналисты всесторонне освещают вклад спортсменов. Народ должен знать своих героев. У каждого из нас должен быть нравственный идеал. Они останутся в истории.

Общественный идеал, как отмечает П.И. Новгородцев, имеет свои корни в живой человеческой личности. Этот идеал устанавливается философией в связи с основной нравственной нормой, каковою является понятие личности в ее безусловном значении и бесконечном признании. Личность представляет ту последнюю нравственную основу, которая прежде всего должна быть охраняема в каждом поколении и в каждую эпоху как источник и цель прогресса, как образ и путь осуществления абсолютного идеала [4; С.10]. Как указывает Г. В. Плеханов: «Талант человека должен сделать его более другим соответствующим общественным нуждам данной эпохи. Существующий общественный строй не должен заграждать дорогу

личности, имеющей данную особенность, нужную и полезную как раз в это время» [5; С.327].

Интерес к жизни и деятельности выдающихся спортсменов и тренеров всегда будет привлекать внимание СМИ. Спортивные журналисты и исследователи постоянно стремятся найти что-то новое, не замеченное, не раскрытое в их триумфах и личных историях. «История оригинального человека, – писал Т. Карлейль, – достойна того, чтобы ее знать. Сила воли, вошедшая в плоть и кровь существа, созданного одинаково с нами, имеет в себе что-то привлекательное, так что мы сбегаясь со всех сторон, чтобы быть свидетелями всех ее проявлений. О всяком человеке, который избрал себе особый путь жизни, – куда бы, впрочем, этот путь ни привел, – и прошел его с успехом, мы всего более стараемся узнать, как он совершил этот путь, и что ему на пути встречалось» [6; С.263].

Интерес к жизни и достижениям выдающихся спортсменов всегда привлекает внимание журналистов, особенно в сфере физической культуры. Журналисты ищут позитивные аспекты в жизни и деятельности великих спортсменов, чтобы показать их примером нравственного поведения, символами добродетелей и патриотами своей страны.

Конкретная личность становится героем, ее конкретные поступки, конкретная деятельность вызывают восхищение, запечатлеваются в памяти людей, народов. С развитием общества появляются выдающиеся спортсмены, чьи достижения в области физической культуры становятся образцами для подражания. Их упорство, настойчивость и преданность своему делу вдохновляют миллионы людей по всему миру.

Рассказывая о трудностях, которые преодолевают спортсмены на пути к успеху, журналисты подчеркивают их настойчивость, силу духа и преданность Родине. СМИ играют важную роль в популяризации ценностей среди подрастающего поколения, которые воплощают великие спортсмены.

Спортсмен – это стойкая и оригинальная личность. Оригинальными их делает не только физическая подготовка, но и личные качества, достижения и стремление к совершенству. В области физической культуры спортсмены показывают уникальные способности, которые требуют нестандартного мышления и творчества, чтобы достичь успеха.

Спортсмена, выдающегося человека, как показывают специальные исследования, невозможно остановить даже ценою жизни. Например, великий спортсмен становится символом стремления к совершенству и примером для подражания. Его достижения вдохновляют и мотивируют других людей на путь к успеху, несмотря на любые препятствия.

В истории спорта множество примеров, когда выдающиеся личности преодолевали невероятные трудности. Например, Майкл Джордан, легендарный баскетболист, столкнулся с множеством вызовов на пути к вершине, но благодаря своему упорству и настойчивости стал одним из величайших спортсменов всех времен. Его история показывает, что настоящий чемпион не сдаётся, даже когда кажется, что все против него.

СМИ играют ключевую роль в освещении достижений спортсменов и их креативного подхода к спорту. Журналисты рассказывают о том, как великие спортсмены используют свои оригинальные методы тренировки, преодолевают препятствия и вдохновляют миллионы людей по всему миру. Спортивные репортажи и интервью раскрывают трудности с которыми сталкиваются спортсмены, сохраняя при этом моральные принципы и остаются верными своему делу и своей стране.

Освещение командных видов спорта, таких как футбол, баскетбол или волейбол, подчеркивает важность сотрудничества и поддержки друг друга. Это формирует у молодежи навыки работы в команде, которые будут полезны не только в спорте, но и в повседневной жизни. Телепередачи, программы, посвященные спортивным соревнованиям и борьбе с допингом, способствуют формированию у молодежи понимания важности честности и справедливости в спорте и жизни. Эти ценности являются основополагающими для формирования нравственного и морального поведения.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Речь Президента Узбекистана на расширенном заседании Совета безопасности Республики Узбекистан 12 января 2024 года.
2. Шавкат Мирзиёев. От национального возрождения – к национальному прогрессу. Т.4, Ташкент. 2020.
3. Замилова Р.Р., Очилова Ф.К. Гигиена физического воспитания и медико-физиологические основы спорта. Учебное пособие. 2025.
4. Алексеев П.В., Панин А.В. Философия: Учебник. Издание второе, переработанное и дополненное. – М.: «Проспект», 1998.
5. Плеханов Г. В. Избранные философские произведения в 5-ти тт. Т. II. – Москва.: Политиздат, 1956.
6. Карлейль Т. Герои, почитание героев и героическое в истории. – Москва.: ЭКСМО, 2008.

MENEJER FAZILATI

Abdusattarova Madina Xusnuddinovna

O'zbekiston Davlat San'at va Madaniyat instituti

2 -kurs talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada rahbar zamon tili bilan aytganda menejer kasbi haqida hamda uning fazilatlari haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar. *Bozor munosabatlar, zamonaviy menejment, marketing, boshqaruv, rahbar, menejer, kasb.*

Zamon talablariga javob beradigan fidoyi, izlanuvchi, yangilikni intiluvchi, tashabbuskor, kasbiy bilimlarga ega boshqaruv kadrlarini tayyorlash va ularning zaxirasini shakllantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridandir. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek: «Hozirgi zamon boshqaruv kadrlari, menejerlari yuqori kasbiy mahoratga ega bo'libgina qolmay, balki har bir jihatdan ma'lumotli, o'z sohalarining bilimdoni, tashabbuskor, topshirilgan ish uchun jon kuydiradigan, muammolarni hal qilishga ijodiy yondashadigan kishilar bo'lishlari, eng muhimi esa, vatanimizning chinakam fidoyilari bo'lishlari lozim».

Bozor munosabatlarini shakllantirish jarayoni korxonalar va tashkilotlarda zamonaviy menejment va marketing tizimlarini joriy etish, unga mos ravishda rahbarlik (menejerlik) sifatleri va ko'nikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirishni talab etmoqda.

Boshqaruvning shakllanishi va rivojlanishi uzoq davom etib kelayotgan tarixiy jarayon hisoblansa-da, ammo u fan sifatida XIX asming ikkinchi yarmidan XX asrning 50-yillari gacha bo'lgan shakllanish davrini o'z ichiga oladi. Boshqarish hozirga kelib inson bilimlarining o'ziga xos nazariy va amaliy asoslaridan biriga aylandi. U fan sifatida shakllanmasdan ilgari ham odamlar boshqarish faoliyati bilan shug'ullanganlar va boshqarishning amaliyot davri deb ataladi. Zero tashkilotlar qay darajada qadimiy bo'lsa, boshqarish amaliyoti ham shu darajada qadimiydir. Ma'lumki, insonlar guruhlarini tashkil etib yashagan davrlarda ham boshqaruvga ehtiyoj bo'lgan. Hozirgacha saqlanib kelayotgan tarixiy obidalarining yaratilishi turli kasb egalari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar rasmiy tarzda shakllanganligi va ular ma'lum bir maqsad yo'nalishida boshqarilganligidan dalolat beradi. Qadimda va ayniqsa o'rta asrlarda shakllangan davlatlar va imperiyalar faoliyati murakkab tashkilotlarni boshqarish amaliyotidan darak beradi.

Insoniyat sivilizasiyasining barcha davrlarida va har qanday tuzumda boshqaruv kadrlari ommaning yetakchisi hisoblangan. Uning bilimsizligi mafkuraviy qotib qolishga olib kelgan, xalqni qaramlikka solgan, uning taraqqiyoti esa xalq hayotini taraqqiy ettirgan. Bugun ta'lim-tarbiya masalalariga davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida qaralmoqda. Kadrlar tayyorlash bo'yicha qabul qilingan Milliy dasturning mazmun-mohiyati ham aynan ana shu maqsadga yo'naltirilgan. Unda shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan va ishlab chiqarishning bir-biri bilan uzviy hamkorligi, o'zaro aloqadorligi aks etgan. Hozirgi kunga kelib davlat idoralari, biznes tarmoqlari va ijtimoiy sohalami boshqarish bo'g'inlarida zamon talabiga javob beradigan boshqaruv kadrlarini tayyorlash va tarbiyalash masalasi eng dolzarb vazifalardan biridir.

Bugungi kun, boshqaruv kadrlaridan zamonaviy rahbar (menejer) ga xos bo'lmagan salbiy sifatlardan qutulishni, ijobiy fazilatlarni o'zida shakllantirishni talab etmoqda. Ammo shunisi achinarliki, ularning malakasini oshirish va qayta tayyoriashda hali-hanuz ayrim boshqaruv kadrlari zamonaviy menejment va marketing asoslari, biznesni baholash, ilg'or xorijiy tajribalar, ilm-fan yutuqlarini muntazam kuzatib borish ko'nikmalarini yetarli darajada egallay olmayaptilar. Jahon tajribasidan ma'lumki, rahbar (menejer)ning bilim saviyasi qanchalik past bo'lsa, kasbiy mahorati ham shunchalik past bo'ladi. Aksincha, rahbar (menejer)ning intellektual salohiyati qanchalik yuqori bo'lsa, uning ma'naviy-axloqiy jihatlari, tashkilotchilik, tadbirkorlik va tashabbuskorlik qobiliyatlari ham yuqori bo'ladi.

«Har qaysi inson buyuk kuch sohibidir. Faqat uni uyg'ota bilish kerak», degan edi davlatimiz rahbari. Ana shu jihatdan bugungi rahbar (menejer)lik mas'uliyati ancha murakkab. Boshqalardagi kuch-g'ayratni uyg'otish uchun, eng avvalo, rahbar (menejer)ning o'zi kuchli, g'ayratli, kerak bo'lsa qudratli bo'lishi shart. Rahbar (menejer)ning boshqalarga o'mak bo'lishi muhim xususiyatlardan biri bo'lsa, yana biri o'z atrofida fidoyi insonlarni birlashtira olishidir. Bugungi rahbar (menejer) izlanuvchan, tadbirkor, qat'iyatli, kerak bo'lsa, qattiqqo'l bo'la olishi, davlat va xalq manfaati yo'lida fidoyi bo'lishi, boshqalami ham shunga safarbar qila olishi zarur. Shu bilan birga, u xalq ruhiyatida ertangi kunga ishonch hissini uyg'ota bilishi lozim.

Menejment o'zi nima? Menejer kim? - degan savollarga olimlar, mutaxassislar turlicha ta'riflar beradilar. Ba'zilar, menejment - boshqarish faoliyati bo'yicha rahbar kadrlar tayyorlovchi fan deyishsa, ba'zilar, menejment - boshqaruv faoliyatida insonlarni faollashtirish deya ta'rif berishadi. Ayrimlarning fikricha, «Menejment - bu tashkilotning orzu-niyatlariga erishishidagi mehnat va moddiy resurslarni aniq yo'nalishda ishlatilishi evaziga

erishiladigan rejalashtirish, tashkil qilish, tartibga solish (muvofiqlashtirish) va nazorat qilish jarayonidir». Bu jarayonda rahbar (menejer) va boshqariluvchi xodimlar (guruhlar) qatnashadi. Rahbarlik -bu menejement boshqaruv faoliyatidir. Ingliz tilining fundamental Oksford lug'atida «menejment» so'ziga «Insonlarni o'zaro munosabatlarda bo'lish usullari, hokimiyat va boshqarish san'ati» deb ta'rif berilgan. Fikrimizcha, menejment (boshqarish) «o'zga kishilar mehnati, intellekti va xatti-harakatlari motivlaridan foydalangan holda ko'zlangan maqsadlarga erisha olishdir» degan mazmunda ta'riflansa maqsadga muvofiq bo'ladi. Boshqarishning soha yoki fan sifatida rivojlanishi quyidagi savollarni o'rta qo'ndalang qilib qo'yadi: «nima uchun» va «nimaning oqibatida» tashkilotlar rivojlanib, ilgari ketadi yoki barbod bo'ladi? Bir qarashda muvaffaqiyatli bo'lib ko'ringan ishlar (faoliyatlar), aksincha bo'lib chiqadi, chunki har doim ham yaroqli, barcha kishilar uchun va holatlar bo'yicha bir xildagi yo'l-yo'riq hamda vositalarning bo'lishi mumkin emas.

Jamoaga rahbarlik qiluvchi shaxsning obro'si uning va unga ergashgan guruhning muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Rahbar (menejer) obro'si atrofda g'ildirak, ayniqsa, unga ergashuvchilarning ishonchi orqali ifodalanadi. Boshqalarning ishonchi esa quyidagilar asosida shakllanadi:

- xatti-harakatlarning tabiiyligi;
- muomalada erkinlik;
- atrofda g'ildirak nisbatan chuqur hurmat va ehtirom;
- o'zini va boshqalarni noqulay holatga solmaslik;
- imkoniyati boricha boshqalarni xafa qilmaslik;
- boshqalarning ishiga aralashmaslik;
- bo'lar-bo'lmasga (qiyinchiliklardan) nolimaslik;
- kamtarlik va arzimagan vaziyatlarda ko'zga tashlanmaslik;
- o'zining imkoniyatlarini haddan tashqari past baholamaslik, so'zini mazmunli, mantiqiy, asosli va qat'iy, lekin yumshoq shaklda ifodalash;
- nafaqat boshqalarni, o'zini ham hurmat qilish;
- boshqalarning (suhbatdoshning) so'zini bo'lmaslik va boshqalar.

Insonlararo munosabatlarni muvofiqlashtirish bilan bog'liq ishlarga, asosan, tashkilot a'zolarining munosabatlarini o'zaro moslashtirish, har bir shaxs maqsadi va intilishlarini tashkilotning umumiy maqsadlari sari yo'naltirish, kadrlarni tanlash, tayyorlash, joy-joyiga qo'yish, tashkilotga nisbatan tashqi muhit o'zgaruvchanligini hisobga olgan holda yuqori boshqarish mahkamalari, raqobatchilar, iste'molchilar va hokozolar bilan muzokaralar olib borish, turli yig'ilishlar va majlislar o'tkazish hamda ularda qatnashish kabi vazifalarni bajaradilar. Umuman olganda rahbar (menejer)lik mezonini motivatsiya jarayoni bilan belgilanadi.

Rahbar (menejer)ning o'z faoliyatida boshqaruv usullari va uslublarini bilishi va ulardan oqilona foydalana olishi muhim ahamiyatga ega. Ular boshqaruvning negizi bo'lmish xodimlar va ayrim olingan guruhlar (jamoalar) faoliyatini samarali tashkil etish va tartibga solishning ta'sirchan yo'llari hisoblanadi. Boshqaruv usullari asosini ta'sir o'tkazish mexanizmi tashkil etadi. Xodimlar xatti-harakatini tartibga soluvchi barcha ta'sir o'tkazish yo'llarini ikki guruhga bo'lish mumkin:

- passiv ta'sir o'tkazish mexanizmlari, xodimlarga bevosita ta'sir etmaydigan, lekin jamoa faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy qoidalar, boshqacha aytganda, yaratilgan sharoitlar majmui;

- jamoaga va aniq xodimga faol ta'sir o'tkazish mexanizmlari, ya'ni ular faoliyatiga bevosita ta'sir etadigan yo'llar va usullar majmui.

Shunday qilib, boshqaruv usullari deganda boshqarish ob'ektiga ayrim xodim, guruh yoki jamoaning ma'lum manfaatlarini hisobga olgan holda maqsadga muvofiq ravishda ta'sir o'tkazishning yo'l-yo'riqlari majmuasi tushuniladi. Boshqaruvda ta'sir o'tkazish usullari tizimi o'zining xarakteriga ko'ra uchga bo'linadi:

- iqtisodiy usullar;
- tashkiliy-farmoyish usullari;
- ijtimoiy-psixologik usullar.

Boshqaruvda qo'llaniladigan barcha usullar o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, ular bir-birini to'ldiradi. Tashkilotga rahbarlik qilishda ana shu usullarning hammasi o'zaro bog'langan bo'lib, ular muayyan nisbatda amalga oshirilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda menejer quyidagi xislatlarni o'zida aks ettirishi kerak.

Fidoyi, jonkuyar, halol va ma'naviy-ahloqiy jihatdan pokiza:

Malakali, har jihatdan ma'lumotli, o'z sohasining bilimdoni, tadbirkor va o'z ishining ustasi:

O'ta mas'uliyatli, talabchan, qat'iyatli, e'tiborli va kechirimli:

Tavakkal qiluvchi, tashabbuskor, yangilikka intiluvchi va uni his eta oluvchi:

Sezgir va harakatchan:

Yuqori ish qobiliyatiga ega va sog'lom.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. - T.: «O'zbekiston», 1995.
2. M o'minov A., To'xtaboev A. T. Joylarda kadrlar bilan ishlashni takomillashtirish masalalari. - Andijon: «Andijon nashriyoti» OAJ, 2002.
3. To'xtaboev A.T., Eraliev A .A. Tashkiliy xatti-harakatlar / qo'llanma. - Andijon: «Hayot», 2001.
4. To'xtaboev A.T. M a'muriy menejment. O'quv qo'llanma. - T.: «M oliya», 2003.
5. Sharifxo'jaev M., Abdullaev Yo. Menejment. Darslik. - T.: « O'qituvchi», 2002.

IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI ASALARICHILIK SOHASGA JORIY ETISH SAMARADORLIGI

Jonibek Farmanov Ziyadullayevich,

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

“Iqtisodiyot kafedrası” dotsenti, i.f.f.d. (PhD)

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

“Iqtisodiyot” I-102-24 guruh talabasi

Mamatqulova Sevinch Faxriddin qizi

Annotatsiya: *Ushbu maqola iqlim o'zgarishi sharoitida asalarichilikda raqamli texnologiyalarni joriy etishning asosiy yo'nalishlarini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqotda raqamli texnologiyalarning, ayniqsa IoT tizimlari, sensorlar va dronlar yordamida asalarilarning salomatligini monitoring qilish, ekologik xavf-xatarlarni kamaytirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirishdagi roli tahlil qilingan. Ushbu maqola, iqlim o'zgarishiga qarshi raqamli texnologiyalarni keng joriy etishning ekologik va iqtisodiy samaradorligini oshirishga yordam beradi.*

Kalit so'zlar: *Iqlim o'zgarishi, asalarichilik, raqamli texnologiyalar, IoT, sensorlar, dronlar, ekologik barqarorlik, iqtisodiy samaradorlik, polinatsiya, pestitsidlar, ekologik xavf-xatarlar.*

KIRISH

Iqlim o'zgarishi jahon bo'ylab ekologik va iqtisodiy muammolarni keltirib chiqarmoqda, ayniqsa qishloq xo'jaligi va asalarichilik sohalarida. Asalarilar ekotizimda muhim rol o'ynab, ular o'simliklar polinatsiyasi orqali qishloq xo'jaligiga katta hissa qo'shadi.

Raqamli texnologiyalar, jumladan, sensorlar, dronlar, va sun'iy intellekt asosida ishlovchi tizimlar, iqlim o'zgarishi va asalarilar koloniyasining holatini real vaqt rejimida kuzatish imkonini beradi. Biroq, ushbu texnologiyalarni amaliyotda keng joriy etish uchun hali ko'plab ilmiy izlanishlar talab qilinadi. Bu maqolada iqlim o'zgarishining asalarichilikka ta'sirini kamaytirish va raqamli texnologiyalar yordamida ushbu ta'sirlarni qanday boshqarish mumkinligi o'rganiladi.

Maqolaning maqsadi raqamli texnologiyalarni asalarichilikda qo'llashning mavjud holatini tahlil qilish, ularning samaradorligini o'rganish va iqlim o'zgarishi sharoitida asalarichilikni boshqarishda qanday yangi yondashuvlar qo'llanilishini aniqlashdan iborat.

Ushbu maqolada iqlim o'zgarishining asalarichilikka ta'sirini kamaytirishda raqamli texnologiyalarni qo'llashning samaradorligini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot natijalari, asalarichilikda raqamli texnologiyalarni joriy etishning iqlim o'zgarishi sharoitida samaradorligini aniq ko'rsatadi. Quyida keltirilgan natijalar, olingan ma'lumotlar va kuzatuvlar asosida amalga oshirilgan tahlilning umumiy natijasini taqdim etadi.

Maqolada ishtirok etgan asalarichilik xo'jaliklarida raqamli texnologiyalarni qo'llashning samaradorligi sezilarli darajada yaxshilandi. Xususan, sensorlar yordamida koloniyalarning salomatligi va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish jarayonida qo'llanilgan monitoring tizimlari, asalarilar koloniyasining holatini aniq va real vaqt rejimida kuzatish imkonini berdi. Sensorlardan olingan ma'lumotlar, asalarilarning oziq-ovqat ta'minoti va salomatlik holatini yaxshilashga yordam berdi, va bu orqali koloniyalarning salomatligi 20-25% ga yaxshilangani qayd etildi. Iqlim o'zgarishining salbiy ta'sirini kamaytirish bo'yicha bu texnologiyalar muhim rol o'ynadi, chunki ular asalarilarga optimal sharoitlarni ta'minlash imkonini berdi va koloniyalarning o'lim darajasini kamaytirishga yordam berdi.

Texnologiya	Samaradorlik ko'rsatkichi	Ta'siri (%)
Sensorlar	Koloniyaning salomatligi	20-25%
Dronlar	Polinatsiya jarayoni va hosil o'sishi	15-20%
IoT tizimlari	Resurslardan samarali foydalanish	18-22%

1-jadval. Raqamli texnologiyalar yordamida asalarichilik samaradorligini yaxshilash.

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan natijalar, raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali koloniyaning salomatligi va polinatsiya jarayonlarini yaxshilashda sezilarli o'sish kuzatildi. Sensorlar va IoT tizimlari orqali olingan ma'lumotlar, resurslarni samarali boshqarish va asalarilar salomatligini yaxshilash imkoniyatlarini taqdim etdi. Dronlar yordamida polinatsiya jarayoni va hosilning o'sish sur'ati 15-20% ga oshdi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, iqlim o'zgarishiga moslashish va raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali asalarichilik faoliyatining barqarorligini oshirish mumkin. Ushbu texnologiyalar nafaqat ekologik ta'sirni kamaytiradi, balki iqtisodiy samaradorlikni ham ta'minlaydi, bu esa asalarichilikni kelajakda yanada rivojlantirish uchun mustahkam asos yaratadi.

Ushbu tadqiqot, iqlim o'zgarishi sharoitida asalarichilikda raqamli texnologiyalarni qo'llashning ekologik va iqtisodiy samaradorligini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot davomida sensorlar va IoT tizimlarining asalarilarning salomatligini monitoring qilishdagi samaradorligi, ekologik xavf-xatarlarni kamaytirish va iqtisodiy jihatdan foydaliligi sinovdan o'tkazildi.

Natijalarimiz, ekologik va iqtisodiy jihatlarning o'zaro bog'liqligini va raqamli texnologiyalarni qo'llashning uzoq muddatda asalarichilikni barqarorlashtirishdagi ahamiyatini tasdiqladi. Biroq, raqamli texnologiyalarni keng miqyosda qo'llashda hududiy resurslar, iqtisodiy va ijtimoiy omillarni hisobga olish zarur. Tadqiqotda olingan natijalar, bu texnologiyalarni kichik va o'rta asalarichilik xo'jaliklariga keng tatbiq etishda dastlabki investitsiyalarning balandligi ba'zi hududlarda muammo bo'lishi mumkin, ammo uzoq muddatda bu investitsiyalar o'zini oqlashi kutilyapti.

XULOSA

Ushbu maqolada iqlim o'zgarishi sharoitida asalarichilikda raqamli texnologiyalarni joriy etishning ekologik va iqtisodiy samaradorligini o'rganishga qaratildi. Tadqiqot davomida sensorlar, IoT tizimlari va dronlar kabi raqamli texnologiyalarni asalarichilikda qo'llashning ijobiy ta'siri, asalarilarning salomatligi va ekologik barqarorlikni saqlashda qanday foyda keltirishi ko'rsatilgan. Tadqiqot natijalari, raqamli texnologiyalarning asalarichilikni boshqarish jarayonida muhim rol o'ynashini va iqlim o'zgarishining salbiy ta'sirini kamaytirish imkoniyatini yaratishini isbotladi.

Maqolada iqlim o'zgarishi va raqamli texnologiyalarni qo'llashning o'zaro bog'liqligini tasdiqladi. Ekologik va iqtisodiy jihatlarning o'rtasida muvozanatni saqlashning ahamiyati vurg'ulandi. Biroq, raqamli texnologiyalarni keng miqyosda qo'llashda hududiy resurslar, iqtisodiy omillar va ijtimoiy sharoitlarni inobatga olish zarur. Tadqiqot natijalari, uzoq muddatda raqamli texnologiyalarni keng joriy etishning iqtisodiy barqarorlik va ekologik samaradorlikni oshirishi mumkinligini ko'rsatdi.

Kelajakda, raqamli texnologiyalarni asalarichilikda kengroq qo'llash uchun hududiy xususiyatlar, yer resurslari va aholi ehtiyojlarini hisobga olish zarur. Shu bilan birga, davlat tomonidan asalarichilikda raqamli texnologiyalarni qo'llashni rag'batlantirish va unga oid infratuzilma yaratish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish zarur. Bu tadqiqot, asalarichilikni yanada barqaror va ekologik jihatdan to'g'ri boshqarish yo'nalishlarini belgilashda qo'llanilishi mumkin bo'lgan ilmiy asoslarni taqdim etdi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi - *Asalarichilikni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari* (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining nashri).
2. Sirojiddinov, R. (2021). *O'zbekiston asalarichiligi: hozirgi holat va rivojlanish istiqbollari*. Tashkent: O'zbekiston Agrar iqtisodiyoti universiteti.
3. FAO (Food and Agriculture Organization of the United Nations). (2019). *The State of the World's Bees*. Rome: FAO.
4. Mirzaev, S. (2017). *Asalarichilikning ekologik va iqtisodiy ahamiyati*. O'zbekiston Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish markazi.
5. Farmanov, J. (2023). Raqamli texnologiyalarni joriy etgan asalarichilik xo'jaliklarini subsidiyalash tizimini qo'llab-quvvatlash. Conferencea, 24-27.
6. Toshkent Davlat agrar universiteti - *Asalarichilikda innovatsion texnologiyalar* (O'zbekistondagi agrar universitetlardan biri).
7. Farmanov, J. Z., qizi Rimboyeva, N. X., & qizi Rimbayeva, G. X. (2023). Qishloq xo'jaligini raqamlashtirishda xorij tajribasidan foydalanish. *golden brain*, 1(1), 231-236..
8. FAO (Food and Agriculture Organization of the United Nations). (2019). *The State of the World's Bees*. Rome: FAO.
9. Ziyadullayevich F.Dj. i Gulirano X. (2023). Asalarichilik tarmogi va uning tarixi xamda kishlok xodjaligida tutgan orni. *Господарка и инновации*, 437-443.
10. Ziyadullayevich, F. J. (2023). Digitization of Agriculture, Use of Foreign Experiences in Digitalization of the Network. *European Journal of Economics, Finance and Business Development*, 1(1), 98-101.
11. Farmanov, J. (2023). Asalarichilik tarmog'ida raqamli texnologiyalardan foydalanish tizimini rag'batlantirish. *Gospodarka i Innovatsiya*, 396-403..
12. Farmanov, J. (2023). Iqlim o'zgarishi sharoitida asalarichilik tarmog'ida raqamli texnologiyalarni joriy etish. *Gospodarka i Innovatsiya*, 389-395..
13. Farmanov, J. (2023). Asalarichilikda raqamli inqilob: innovatsiyalar uchun samarali subsidiyalar. *Экономика и социум*, (11 (114)-1), 1071-1077.
14. Farmanov, J. (2023). Asalarilar va iqlim o'zgarishi: barqaror asalarichilikka yangi yondashuvlar. *Экономика и социум*, (11 (114)-1), 1066-1070.

O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDA YOSHLARGA QARATILGAN E'TIBOR VA ULAR UCHUN YARATILGAN IMKONIYATLAR

Egamov Yusufboy Ergashbek o'g'li

Urganch davlat pedagogika instituti Filologiya va tarix fakulteti talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O'zbekiston ta'lim tizimidagi so'nggi yillardagi o'zgarishlar, tizimdagi yoshlarga qaratilgan e'tibor va ular uchun yaratilgan imkoniyatlar ko'rsatib beriladi.*

Kalit so'zlar: *Ta'lim, maktabgacha ta'lim, maktab ta'limi, professional ta'lim, oliy ta'lim, islohotlar, yoshlar, imtiyozlar, imkoniyatlar, qonunlar, dasturlar, tanlovlar, tizimdagi o'zgarish va yangiliklar.*

So'nggi yillarda mamlakatimizda barcha sohalar va jabhalarda keng ko'lamli va e'tirofga loyiq islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, yoshlar masalasiga davlat siyosati masalasida e'tibor qaratilmoqda, ular uchun juda katta imtiyoz va imkoniyatlar berilmoqda. Bu islohotlarni ko'rib ,albatta, insonni ko'zlari quvnaydi hamda xalqimizda davlat siyosatidan rozilik va ertangi kunga bo'lgan ishonch tuyg'ulari ortadi. Ko'pchilik xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar ham bu o'zgarishlarni yuqori baholamoqdalar.

Yurtimizda barcha sohalar qatori mamlakatimizda yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'g'il-qizlarning zamonaviy bilim olishi, yuksak ma'naviyatli bo'lib ulg'ayishi uchun zarur sharoit yaratish borasidagi ishlar izchil davom ettirilmoqda. So'nggi yillarda bu borada bir qator nomativ-huquqiy hujjatlar, alohida dasturlar qabul qilindi. Ta'lim sohasidagi islohotlar va imkoniyatlar o'sib kelayotgan yosh avlodning malakali mutaxassis bo'lib mustaqil hayotga kirib kelishida muhim ro'l o'ynamoqda.

Ta'lim tizimi davlat uchun juda muhim va eng ustuvor sohalardan biridir. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Biz keng ko'lamli demokratik o'zgarishlar, jumladan, ta'lim islohotlari orqali O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o'zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik, buning uchun ta'lim tizimimizni isloh qilmog'imiz, ta'lim muassasalaridagi o'quv dasturlarini zamonaviy talablar asosida takomillashtirmog'imiz, yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab

beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak[1]³⁰ Prezidentimiz tashabbusi bilan, ta'lim sohasiga davlat siyosati masalasida yondashilmoqda.

Ta'lim sohasiga oid o'zgarishlar maktabgacha ta'lim tizimidan isloh qilindi. Chunki statistik ma'lumotlarga ko'ra, inson 5 yoshga qadar butun umri davomida oladigan ma'lumotning 70-80 foizini qabul qilib olar ekan hamda shaxsning kelajakda qanday inson bo'lib yetishishi shu davrdagi berilgan e'tiborga bog'liqdir. Shularni inobatga olgan holda, «O'zbekiston Respublikasida 2030 yilgacha maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi»ning qabul qilinishi sohadagi islohotlarni amalga oshirishning huquqiy asosini yaratdi. Maktabgacha ta'limni rivojlantirishda hududlar, shahar va qishloqlar o'rtasidagi nomutanosiblikni bartaraf etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada davlatning sohaga "Davlat-xususiy sheriklik asosida xususiy kapitalni jalb etishni rag'batlantirish" siyosati ham imkoniyatlarni kengaytirmoqda. Davlat-xususiy sherikchilik asosida maktabgacha ta'lim muassasalari tashkil qilindi, xususiy sektorda ham bu tizimda imtiyozlar yaratildi. Maktabgacha ta'lim agentligi xabariga ko'ra, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrov darajasi 2023-yilda 2017 yilga nisbatan (27,7 foiz) 2,5 barobarga, ya'ni 71,8 foizga, maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni 5 211 tadan 29 420 taga yetkazildi.

So'nggi yillardagi maktab ta'lim tizimi sohasidagi o'zgarishlar e'tirofqa loyiqdir. Bu sohada ham hukumat tomonidan huquqiy asoslar shakllantirildi. Maktabgacha va maktab ta'limi sohasi birlashtirilib, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tashkil qilindi[2]³¹.

Davlatimizda har kim ta'lim olish huquqiga ega. Davlat uzluksiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlaydi. Davlat maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Davlat bepul umumiy o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olishni kafolatlaydi. Umumiy o'rta ta'lim majburiydir. Maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiy o'rta ta'lim davlat nazoratidadir[3]³².

Respublikadagi maktablarining moddiy-texnik bazalari mustahkamlandi, yangidan maktablar qurildi, maktablar zamonaviy o'quv jihozlari bilan ta'minlandi. Bugungi kunda mamlakatimizda iste'dodli yoshlarni

³⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yilning 29-dekabridagi Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasidan

³¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-269-sonli qarori

³² Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.

qo'llab-quvvatlash maqsadida Prezident maktablari, Temurbeklar maktabi, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil qilindi. Bu muassasalarda yoshlarga berilayotgan zamonaviy ta'lim-tarbiya Yangi Renessansning mustahkam poydevori bo'lmoqda.

Davlatimizdagi so'nggi yillarda barcha sohalar qatori Oliy ta'lim sohasida ham yoshlarga juda katta e'tibor berilmoqda. Mamlakatimizda oxirgi yetti yilda oliy ta'limda qamrov darajasi 9 foizdan 42 foizga, oliy ta'lim muassasalari soni esa 77 tadan 212 taga yetdi. Oliy ta'lim sohasida xususiy sektorga katta imkoniyatlar hamda imtiyozlar berildi. Xususiy oliy ta'lim muassasalari soni birmuncha ko'paydi. Oliy ta'lim muassasalarida akademik erkinlik, o'zini-o'zi boshqarish huquqi, tadqiqotlar o'tkazish erkinligi ta'minlandi. Sirtqi va kechki oliy ta'lim shakllari tiklandi. Keyingi ikki yil ichida 15 dan ortiq rivojlangan davlatlarning nufuzli universitetlarining filiallari ochildi. Oliy ta'lim muassasalaridagi talabalar xorijiy ta'lim muassasalarida o'qish imkoniyatlariga ega bo'ldilar. Iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida turli xil grantlar, stipendiyalar tashkil qilindi va ular uchun katta imtiyozlar berildi.

Tan olishimiz lozimki, bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Insoniyat tahlikali sharoitda va globallashuv davrida yashamoqda. Darhaqiqat, yoshlarning barkamol avlod bo'lib yetishishi, ularning sog'lom, to'laqonli, mustaqil fikrlaydigan shaxs bo'lib kamolotga yetishida ularning sifatli ta'lim va tarbiya olishi juda muhimdir. Yosh avlod bu davrda har qachongidan ham yuksak bilimli, keng ma'naviyatli va har taraflama mushohadali va tarbiyali bo'lmog'i lozim. "Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz" degan da'vat doimo biz yoshlarni qalbimizda jo'sh urib turishi kerak.

Albatta, bu maqsadlarga mamlakatimizda ta'lim-tarbiya sohasining barcha bo'g'inlari – maktabgacha ta'lim, maktab, o'rta maxsus va oliy ta'lim tizimini takomillashtirish, rivojlantirish orqali erishamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yilning 29-dekabridagi Oliy Majlisga yo'llagan murojaatnomasidan.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-269-sonli qarori
3. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.

UDK 631.5:631.457.01

**ORALIQ EKINLARGA QO‘LLANILGAN ORGANO-MA‘DAN
KOMPOSTLARNI TUPROQNING HAJM MASSASIGA TA‘SIRI****Sh.I.Soatov***mustaqil tadqiqotchi***D.A.Esankulova***3-bosqich talabasi*

Dunyo bo‘yicha 1964,4 million gektar er maydonlari degradatsiyaga uchragan bo‘lib, shundan 55,7 foiz suv eroziyasi natijasida sodir bo‘ladi. Degradatsiyaga uchragan maydonlarning asosiy qismi Osiyo, Afrika, Janubiy Amerika davlatlari erlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Degradatsiya jarayonlari natijasida har yili 6-7 million gektar er maydonlari qishloq xo‘jaligi foydalanishdan chiqib ketmoqda. Yer va suv resurslarining kuchayib borayotgan degradatsiyasi butun jahonning asosiy oziq-ovqat mahsulotlari zaxirasiga salbiy tahdid qilmoqda. Mazkur vaziyat 2050 yilga borib 9 milliard kishini tashkil etishi kutilayotgan butun jahon aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlash imkoniyatlarini chegaralab qo‘yish ehtimoli borligi aytilmoqda. Hozirga kelib global er resurslarining 40 foizga yaqini tanazzulga uchragan. Insoniyatning erga ta‘siri shu qadar kengayib boryaptiki, natijada er o‘zining muhim funksiyalarini bajarishdan to‘xtab, yaroqsiz holga kelib qolmoqda.

Qishloq xo‘jaligi erlarining holatini yaxshilash, tuproq unumdorligini oshirish yurtimizda ham muhim masalalardan biri. Ayniqsa, bunga davlat siyosati darajasida e‘tibor berilayotgani, o‘z iqtisodiyoti rivojlanishini agro-industrial yo‘nalishda tashkil etayotgan hozirgi O‘zbekiston sharoitida tuproq unumdorligini muhofaza qilishning huquqiy muammolarini o‘rganish, ularning echimini topishda amaliyot materiallari asosida chuqur ilmiy-nazariy mushohadaga asoslangan takliflar ishlab chiqish, xulosalar berish zaruriyatini vujudga keltiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 fevraldagi PQ-5009-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni 2021 yilda amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” va 2022 yil 10 iyundagi PQ-277-son “Erlar degradatsiyasiga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror bu boradagi yana bir huquqiy asos bo‘ldi. Mazkur hujjat atrof-muhitning barqaror faoliyatini ta‘minlash, tabiiy ekologik tizimlarni muhofaza qilish, tuproqlardan samarali va ehtiyotkorlik bilan

foydalanish ularni sifati va unumdorligini saqlash hamda tuproqlarni salbiy ta'sirlardan himoya qilishga etiborini qaratadi.

Shuning uchun respublikamizda qishloq xo'jaligi ekinlarini parvarish qilishning intensiv, suv va resurstejamkor, tuproqni irrigatsiya eroziyasidan muhofazalaydigan, ayniqsa degradatsiya jarayonlari natijasida foydalanishdan chiqib ketgan hamda eroziyaga uchragan erlar unumdorligini tiklash bo'yicha samarali agrotexnologiyalar ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish dolzarb masala hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan 2022-2025 yillarda Jizzax viloyatining Paxtakor tumanida joylashgan PSUEAITI ning ilmiy-tajriba stansiyasida foydalanishdan chiqib ketgan va o'rtacha darajada eroziyaga uchragan (nishabligi 2,00 ga teng) o'tloqi bo'z tuproqlari sharoitida o'tkazildi. Tajriba 20 variantdan iborat bo'lib, 2022 yilda oraliq ekinlar 1-10 variantda, 2023-yilda asosiy ekin g'oz'a parvarishlangan. Dala tajribasi 3-qaytariqda joylashtirildi. «Методы полевых опытов с хлопчатником в условиях орошений» [1], «Dala tajribalarini o'tkazish uslublari» [2], «Методы агрохимических, агрофизических и микробиологических исследований в поливных хлопковых районах»[3], nomli manbalarda bayon qilingan usullarda olib borildi. Tajriba tizimi 1-jadvalda keltirilgan.

Ta'kidlash joizki, dukkakli ekinlarning dukkaksiz ekinlarga nisbatan ang'iz va ildiz qoldiqlari tezroq parchalanadi, bu esa o'z navbatida tuproq unumdorligini oshishi, uning agrofizikaviy va agrokimyoviy xossalariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Dukkakli ekinlar tuproq mikroorganizmlari va ildiz sekresiyasi yordamida bu ekinlar tuproqda qattiq erishi qiyin bo'lgan fosfatlarni eritadi, ularning dukkaklari o'zi va keyingi ekinlar tomonidan ishlatiladi.

G.P.Gamzikov, P.R.Shott, P.A.Litvinsev [4] larni tadqiqot natijalariga ko'ra, soyaning agrotexnik qiymati, birinchi navbatda, azot to'plovchi ekin sifatida ahamiyatlidir. Optimal namlik sharoitida nitragin (rizotorfin) bilan inokulyatsiyalanganda tuproqda katta miqdorda (20 -45 kg/ga) azot to'planadi va shuning uchun donli va boshqa dukkaksiz ekinlarga yaxshi ta'sir etadi. Ildizlarda tugunak bakteriyalar tomonidan atmosfera azotining fiksatsiyasi ortib borishi bilan soya atmosferadagi tarkibiga qarab azotga bo'lgan ehtiyojlarining 40-70% ini qondiradi.

Sequi P. [5], Lal R. [8], Murphy et al. [6] larning aytishicha, organik o'g'itlar tuproq unumdorligini saqlash, tiklashda muhim rol o'ynaydi. Tuproqqa qo'shilgan go'ng, mikroorganizmlar tomonidan parchalanadi va buning natijasida tuproqda namlik ortadi, o'simlikni azot, oltingurgut va fosfor ozuqalari bilan ta'minlaydi.

Ma'lumki, tuproqning hajm massasi ekinlarni maqbul o'sib, rivojlanishi uchun muhim agrofizikaviy ko'rsatkichlardan hisoblanadi. Har bir oraliq ekin (beda, klever, soya, sorgo) o'zidan ang'iz va ildiz qoldiqlarini qoldirar ekan ular er. haydalgandan keyin tuproqqa aralashib uning suv-fizik va agrofizik xossalari (hajm massasi, g'ovakligi, suv o'tkazuvchanligi) ni yaxshilaydi.

Ta'kidlash joizki, sobiq SoyuzNIXI (PSUEATI) ning ko'p yillik ilmiy tadqiqotlari asosida beda o'simligi uch yildan so'ng haydalganda tuproqni suv-fizik xolatini boshqa oraliq ekinlarga nisbatan maqbul ta'sir ko'rsatishi isbotlangan. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash sababli bu ekinning mustaqillik yillarida g'o'za majmuidagi ekinlar qatoridaga ulishi kamaygan. Lekin, degradatsiyaga uchragan, foydalanishdan chiqib ketgan, qolaversa irrigatsiya eroziyasiga (qiyalik darajasi 2,00) moyil, unumdorligi past tuproqlarni unumdorligini os'hiris'h va melirativ xolatini yaxs'hilas'hda asosiy omil bo'lib hisoblanadi.

Jizzax viloyatining yuqoridagi tavsiflarga to'g'ri keladigan foydalanis'hdan chiqib ketgan va eroziyaga uchragan o'tloqi bo'z tuproqlari s'haroitida o'tkazilgan tajribamizda ham beda o'simligini 1-yil davomida tuproqning hajm massasini o'zgaris'higa ta'siri aniqlandi (1-rasm).

Tajribada bedada N100, P150, K75 kg/ga me'yorlarda qo'llanilgan 3-variantda bahorda (barcha variantlarda ham) tuproqning haydov qatlamida (0-30 sm) hajm massasi 1,38 g/sm³ ni, haydov ostki qatlamida (30-50 sm) yesa 1,41 g/sm³ tas'hkil yetgan bo'lsa, yekinlarning amal davri ohirida (kuzda) bu ko'rsatkichlar mutanosib ravis'hda 1,36 va 1,39 g/sm³ ga teng bo'ldi yoki dastlabki holatidan 0,02 va 0,02 g/sm³ kamayganligi kuzatildi. Qolaversa, ma'dan o'g'itlarni yuqoridagi me'yorlarida yana 21 tonna kompost (15 tonna go'ng +6 tonna bentonit loyqasidan tayyorlangan) qo'llanilganda (7-variant) tuproqning hajm massasi qatlamlar va muddatlarga mutanosib ravis'hda 1,38-1,33 va 1,41-1,36 g/sm³ ni tas'hkil yetganligi, us'hbu ko'rsatkichlar kompost ta'sirida (amal davri oxirida) 0,03-0,03 g/sm³ ga kamayganligi aniqlandi.

Klever (sebarga) o'simligi yekilgan 4-variantda ma'dan o'g'itlar N100, P150, K75 kg/ga me'yorda qo'llanilganda tuproqning hajm massasi amal davri oxirida tuproq qatlamlariga muttanosib ravis'hda 1,37-1,39 g/sm³ ni tas'hkil yetgan bo'lsa, 21 tonna kompost ta'sirida yana 0,03-0,02 g/sm³ ga kamayganligi, lekin bedaning ta'siriga nisbatan 0,01-0,00 va 0,01-0,01 g/sm³ ga ko'paygan bo'lganligi ma'lum bo'ldi. Bu holat yesa kleverni ildiz tizimigi nisbatan bedaniki yaxs'hidroq rivojlanganligi bilan izohlanadi.


Ma'lumki, Respublikamizda g'o'zani qisqa rotatsiyali almas'hlab yekis'h tizimida (1:1 yoki 2:1) soya o'simligi asosiy takroriy yekinlardan biri hisoblanadi, chunki bu bir yillik o'simlik, beda yesa ko'p yillikdir.

S'hunday yekan soyani qoldiqlari ta'sirida ham tuproqning hajm massasi yaxshilanganligi (kamayganligi) kuzatildi va amal davri oxirida 5 va 9 variantlarda mutanosib ravishda 0-30 va 30-50 sm tuproq qatlamlarida 1,37-1,38 va 1,33-1,35 g/sm³ ni tas'kil yetdi. Bu ko'rsatkichlar beda yekilgan variantlarga nisbatan 0,01-0,00 va 0,01-0,00 g/sm³ ga farqlandi xolos.

1-jadval

Tajriba tizimi

2022 yil				2023-2024-2025 yillar				
Var. lar.	Ekin turlari	Ma'dan o'g'it me'yorlari, kg/ga	Kompost me'yorlari, t/ga	Var. lar.	Ekin turi	Kompost me'yorlari, t/ga	Sug'orish usullari	Ma'dan o'g'it me'yorlari, kg/ga
1	-	-	-	1	G'oz	-	An'anaviy oddiy to'g'ri yegat lar orqali sug'orish	N ₂₀₀ , P ₁₄₀ , K ₁₀₀
				2			Tes'hik diametri 15 mm moslamasi orqali sug'orish	
2	-	-	-	3	G'oz	21	An'anaviy oddiy to'g'ri yegat lar orqali sug'orish	N ₂₀₀ , P ₁₄₀ , K ₁₀₀
				4			Tes'hik diametri 15 mm moslamasi orqali sug'orish	
3	Beda	N ₁₀₀ , P ₁₅₀ , K ₇₅	-	5	G'oz	-	An'anaviy oddiy to'g'ri yegat lar orqali sug'orish	N ₂₀₀ , P ₁₄₀ , K ₁₀₀
				6			Tes'hik diametri 15 mm moslamasi orqali sug'orish	
4	Klever	N ₁₀₀ , P ₁₅₀ , K ₇₅	-	7	G'oz	-	An'anaviy oddiy to'g'ri yegat lar orqali sug'orish	N ₂₀₀ , P ₁₄₀ , K ₁₀₀
				8			Tes'hik diametri 15 mm moslamasi orqali sug'orish	
5	Soya	N ₆₀ , P ₉₀ , K ₆₀	-	9	G'oz	-	An'anaviy oddiy to'g'ri yegat lar orqali sug'orish	N ₂₀₀ , P ₁₄₀ , K ₁₀₀
				10			Tes'hik diametri 15 mm moslamasi orqali sug'orish	
6	Sorgo	N ₂₀₀ , P ₁₂₀ , K ₁₀₀	-	11	G'oz	-	An'anaviy oddiy to'g'ri yegat lar orqali sug'orish	N ₂₀₀ , P ₁₄₀ , K ₁₀₀
				12			Tes'hik diametri 15 mm moslamasi orqali sug'orish	
7	Beda	N ₁₀₀ , P ₁₅₀ , K ₇₅	21	13	G'oz	-	An'anaviy oddiy to'g'ri yegat lar orqali sug'orish	N ₂₀₀ , P ₁₄₀ , K ₁₀₀
				14			Tes'hik diametri 15 mm moslamasi orqali sug'orish	
8	Klever	N ₁₀₀ , P ₁₅₀ , K ₇₅	21	15	G'oz	-	An'anaviy oddiy to'g'ri yegat lar orqali sug'orish	N ₂₀₀ , P ₁₄₀ , K ₁₀₀
				16			Tes'hik diametri 15 mm moslamasi orqali sug'orish	
9	Soya	N ₆₀ , P ₉₀ , K ₆₀	21	17	G'oz	-	An'anaviy oddiy to'g'ri yegat lar orqali sug'orish	N ₂₀₀ , P ₁₄₀ , K ₁₀₀
				18			Tes'hik diametri 15 mm moslamasi orqali sug'orish	
10	Sorgo	N ₂₀₀ , P ₁₂₀ , K ₁₀₀	21	19	G'oz	-	An'anaviy oddiy to'g'ri yegat lar orqali sug'orish	N ₂₀₀ , P ₁₄₀ , K ₁₀₀
				20			Tes'hik diametri 15 mm moslamasi orqali sug'orish	



1-rasm. Tuproqning hajm massasini o'zgarishi, g/sm³ (2022 y)

Tajribada oxirgi o'rinni sorgo (jo'xori) o'simligi yegallagan holda 21 tonna kompost ta'sirida tuproq hajm massasi dastlabki xolatidan 0,02-0,02 g/sm³ ga kamayganligi, lekin beda parvaris'h qilingan variantga nisbatan 0,03-0,03 g/sm³ ga yuqori bo'lganligi aniqlandi.

Demak, degradatsiyaga uchragan, o'tloqi bo'z tuproqlarni hajm massasini yaxshilas'ha uchun avvalo beda, soya qolaversa klever va sorgo yekis'ha kerakligi ma'lum bo'ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI;

1. «Методы полевых опытов с хлопчатником в условиях орошений» //Издание 5-е. СоюзНИХИ. Ташкент. 1981.С. 225.
2. “Dala tajribalarini o'tkazish uslublari” – Toshkent. 2007. B.180.
3. Методы агрохимических, агрофизических и микробиологических исследований в поливных хлопковых районах.3-е издание. Ташкент. 1963. С. 124.
4. Gamzikov G.P., Shott. P.R., Litvinsev. P.A. Продуктивность соев в зависимости от источников азотного питания // Сиб. Вестн. С.-х. науки. 2007. № 7. С. 21-28.
5. Sequi P. Le funzionig ronomichedellastos tanzaorganica, in: Patron (Ed.), Chimica del suolo, Bologna, Italy. 1989. Pp. 279–292.

O‘ZBEKISTON VA QORAQALPOG‘ISTON XALQ ARTISTI POLAT MADREYMOVNING RAQS XRONOLOGIYASI

Ra’no Karamova

O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi

“San’at nazariyasi va tarixi” yo‘nalishi 1-kurs magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq artisti, Tataristonga xizmat ko‘rsatgan artist, qoraqalpoq raqs san’ati asoschisi, xoreograf Madreymov Polat Shamshetovich sahnalashtirgan raqs xronologiyasi ilmiy bayon etiladi.*

Kalit so‘zlar: *Xoreograf, raqs, xronologiya, kompozitsiya, baletmeyster, milliy, aydar to‘y, shabando‘zlar, libos.*

Xoreograf raqs kompozitsiyasida, raqs tili orqali qanday fikrni ifodalamoqchi ekanligini, tushunishi kerak. Raqs matni xalqning milliy xarakteri, qiyofasi, hayoti va tafakkuriga chambarchas bog‘liqdir³³.

Polat Madreymov,

O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq artisti

Har bir millat raqs san’atining o‘ziga xos o‘rni bor. Qoraqalpoq raqs san’ati ham o‘ziga xos san’at turidir. O‘zining milliy raqslari bilan bizni hozirgi kunga qadar rom etmoqda.

